



# MATEMATIKA

7

$$8550 : 25 =$$

$$176 : 20 =$$



A. AXATOV, M. SAYDALIYEVA, F. MUZAFFAROVA,


M. BARAKAYEVA

# MATEMATIKA

*Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab  
va maktab-internatlarning 7-sinf darsligi*

*Ikkinchchi nashr*

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
tomonidan tasdiqlangan*



TOSHKENT  
«NISO POLIGRAF»  
2016

51:376(075.3) Matematika

UO'K: 51:376(075.3)

KBK: 22.1

M31

Taqrizchilar: **Z. Anarbayeva** – Toshkent shahar 52-maxsus yordamchi maktab o'qituvchisi;

**B. Eshmetova** – Toshkent shahar 57-maxsus yordamchi maktab o'qituvchisi;

**N. Saydullayeva** – Toshkent shahar 37-maxsus yordamchi maktab o'qituvchisi;

### **Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi**

Darslikdagi pul muomalasiga doir topshiriqlarda narxlar shartli qabul qilingan.

Ushbu darslikdan o'quvchilarning bilish darajasi va imkoniyati hisobga olingan holda differensial yondashib foydalanish tavsiya etiladi.

#### **A. Axatov va boshqalar.**

**Matematika.** Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslash-tirilgan maktab va maktab-internatlarning 7-sinf darsligi. Ikkinchini nashr. – T.: «Niso Poligraf» nashriyoti, 2016. – 176 b.


UO'K: 51:376(075.3)


KBK: 22.1я72

ISBN 978-9943-4765-7-8

© «TALQIN» nashriyoti, 2008-y.

© «Niso Poligraf» nashriyoti, 2016-y.





## YUZ MING ICHIDA RAQAMLASH

1, 2, 3 ... – bu natural sonlar. Shu paytgacha biz bilgan sonlardan eng kattasi 10 000 dir.

1. 1) Quyidagi sonlarni yozishda nechta raqam (belgi) qo'llanilgan:

9; 36; 500; 825; 1200, 3042, 6703; 10000?

Bu sonlarning har biriga 1 ta birlik qo'shib chiqsangiz undan keyin keladigan son hosil bo'ladi. Bu songa yana 1 ta birlik qo'shsa bo'ladimi? Bunda qanday son hosil bo'ladni? Istalgan songa 1 ni qo'shsa bo'ladimi? Bunda qanday son hosil bo'ladni?

Bittadan qo'shish amalini istagancha davom ettirish mumkin. Shuning uchun eng katta natural sonning o'zi yo'q, natural sonlar cheksizdir.

2) Har bir son uning raqamlari soniga qarab qanday ataladi?

2. 1 tadan, 10 tadan, 100 tadan, 1 000 tadan, 10 000 tadan qo'shib sanang.

1, ..... 10 ta birlik bu o'nlikdir


10, ..... 10 ta o'nlik yuzlikdir

100, ..... 10 ta yuzlik minglikdir

1 000, ..... 10 ta minglik o'n minglikdir

10 000, ..... 10 ta o'n minglik yuz minglikdir.

**100 000 – yuz ming – 10 ta o'n minglik – olti xonali son.**



Har bir sinf 3 ta xonadan tashkil topadi!

#### 4. Sonlarni o'qing:

Mingliklar sinfi			Birliklar sinfi		
6	5	4	3	2	1
yuz minglar	o'n minglar	bir minglar	yuzlar	o'nlar	birlar
				4	3
			3	.	.
	1				
					6
		3	1	2	8
1					

Sonlar qaysi sinf va xona birliklariga tegishli?

#### 5. Tushirib qoldirilgan sonlarni yozing:

10000, ... , 30000, ... , ... , 60000, ... , ... , 90000, ... .

100000 – 10000 ga nisbatan katta son.

100000 kun taxminan 274 yilga teng.

100000 ta harf – bu 35 betdan iborat bo'lgan kitobdir.

1 dan 100000 gacha to'xtamay sanash uchun bir sutkadan ortiqroq vaqt kerak bo'ladi.

6. Sonlarni jufti bo'yicha o'qing:

20	16 000	100	9	32 000	80
20 000	16	100 000	9 000	32	80 000

Qanday sonlar birliklar sinfiga, qaysilari mingliklar sinfiga kiradi.

7. 1) uch xonali; 2) to'rt xonali; 3) besh xonali sonlarga 1 tadan misol keltiring.

8. Quyidagi sonlarni o'qib, daftaringizga yozing.

- 1) 20, 2000, 20000; 3, 300, 3000, 30000; 6000, 60000.
- 2) 45, 189, 6001, 6107, 10000, 10001, 15000, 15100, 15109.

9. Sonlarni o'qing va qaysi sinfga tegishli ekanini ayting:

400	4000	10 000	25 000	78 100
401	4100	10 300	25 007	78 125
410	4001	10 003	25 070	78 105
416	4010	10 030	25 700	78 005

10. Raqamlar bilan yozing:

- a) yigirma ming; o'ttiz bir ming; to'rt ming bir yuz; o'n besh ming ikki; ikki ming o'n besh;
- b) besh ming olti; ellik ming olti; ellik olti ming.

11. Tushirib qoldirilgan sonlarni yozing:

6 999, ..., ..., ..., ..., 7 004

29 998, ..., ..., ..., ..., 30 002

27 000, ..., ..., ..., ..., 27 005

99 996, ..., ..., ..., ..., 100 000

12. 638; 1 950; 10 296; 35 996; 13 500; 13 897; 99 995 sonlarining har biridan keyin keluvchi 5 ta dan son yozing.

- 13.** Sonlarni namunada ko'rsatilgandek xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing:

*Namuna:  $25\,783 = 20\,000 + 5\,000 + 700 + 80 + 3$ .*

59 630; 40 100; 13 209; 63 008; 5 120; 74 500; 82 503;  
18 005; 30 008; 10 020; 41 136; 20 740; 56 003; 94 045;  
67 700; 8 012.

- 14.** Sonlarni namunada ko'rsatilgandek xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing:

**$90\,000 + 3\,000 + 400 + 10 + 5 = 93\,415$ .**

$$\begin{array}{ll} 50\,000 + 600 + 30 + 1 = & 60\,000 + 8\,000 + 300 = \\ 30\,000 + 3 = & 20\,000 + 60 + 1 = \\ 40\,000 + 80 = & 7\,000 + 6 = \end{array}$$

- 15.** Tushirib qoldirilgan sonlarni xona birligi ko'rinishida yozing:

$$27\,183 = 20\,000 + \dots + 100 + \dots + 3$$

$$38\,605 = 30\,000 + \dots + 600 + \dots$$

$$60\,594 = 60\,000 + \dots + 90 + \dots$$

$$54\,012 = 50\,000 + \dots + \dots + 2$$

$$23\,006 = \dots + 3\,000 + \dots$$

- 16.** Yig'indini toping:

$$\begin{array}{ll} 30\,000 + 6\,000 + 30 + 2 = & 20\,000 + 30 + 1 = \\ 80\,000 + 100 + 20 = & 60\,000 + 3\,000 + 400 = \\ 50\,000 + 7 = & 90\,000 + 2\,000 + 80 = \\ 40\,000 + 5\,000 + 300 + 7 = & 30\,000 + 600 + 40 + 5 = \end{array}$$

- 17.** 1) Sonlarni  $>$  yoki  $<$  belgilari yordamida taqqoslang.

- ikki xonali va to'rt xonali son;
- besh xonali va to'rt xonali son.



**Eslang!** Ikkita natural sondan qaysi birining xonalari soni katta bo'lsa, o'sha son kattadir.

2) Sonlarni  $>$ ,  $<$ ,  $=$  belgilari yordamida taqqoslang:

30631 ... 9897	80103 ... 9999	10001 ... 10000
1304 ... 13004	10000 ... 100000	6345 ... 80000

18. 1) **82 473** va **79 800** sonlarini taqqoslang. Bunda ikkala sondagi xonalarning soni bir xil.



Taqqoslash yuqori xona birligidan boshlanadi.

82 473 sonida 8 ta o'n minglik, 79 800 sonida esa 7 ta o'n minglik bor.

Demak,  $82\,473 > 79\,800$ .

2) Sonlarni taqqoslang va  $>$ ,  $<$ ,  $=$  belgilaridan mosini qo'ying:

a) 31 625 ... 54 280	60 003 ... 29 837	90 407 ... 69 800
37 003 ... 73 000	81 184 ... 10 000	43 271 ... 50 101
b) 6 234 ... 2735	27 005 ... 27 500	39 000 ... 9 999
72 560 ... 73 000	10 010 ... 10 100	6 001 ... 60 001
d) 28 315 ... 28 400	7 607 ... 67 007	79 026 ... 78 926
10 648 ... 10 648	39 007 ... 35 008	56 413 ... 56 411

19. Sonlarni o'qing. Eng katta sonning tagiga chizing.  
Sonlarni kamayib borish tartibida yozing:

- a) 16 394; 70 538; 59 197; 31 002; 38 409; 31 100;  
b) 91 230; 19 300; 90 123; 91 003; 90 003; 60 100; 61 000;  
16 999; 60 009; 69 000.

20. Natural sonlar qatorida berilgan sonlardan oldin va keyin keladigan sonlarni yozing:

... ; 990; ... . ... ; 5999; ... . ... ; 10000; ... . ... ; 10100; ... .  
... ; 999; ... . ... ; 7000; ... . ... ; 12999; ... . ... ; 12009; ... .

### SONLARNI YAXLITLASH

21. Ba'zi hollarda ko'p xonali sonlarni yaxlitlashga ehtiyoj seziladi. Bunda «≈» (taqriban tenglik) belgisidan foydalilaniladi. Masalan:

$$\underline{232} \approx 230$$

$$\underline{\dot{2}}\dot{3}\dot{2} \approx 200$$

$$\underline{\dot{7}}\dot{4}28 \approx 7000$$

$$\underline{1}2168 \approx 10000$$

$$\underline{238} \approx 240$$

$$\underline{281} \approx 300$$

$$\underline{7}975 \approx 8000$$

$$\underline{17}630 \approx 20000$$

Yuqoridagi misollarda yaxlitlash qaysi tartibda bajarilgan?



Sonlarni yaxlitlashda quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

- 1) Kerakli xona raqamlari tagiga chizish;
- 2) Yaxlitlanayotgan xonaning o'ng tarafida turgan raqamga e'tibor bering.
- 3) Sonni yaxlitlash.

22. Sonlarni o'nlar, yuzlar, minglar, o'n minglar xonasigacha yaxlitlash:

<b>o'nlar</b>	<b>yuzlar</b>	<b>minglar</b>	<b>o'n minglar</b>
3257	67 523	50 632	35 142
28043	81 403	31 249	21 690
99 999	967	67 815	59 708
52 698	99 999	99 999	99 999
4 345	72 967	54 207	70 345
17 098	1 149	8 096	33 658



## MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

### I-qator

1. Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing:  
 $45083 = \dots + \dots + \dots + \dots$        $27106 = \dots + \dots + \dots + \dots$
2. Xona qo'shiluvchilarining yig'indisini toping:  
 $60\,000 + 7\,000 + 300 + 40 + 9 =$   
 $80\,000 + 4\,000 + 60 =$
3. Sonlarni taqqoslang va  $>$ ,  $<$ ,  $=$  belgilardan mosini qo'ying:  
 $35\,659 \dots 35\,695$        $10\,000 \dots 100\,000$   
 $80\,002 \dots 80\,200$        $99\,990 \dots 100\,000$
4. Tushirib qoldirilgan qo'shni sonlarni yozing:  
 $45\,679, \dots ; 3\,549, \dots ; \dots , 10\,000.$

### II-qator

1. Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing:  
 $10\,325 = \dots + \dots + \dots + \dots$        $6\,780 = \dots + \dots + \dots$
2. Xona qo'shiluvchilarining yig'indisini toping:  
 $10\,000 + 2\,000 + 600 + 30 + 8 =$   
 $1\,000 + 300 + 7 =$
3. Sonlarni taqqoslang va  $>$ ,  $<$ ,  $=$  belgilardan mosini qo'ying:  
 $83\,450 \dots 8\,260$        $70\,150 \dots 71\,050$   
 $25\,140 \dots 93\,000$        $99\,660 \dots 99\,966$
4. Tushirib qoldirilgan qo'shni sonlarni yozing:  
 $53\,283, \dots ; 10\,001, \dots ; \dots , 10\,001.$



## KO'P XONALI NATURAL SONLARNI QO'SHISH VA AYIRISH

### OG'ZAKI QO'SHISH VA AYIRISH

23. 1) Qo'shish amalini bajarishdagi sonlar qanday ataladi?  
Ayirishda-chi?
- 2) Misollarni og'zaki yeching:

$36 + 27$

$97 - 26$

$1200 + 1300$

$4500 - 2100$

$160 + 340$

$1000 - 200$

$27\,000 + 12\,000$

$45\,000 - 21\,000$

$5\,600 + 2\,000$

$7\,400 - 5\,000$

$70\,000 + 20\,000$

$45\,600 - 21\,000$

$13\,000 + 15\,000$

$25\,000 - 12\,000$

$31\,000 + 45\,000$



Besh xonali sonlarni qo'shish va ayirish xuddi uch  
va to'rt xonali sonlarni qo'shish va ayirish kabi  
bajariladi.

24. 4000 ga orttiring                            5000 ga kamaytiring

$2000$

$7\,000$

$15\,000$

$26\,000$

$6\,000$

$5\,100$

$10\,100$

$10\,000$

25. Bosmaxonada 1 200 ta «Matematika» darsligi va undan 2000 ta ko'p «O'qish» darsligi chop etildi. Bosmaxonada hammasi bo'lib nechta darslik chop etildi?
26. Yig'indini og'zaki hisoblang:
- |               |                 |
|---------------|-----------------|
| 3 000 + 215   | 20 000 + 13 000 |
| 3 000 + 1 400 | 60 000 + 10 400 |
| 3 000 + 29    | 42 000 + 5 000  |
| 3 000 + 8     | 63 000 + 2 167  |
27. Ayirmani toping:
- |                 |                 |
|-----------------|-----------------|
| 8 142 – 142     | 39 540 – 24 000 |
| 10 607 – 10 000 | 86 107 – 6 107  |
| 23 485 – 3 485  | 86 107 – 86 000 |
| 41 367 – 1 300  | 39 540 – 40     |
28. Fermer xo'jaligidagi 1 680 ta sigirlar va undan 240 ta kam buzoqchalar bor. Xo'jalikda nechta buzoqchalar bor?
29. **Nechtaga ko'p?**                            **Nechtaga kam?**
- |        |        |     |        |        |     |
|--------|--------|-----|--------|--------|-----|
| 23 000 | 12 000 | dan | 5 000  | 25 000 | dan |
| 18 500 | 8 000  | dan | 12 000 | 14 500 | dan |
| 24 600 | 14 600 | dan | 41 000 | 63 810 | dan |
| 15 020 | 2 000  | dan | 9 100  | 9 200  | dan |
30. Kichik korxonada 7 652 kg kulrang jun va 2 000 kg oq jun yigirildi. Oq jun kulrang jundan qancha kg kam yigirilgan?

## YOZMA USULDA QO'SHISH VA AYIRISH

31. Namunaga qarab qo'shish qanday usulda bajarilganini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} \overset{\bullet}{2} 5 \overset{\bullet}{1} 2 4 \\ + 3 6 \ 8 0 6 \\ \hline 6 1 9 3 0 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 47\ 253 \\ 52\ 747 \\ \hline 100\ 000 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 63\ 427 \\ 8\ 295 \\ \hline ..\ 7.\ 2 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 6\ 937 \\ 4\ 604 \\ \hline ..\ 5.\ 1 \end{array}$$

Qo'shish amali qaysi xona birligidan boshlanadi?



Besh xonali sonlarni yozma qo'shish va ayirish, to'rt xonali sonlarni qo'shish kabi bajariladi.

32. Qiymatini hisoblang:

1-qo'shiluvchi	60037	39750	84347	1246
2-qo'shiluvchi	12982	6074	5918	26805

33. Quyidagi misollarni yechishda qo'shishning qaysi usulini qo'llash mumkin?

$3057 + 56903$

$90\ 305 + 5\ 695$

$639 + 14\ 845$

$72435 + 25\ 784$

$48 + 20\ 189$

$29\ 007 + 16\ 084$



Qo'shish amalining to'g'ri bajarilganini tekshirish uchun qo'shiluvchilarning o'rni almashtiriladi.

$$\begin{array}{r} + 384 \\ 67847 \\ \hline 68231 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 67847 \\ 384 \\ \hline 68231 \end{array}$$

34. Qo'shishni bajaring va natijaning to'g'riligini o'rin almash-tirish qonunidan foydalanib tekshiring:

$$56784 + 7042 \quad 35498 + 62004 \quad 3207 + 39896$$

$$45261 + 54739 \quad 7843 + 19256 \quad 50063 + 38945$$

35. Maktab issiqxonasida o'quvchilar 2568 tup chinnigul va undan 12680 ta ortiq atirgul yetishtirishdi. O'quvchilar hammasi bo'lib qancha gul yetishtirishdi?

36. Qo'shishning eng qulay usulidan foydalanib, uchta qo'shiluvchining yig'indisini toping:

$  \begin{array}{r}  12560 \\  + 5021 \\  \hline  17928  \end{array}  $	<b>347 + 12560 + 5021</b> $30567 + 893 + 2546$ $5294 + 86109 + 25$ $67819 + 10204 + 8030$
---	--

37. O'tgan yili yangi uylarga 1306 ta, bu yil 9867 ta ortiq odam ko'chib kirdi. Kelasi yili bu yilgiga qaraganda 754 ta ko'p odam ko'chib kiradi. Kelasi yilda yangi uylarga qancha odam ko'chib kiradi?

38. 1) Misollarga qarang, ko'p xonali sonlarni ayirish qanday usulda bajarilganini tushuntiring:

$  \begin{array}{r}  \cdot 37126 \\  - 18014 \\  \hline  19112  \end{array}  $	$  \begin{array}{r}  \cdot \cdot \cdot 82543 \\  - 26672 \\  \hline  55871  \end{array}  $	$  \begin{array}{r}  \cdot \dot{7}1839 \\  - 53640 \\  \hline  1...9  \end{array}  $	$  \begin{array}{r}  \cdot \cdot \cdot \dot{6}3752 \\  - 37849 \\  \hline  ....3  \end{array}  $
--	--	--	--

Yozma ayirish amali birinchi bo'lib qaysi xona birligidan boshlanadi?



Besh xonali sonlarni yozma ayirish to'rt xonali sonlarni ayirish kabi bajariladi.

39. Ayirmani toping:

- |                    |                 |
|--------------------|-----------------|
| a) $48235 - 24316$ | $59357 - 36048$ |
| $82356 - 19248$    | $96425 - 90837$ |
| $57643 - 8904$     | $49293 - 865$   |
| b) $34842 - 23764$ | $15341 - 496$   |
| $82245 - 6907$     | $80472 - 98$    |
| $52378 - 16009$    | $64533 - 17608$ |

40. Do'konga 6875 kg un olib kelindi. Bundan 1396 kg birinchi navli, 950 kg ikkinchi navli, qolgani esa oliv navli un edi. Do'konga necha kilogramm oliv navli un olib kelindi?

41. Qisqa shart asosida masalani yeching:

- a) I qatnovda – 12060 kg bug'doy ←  
II qatnovda – 2620 kg ortiq ←  
III qatnovda – 1900 kg kam – ?
- b) Hammasi bo'lib – 45000 kg  
I – 18640 kg ←  
II – 2700 kg kam ←  
III – ?

42. Ayirish amalining qanday bajarilganini tushuntiring:

$\begin{array}{r} \dot{2}1\dot{4}00 \\ - 15326 \\ \hline 6074 \end{array}$	$\begin{array}{r} \dot{7}0000 \\ - 34842 \\ \hline 35158 \end{array}$	$\begin{array}{r} \dot{3}00\dot{1}0 \\ - 12436 \\ \hline 17574 \end{array}$	$\begin{array}{r} \dot{1}0\dot{9}20 \\ - 6837 \\ \hline 4083 \end{array}$
--	---	---	---

**43.** Misollarni yeching:

$$\begin{array}{r} \overset{.}{8} 0 1 0 0 \\ - 2 5 4 0 6 \\ \hline 5 . 6 9 . \end{array} \quad \begin{array}{r} \overset{.}{7} 1 0 \overset{.}{2} 0 \\ - 5 3 6 4 7 \\ \hline .. 3 . 3 \end{array} \quad \begin{array}{r} \overset{..}{8} 2 0 0 3 \\ - 4 5 6 3 9 \\ \hline . 6 . 6 . \end{array} \quad \begin{array}{r} \overset{.}{7} 0 4 0 5 \\ - 3 6 8 4 1 \\ \hline 3 . 5 .. \end{array}$$

**44.** Ayirmani toping:

53 102 – 18 415	75 004 – 36 823
62 150 – 23 462	50 062 – 38 156
53 064 – 18 328	95 100 – 15 732
40 710 – 6 259	68 000 – 45 274

**45.** Nechta ortiq?

39 807 dan 75 004	50 000 dan 14 013
38 605 dan 54 021	15 100 dan 9 308
15 046 dan 20 400	100 000 dan 30 030

**46.** Poyabzal korxonasi 100 000 juft poyabzal ishlab chiqardi. Ulardan 25 100 jufti erkaklar va undan 8 640 ta kam bolalar, qolgani esa ayollar poyabzali edi. Poyabzal korxonasida necha juft ayollar poyabzali ishlab chiqarilgan?

**47.** Misollar tuzib, hisoblang:

Kamayuvchi	70 102	76 187	30 010	51 030
Ayriluvchi	65 320	19 098	9 428	40 349
Ayirma				

**48.** Misollarni yeching:


76 598 – 14 796	38 586 – 21 949	56 014 – 49 105
45 506 – 13 645	10 223 – 8 045	15 069 – 7 173
20 050 – 15 147	43 307 – 16 282	62 545 – 57 538
34 856 – 17 069	67 532 – 62 545	51 002 – 30 148

- 49.** Ayirish amalining to'g'ri bajarilganini tekshiring. To'g'ri javoblardan mosini qo'ying:

$\begin{array}{r} 254 \\ - 127 \\ \hline 133 \end{array}$	$\begin{array}{r} 3419 \\ - 2156 \\ \hline 1343 \end{array}$	$\begin{array}{r} 74516 \\ - 28203 \\ \hline 44313 \end{array}$	$\begin{array}{r} 84002 \\ - 9723 \\ \hline 73729 \end{array}$	$\begin{array}{r} 24000 \\ - 16208 \\ \hline 7202 \end{array}$
---	--	---	--	--

(7792, 1263, 46313, 74279, 127)

- 50.** Berilgan juftliklar yordamida qo'shish va ayirishga doir misollar tuzing:



- 51.** Maktab issiqxonasida o'quvchilar 12625 tup pomidor va undan 3740 ta kam karam ko'chatlarini yetishtirishdi. (Savolni shunday qo'yingki, masala ikki amal bilan yechiladigan bo'lsin.)

- 52.** Mehnat darslarida o'quvchilar 21510 dona pomidor va karam ko'chatlari yetishtirishdi. Ulardan 8885 donasi karam, qolgani esa pomidor ko'chatidir. O'quvchilar karamga qaraganda nechta ortiq pomidor ko'chati yetishtirishgan?



- 53.** Ayirmani toping:

$24921 - 10815$	$75000 - 41083$	$67001 - 13065$
$67546 - 67546$	$89000 - 28106$	$14010 - 5381$

- 54.** Yig'indini toping:

$18276 + 9371$	$11705 + 85396$	$21483 + 53657$
$5031 + 70188$	$45086 + 18560$	$93274 + 4896$

55. Amallarni misol ko'rinishida yozing va yeching:



56. Chorva xo'jaligida 53 694 bosh qo'yning juni qirqib olindi. Birinchi kuni 14 800 bosh qo'yning, ikkinchi kuni undan 6 135 bosh kam qo'yning juni olindi. Uchinchi kuni necha bosh qo'yning juni olingan?

57. Amallarni bajaring:

$$25\,643 + 19\,096 - 7\,859$$

$$34\,860 + 398 + 2\,547 - 18\,905$$

$$60\,000 - (3\,427 + 18\,698)$$

$$59\,365 + (32\,107 - 26\,095)$$

$$(15\,002 - 8\,491) + (80\,010 - 63\,407)$$


$$100\,000 - 97\,506 + 32\,970$$


$$(843 + 5\,697) - (93\,601 - 90\,987)$$

$$(60\,000 - 14\,308) + 25\,723 - 0$$

58. Masala tuzing va uni yeching:

a)





Misollarni solishtiring.

59. 25638 va 34547 sonlarining yig'indisini 18549 ta kamaytiring.  
 60010 va 28506 sonlarining ayirmasini 36840 ta orttiring.  
 19487 va 40935 sonlarining yig'indisini 3689 ta orttiring.  
 90000 va 38106 sonlarining ayirmasini 9548 ta kamaytiring.
60. Ayirmani toping. Ayirishning to'g'ri bajarilganini qo'shish orqali tekshiring:

<b>Tekshirish</b>	
$\begin{array}{r} \cdot\cdot \\ - 42103 \\ - 18214 \\ \hline 23889 \end{array}$	$\begin{array}{r} + 23889 \\ + 18214 \\ \hline 42103 \end{array}$
$62685 - 3467$	$78564 - 7856$
$20789 - 14790$	$30000 - 23403$
$56600 - 1835$	$20507 - 9613$

61. Toshkent bilan Termez shaharlarining orasi 1255 km, poyezd 837 km yo'lni bosib o'tdi. Poyezd yana necha kilometr yo'lni bosib o'tishi kerak?
62. Masalani qisqa yo'l bilan yeching.

Bor edi – ?	Sotildi – 9034 dona.
	Sotildi – 1896 dona.
	Qoldi – 547 dona.

**63. Masalalarni to'ldiring va yeching.**

- 1) Fermer bir qancha sabzavotlar yetishtirib, hosilini bozorga olib bordi. Ulardan ... kg bodring, bodringdan ... kg kam pomidor. Pomidor bilan bodring birgalikda qancha bo'lsa, shuncha kartoshka. Fermer bozorga hammasi bo'lib necha kilogramm sabzavot olib borgan?
- 2) Qoratosh qishlog'i aholisining ... tasi erkaklar, ... tasi ayollar, bolalar esa erkaklar va ayollar sonining jamini tashkil qiladi. Bolalarning soni erkaklarning sonidan qanchaga ortiq?

**64. Birinchi son ikkinchi sondan nechtaga kattaligini aniqlang:**

72256 va 41 568	42657 va 7 324	24 375 va 10 698
80 604 va 7 325	73 670 va 25 890	80 000 va 8 000
24 351 va 5 787	94 300 va 1 876	25 603 va 1 532

**65. Sonlarning yig'indisi va ayirmasini toping:**

10 682 va 3 487	40 306 va 9 895	60 305 va 45 094
52 803 va 14 935	13 600 va 973	21 354 va 9 608
26 513 va 19 801	50 010 va 48 987	3042 va 873

**66. Misollar tuzib yeching:**

- 1) 6 708 soniga 27 196 ni qo'shsa, necha bo'ladi?
- 2) 63 548 va 27 486 sonlarining yig'indisini toping.
- 3) 20 000 dan 8 307 ni ayirsa, necha bo'ladi?
- 4) 60 108 va 25 439 sonlarining ayirmasini toping.
- 5) 81 406 soni 32 564 dan nechta ortiq?

67. Nashriyot bir yilda 90 648 nusxada kitoblarni nashrdan chiqardi. Undan 70 705 tasi darslik va darslikdan 4 580 ta kam badiiy adabiyot, qolgani esa bolalar adabiyotidir. Nashriyot necha nusxada bolalar adabiyotini nashrdan chiqargan?



### **MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR**

1. Amallarni bajaring va natijani tekshiring:

$$57\,381 + 26\,459 \quad 85\,426 - 61\,507$$

$$63\,574 + 9\,864 \quad 82\,054 - 8\,658$$

2. Uchta vagondan 40 000 kg karam tushirildi. Birinchi vagondan 12 748 kg, ikkinchisidan birinchisiga qaraganda 1 980 kg ortiq karam tushirildi. Uchinchi vagondan necha kilogramm karam tushirildi?
3. Do'konda birinchi kun 1868 kg oq va 1 097 kg javdar uni sotildi. Ikkinci kuni 1 953 kg oq va 1 746 kg javdar uni sotildi. Ikkinci kuni birinchi kunga qaraganda necha kilogramm ko'p un sotildi?

4. Misollarni yeching:


$$100\,000 - 71\,048 + 2\,563$$

$$80\,401 - (50\,632 + 9\,875)$$

5. Bir sonning ikkinchi sondan nechtaga kattaligini yoki nechtaga kichikligini aniqlang:

$$50\,038 \text{ va } 17\,824 \quad 25\,630 \text{ va } 1\,870$$

$$1\,196 \text{ va } 32\,000 \quad 78 \text{ va } 1\,000$$



## SONLARNI 10, 100, 1000 ga KO'PAYTIRISH VA BO'LISH



**Eslang!** Sonlarni 10, 100, 1000 ga ko'paytirganda...

68. Misollarni yeching:

$3 \cdot 10$

$7 \cdot 100$

$4 \cdot 1000$

$10 \cdot 8$

$100 \cdot 4$

$12 \cdot 10$

$23 \cdot 100$

$25 \cdot 1000$

$10 \cdot 16$

$100 \cdot 27$

$215 \cdot 10$

$10 \cdot 100$

$10 \cdot 1000$

$10 \cdot 10$

$100 \cdot 100$

69. 1) Sonlarni 10 ga, 100 ga, 1000 ga ko'paytirilganda o'zgarishni tushuntiring:

$2413 \cdot 10 = 24130$

$37 \cdot 1000 = 37000$

$805 \cdot 100 = 80500$

$120 \cdot 100 = 12000$

2) Misollarni yeching:

$6342 \cdot 10$

$126 \cdot 100$

$7 \cdot 1000$

$1000 \cdot 100$

$10 \cdot 3250$

$5400 \cdot 10$

$500 \cdot 100$

$12 \cdot 1000$

$1000 \cdot 11$

$8603 \cdot 0$

$10 \cdot 243$

$100 \cdot 384$

$30 \cdot 1000$

$8000 \cdot 1$

$501 \cdot 100$

Hosil bo'lgan sonlarni o'qing. Sonlar necha marta ortganini aytинг.

70. Har bir sonning o'ng tomoniga bitta nol yozganda u necha marta ortadi? Ikkita nol yozganda-chi? Uchta nol yozganda-chi?

**Ko'paytiring:**

<b>10 marta</b>	126	50	2185	8200	500	4301	3
<b>100 marta</b>	7	36	307	170	400	111	10
<b>1000 marta</b>	15	9	20	72	100	11	0

71. Sayohatchilar O'zbekistonning qadimiy shaharlarini tomosha qilishda avtobusda 86 km, poyezdda avtobusdagiga qaraganda 10 marta ko'p, samolyotda esa avtobusdagiga qaraganda 100 marta ko'proq yo'lni bosib o'tishdi. Sayohatchilar sayohatlari davomida qancha yo'lni bosib o'tishdi?




72. Har bir ustundagi amallarni taqqoslang. Natijalardagi farqni tushuntiring:

$$35 \cdot 10 \quad 10 \cdot 8 \quad 100 \cdot 50 \quad 100 \cdot 10$$

$$35 \cdot 100 \quad 10 \cdot 18 \quad 100 \cdot 500 \quad 100 \cdot 100$$

$$35 \cdot 1\,000 \quad 10 \cdot 180 \quad 100 \cdot 5 \quad 100 \cdot 1\,000$$

73. Misollar tuzib yeching:



74. Namunalardagi natijalar nimani bildiradi?

$$52160 : 10 = 5216$$

$$90\,000 : 1\,000 = 90$$

$$30\,700 : 100 = 307$$

$$25\,000 : 100 = 250$$

$$68\,000 : 1\,000 = 68$$

$$41\,600 : 10 = 4\,160$$



**Eslang!**

Sonni 10 ga, 100 ga, 1 000 ga bo'lish uchun...

**75. Misollarni yeching:**

380:10	8500:100	50000:1000
2540:10	20600:100	12000:1000
60800:10	12000:100	100000:1000
91000:10	900:100	7000:1000

Har bir ustun natijalarining yig'indisini toping.

**76. Sonning oxiridagi 2 ta nol o'chirilsa, bu son necha marta qisqaradi? 1 ta nol o'chirilsa-chi? 3 ta nol o'chirilsa-chi?**


**Kamaytiring:**

<b>10 marta</b>	620	1240	25060	5000	100000
<b>100 marta</b>	700	1200	70300	31000	100000
<b>1 000 marta</b>	8000	10000	90000	3000	100000

**77. Bo'linmani toping:**

70:10	800:100	3000:1000	20100:10
680:10	9300:100	17000:1000	16030:10
140:10	12400:100	40000:1000	10300:100
3420:10	60000:100	1000:1000	100:100

**78. Misollar tuzib yeching:**



79. Chilangarlar brigadasi 10 kunda 18000 ta detal tayyorladi. Brigada 1 kunda nechta detal tayyorlagan?
80. 10 ta sirk chiptasiga 20000 soʻm toʼlandi, 10 ta konsert chiptasiga esa 8000 soʻm toʼlandi. Sirk chiptasining narxi konsert chiptasining narxidan necha soʻmga qimmat?
81. Misollar tuzib yeching:

Bahosi	Miqdori	Narxi
200 soʻm	10 dona	?
?	100 dona	8000 soʻm
1000 soʻm	?	5000 soʻm

82. Misollarni yeching:

$$70000 : 10 - 363 \quad 26 \cdot 1000 - 125 \cdot 10$$

$$18400 : 10 + 25960 \quad 81 \cdot 100 : 10 + 3679$$

83. Misollar tuzib yeching:

100 taga kamaytiring	36 100	70 000	50 030	8 000	17 000
100 martaga kamaytiring	72 600	83 000	7 100	900	100 000

84. Maktab-internatga har birida 100 tadan 10 ta bogʼlam daftar va har birida 10 tadan 5 ta bogʼlam umumiy daftar olib kelinib, 10 ta sinfga teng boʼlib berildi. Har bir sinfga nechtadan daftar va umumiy daftar berilgan?

85. Misollarni yeching:

2600 · 10 : 1000	3100 : 100 · 1	100 000 – 363 · 100
1000 · 45 : 100	417 · 100 : 10	78 503 + 21 000 : 10
5000 : 1000 · 10	1000 : 100 · 736	20 200 – 100 · 45
10 · 645 · 0	5090 : 10 : 1	15 401 + 200 · 0

## **10, 100, 1000 ga QOLDIQLI BO'LISH**

**86.** Sonlarni o'qing:

2340; 80 000; 12643; 36 700; 97 506; 100 000; 83 000;  
21 007.

- 1) Yuqoridagi sonlar ichidan 10 ga bo'linuvchi sonlarni bir ustunga yozib, ularning umumiy tomonlarini ayting. Bu sonlarni 10 marta kamaytiring. Yozilmagan sonlarni o'qing va ular orasidagi farqni ayting.
- 2) Ikkinchi ustunga xuddi shu sonlar ichidan 100 ga bo'linuvchi sonlarni yozing va ularning umumiy tomonlarini ayting. Bu sonlarni 100 marta kamaytiring. Yozilmagan sonlarni o'qing va ikkinchi ustundagi sonlar nimasi bilan farq qilishini ayting.
- 3) Uchinchi ustunga xuddi shu sonlar ichidan 1000 ga bo'linuvchi sonlarni yozib, ularning umumiy tomonlarini ayting. Bu sonlarni 1000 marta kamaytiring. Yozilmagan sonlarni o'qing va uchinchi ustundagi sonlardan nimasi bilan farq qilishini ayting.

**87.** 10 ga, 100 ga, 1000 ga qoldiqli bo'lishni ko'rib chiqing:

$$12643 : 10 = 1264 \text{ (qoldiq } 3\text{)}$$

$$12643 : 100 = 126 \text{ (qoldiq } 43\text{)}$$

$$12643 : 1000 = 12 \text{ (qoldiq } 643\text{)}$$



Sonlarni 10, 100, 1000 ga qoldiqli bo'lishda sonning oxiridagi 1 ta, 2 ta yoki 3 ta raqam qoldiq bo'ladi.

**88.** Qoldiqli bo'lishni bajaring:

a) 13647:10	38415:100	37542:1 000
20035:10	18040:100	80073:1 000
80 004:10	20013:100	61 008:1 000
35 067:10	61 254:100	50 030:1 000
b) 17 389:100	40 506:10	71 004:1 000
17 389:1 000	40 506:1 000	71 004:10
17 389:10	40 506:100	71 004:100

**89.** 203 ta qalam har bir qutiga 10 donadan qilib taxlandi. Qalamlarni taxlash uchun nechta quti kerak bo'ldi? Nechta qalam ortib qoldi?

**90.** Agar bitta chizg'ichning bahosi 100 so'm bo'lsa, 850 so'mga nechta chizg'ich sotib olsa bo'ladi? Necha so'm ortib qoladi.

**91.** Ko'rpa-to'shak g'iloflarini tikish uchun 10 m gazlama ketadi. 125 m gazlamadan shunday g'iloflardan nechtasini tikish mumkin? Necha metr gazlama ortib qoladi?

**92.** Qoldiqli bo'lishni bajaring:

60 301:100	5 432:100	80 903:10
32 008:1 000	8 036:1 000	71 084:100
74 543:10	21 043:100	25 017:1 000
84 367:1 000	50 167:10	70 843:1 000



## O'LCHOV BIRLIKLARINI O'LCHASHDA HOSIL BO'LGAN SONLARDA IFODALASH

93. 1) O'Ichov birliklaridagi sonlarni yozing:

20 so'm; 6 sr; ... .

2) Bitta o'Ichov birligidagi sonlarni yozing:

32 m; 60 kg; ....

3) Ikkita o'Ichov birligidagi sonlarni yozing:

1 km 500 m; ... .

94. O'zingiz bilgan o'Ichov birliklaridan foydalaniib, tengliklarni to'ldiring:

$$1 \text{ sm} = 10 \text{ mm}$$

$$1 \text{ m} = 100 \dots$$

$$1 \text{ km} = 1000 \dots$$

$$1 \text{ m} = 10 \dots$$

$$1 \text{ sr} = 100 \dots$$

$$1 \text{ kg} = 1000 \dots$$

$$1 \text{ dm} = 10 \dots$$

$$1 \text{ so'm} = 100 \dots$$

$$1 \text{ t} = 1000 \dots$$

95. 1) Sonlarni mayda o'Ichov birliklarida ifodalash uchun qaysi amalni bajarish kerak?

2) 1 metr 1 detsimetrdan necha marta uzun?

1 metr 1 santimetrdan necha marta uzun?

1 metr 1 millimetrdan necha marta uzun?

$$3 \text{ m} = 30 \text{ dm}$$

$$1 \text{ m} = 10 \text{ dm}$$

$$10 \text{ dm} \cdot 3 = 30 \text{ dm}$$

$$3 \text{ m} = 300 \text{ sm}$$

$$1 \text{ m} = 100 \text{ sm}$$

$$100 \text{ sm} \cdot 3 = 300 \text{ sm}$$

$$3 \text{ m} = 3000 \text{ mm}$$

$$1 \text{ m} = 1000 \text{ mm}$$

$$1000 \text{ mm} \cdot 3 = 3000 \text{ mm}$$



**Eslang!** Hosil bo'lgan sonni maydarоq o'lchov birligida ifodalash uchun... .

3) Maydarоq o'lchov birliklarda ifodalang:

a) mm da:	sm da:	dm da:	m da:
1 sm	1 dm	1 m	1 km
5 sm	7 dm	8 m	4 km
28 sm	19 dm	12 m	39 km
643 sm	264 dm	60 m	23 km

b) sr da:	kg da:	kg da:	g da:
1 t	1 sr	1 t	1 kg
5 t	8 sr	9 t	7 kg
17 t	25 sr	30 t	13 kg
130 t	143 sr	13 t	70 kg

96. Ikkita o'lchov birligida ifodalangan sonni maydarоq o'lchov birligida ifodalash uchun avval qanday amalni, keyin qanday amalni bajarish kerakligini tushuntiring:

$$5 \text{ kg } 27 \text{ g} = 5027 \text{ g}$$

$$1 \text{ kg} = 1000 \text{ g}$$

$$5 \cdot 1000 = 5000$$

$$5000 \text{ g} + 27 \text{ g} = 5027 \text{ g}$$

$$6 \text{ m } 8 \text{ sm} = \quad 3 \text{ t } 2 \text{ sr} =$$

$$1 \text{ m} = \dots \text{ sm}$$

$$1 \text{ t} = \dots \text{ sr}$$

97. Maydarоq o'lchov birliklarida ifodalang:

$$a) 8 \text{ m } 60 \text{ sm} = \dots \text{ sm}$$

$$18 \text{ km } 4 \text{ m} = \dots \text{ m}$$

$$9 \text{ m } 5 \text{ sm} = \dots \text{ sm}$$

$$20 \text{ km } 70 \text{ m} = \dots \text{ m}$$

$$7 \text{ sr } 38 \text{ kg} = \dots \text{ kg}$$

$$7 \text{ sm } 3 \text{ mm} = \dots \text{ mm}$$

$$12 \text{ sr } 9 \text{ kg} = \dots \text{ kg}$$

$$9 \text{ dm } 5 \text{ sm} = \dots \text{ sm}$$

$$5 \text{ km } 126 \text{ m} = \dots \text{ m}$$

$$12 \text{ t } 6 \text{ sr} = \dots \text{ sr}$$

$$b) 4 \text{ t } 186 \text{ kg} = \dots \text{ kg}$$

$$9 \text{ sr } 72 \text{ kg} = \dots \text{ kg}$$

$$6 \text{ kg } 2 \text{ g} = \dots \text{ g}$$

$$12 \text{ m } 8 \text{ sm} = \dots \text{ sm}$$

$$17 \text{ kg } 56 \text{ g} = \dots \text{ g}$$

$$6 \text{ sr } 9 \text{ kg} = \dots \text{ kg}$$

$$8 \text{ km } 60 \text{ m} = \dots \text{ m}$$

$$20 \text{ m } 3 \text{ sm} = \dots \text{ sm}$$

98. Nuqtalar o'rniغا о'zingizga ma'lum bo'lgan o'lchov birliklarini shunday qo'ying-ki, tenglik to'g'ri bo'lsin:
- $$1000 \dots = 1 \dots \quad 100 \dots = 1 \dots \quad 10 \dots = 1 \dots$$

99. Sonlarni yirikroq o'lchov birligida ifodalash uchun nima-larni bilish kerak?

$$30000 \text{ g} = 30 \text{ kg}$$

$$30000 : 1000 = 30 \text{ kg}$$

$$260 \text{ sm} = 2 \text{ m } 60 \text{ sm}$$

$$260 : 100 = 2(60) \text{ qoldiq}$$

$$36 \text{ mm} = 3 \text{ sm } 6 \text{ mm}$$

$$36 : 10 = 3 (6) \text{ qoldiq}$$

Har bir sonning oxirida nechta raqam tushirib qoldirilgan?



### Eslang!

Sonlarni yirikroq o'lchov birligida ifodalash uchun ...

100. Kattaroq o'lchov birligida ifodalang:

$$a) 800 \text{ kg} = \dots \text{ sr}$$

$$60000 \text{ kg} = \dots \text{ t}$$

$$2300 \text{ kg} = \dots \text{ sr}$$

$$30 \text{ sr} = \dots \text{ t}$$

$$31400 \text{ sm} = \dots \text{ m}$$

$$150 \text{ mm} = \dots \text{ sm}$$

$$8000 \text{ m} = \dots \text{ km}$$

$$60 \text{ sm} = \dots \text{ dm}$$

$$3000 \text{ g} = \dots \text{ kg}$$

$$2400 \text{ sr} = \dots \text{ t}$$

$$b) 415 \text{ sm} = \dots \text{ m } \dots \text{ sm}$$

$$3527 \text{ kg} = \dots \text{ t } \dots \text{ kg}$$

$$8632 \text{ kg} = \dots \text{ sr... kg}$$

$$8063 \text{ mm} = \dots \text{ m } \dots \text{ mm}$$


$$5130 \text{ sm} = \dots \text{ m} \dots \text{ sm} \quad | \quad 12148 \text{ g} = \dots \text{ kg} \dots \text{ g}$$

$$72685 \text{ m} = \dots \text{ km} \dots \text{ m} \quad | \quad 168 \text{ mm} = \dots \text{ sm} \dots \text{ mm}$$

**101.** Sonlarni taq qoslang va  $>$ ,  $<$  yoki  $=$  belgilaridan mosini qo'ying:


a) $3 \text{ sm} \dots 30 \text{ mm}$	$ $	$3 \text{ t} \dots 3 \text{ sr}$	$ $	$4 \text{ kg} \dots 500 \text{ g}$
$7 \text{ m} \dots 60 \text{ sm}$	$ $	$4 \text{ m} \dots 1000 \text{ mm}$	$ $	$2 \text{ km} \dots 2000 \text{ m}$
b) $2 \text{ t } 50 \text{ kg} \dots 2 \text{ t } 500 \text{ kg}$	$ $	$6 \text{ m } 15 \text{ sm} \dots 7 \text{ m}$	$ $	
$1 \text{ sm } 2 \text{ mm} \dots 12 \text{ mm}$	$ $	$5 \text{ kg } 120 \text{ g} \dots 5120 \text{ g}$	$ $	

**102.** Quyidagi juftliklarni ko'chirib oling va ularni taqqoslab  $>$ ,  $<$  yoki  $=$  belgilaridan mosini qo'ying:



**103.** Berilgan o'lichov birliklariga mos juftliklarni topib yozing:

$$\begin{aligned} 4 \text{ t} &= \dots \\ 2 \text{ kg } 300 \text{ g} &= \dots \\ 6 \text{ m } 3 \text{ dm} &= \dots \\ 6 \text{ km } 3 \text{ m} &= \dots \end{aligned}$$



**104.** Nuqtalar o'rninga mos sonlarni qo'ying:

$$\begin{array}{ll} 2 \text{ kg} = \dots \text{ g} & 35000 \text{ m} = \dots \text{ km} \\ 7 \text{ km} = \dots \text{ m} & 61000 \text{ g} = \dots \text{ kg} \\ 8 \text{ m} = \dots \text{ sm} & 2300 \text{ sm} = \dots \text{ m} \\ 6 \text{ m } 3 \text{ sm} = \dots \text{ sm} & 4 \text{ kg } 20 \text{ g} = \dots \text{ g} \end{array}$$

**105.** 1) Yangi tug'ilgan kenguru bolasining og'irligi 3 g. Bir yilning ichida uning og'irligi 1000 marta oshadi. Bir yildan keyin kenguru bolasining og'irligi qancha bo'ladi?

2) Yangi tug'ilgan kenguru bolasining bo'yisi 1 sm. Bir yilning ichida uning bo'yisi 100 marta o'sadi. Bir yildan keyin kenguru bolasining bo'yisi qancha bo'ladi? Javoblarni kattaroq o'Ichov birliklarida ifodalang.

- 106.**
- Tinch okeanning eng chuqur joyi 11 022 m.
  - Dunyodagi eng chuqur ko'l Baykal ko'lidir. Uning chuqurligi 1 620 m.
  - Orol dengizining chuqurligi – 5 400 sm.
- Sonlarini kattaroq o'Ichov birliklarida ifodalang.

**107.** O'Ichang va natijalarni daftarga yozing.

O'Ichadanigan joy, jihoz	metrda	santimetrda	millimetarda
sinfning uzunligi			
shkafning balandligi			
kitobning eni			

O'Ichashda qanday o'Ichash asboblaridan foydalandingiz?


**108.** Misollarni yeching:

$$16 \cdot 100 - 284 \cdot 1$$

$$70640 - 20700 : 100 \cdot 10$$

$$(6547 + 29\,480) - 43\,000 : 1\,000 \cdot 100$$

$$80010 - 25607 + 6103 \cdot 1$$



109. Bu sonlarni kattaroq o'lchov birliklarida ifodalang:

	Bo'yি		Bo'yি
 delfin	3 m 60 sm	 ko'k kit	33 m
 tipratikan	440 mm	 yo'lbars	300 sm
 akula	200 dm	 echkiemar	370 sm

Jadvaldagи jonivorlarning bo'yini o'sib borish tartibida yozing.

110. 1) Santimetrlarda ifodalang: 2 m 50 sm; 2 m 5 sm; 1 m 65 sm; 6 m 3 sm.

2) Metrlarda ifodalang: 1 km 600 m; 1 km 60 m; 4 km 300 m; 3 km 50 m.


3) Kilometr va metrlarda ifodalang: 2800 m; 6005 m; 25400 m; 1010 m.

111. Taqqoslang: 6130 m va 6 km 130 m.

Birinchi son ... (nechta?) o'lchov birliklarida olingan.

Ikkinci son ... (nechta?) o'lchov birliklarida olingan.

6 km 130 m = 6130 m tenglik to'g'rimi? Nima uchun?



## O'LCHOV BIRLIKALARINI QO'SHISH VA AYIRISH

112. Qo'shish va ayirishni bajaring. Ayirishni katta o'lchov birligidan boshlang:

- a)  $25 \text{ m } 15 \text{ sm} + 35 \text{ m } 45 \text{ sm}$   
 $18 \text{ sm } 6 \text{ mm} + 50 \text{ sm } 3 \text{ mm}$   
 $30 \text{ dm } 4 \text{ sm} - 29 \text{ dm } 2 \text{ sm}$   
 $67 \text{ sr } 15 \text{ kg} - 24 \text{ sr } 12 \text{ kg}$   
 $5 \text{ kg } 300 \text{ g} + 8 \text{ kg } 600 \text{ g}$   
 $21 \text{ km } 140 \text{ m} - 11 \text{ km } 120 \text{ m}$   
 $30 \text{ t } 425 \text{ kg} + 16 \text{ t } 200 \text{ kg}$   
 $87 \text{ m } 356 \text{ mm} - 35 \text{ m } 56 \text{ mm}$
- b)  $53 \text{ sm } 7 \text{ mm} + 54 \text{ sm}$   
 $9 \text{ sr } 18 \text{ kg} - 9 \text{ kg}$   
 $80 \text{ m } 36 \text{ sm} + 20 \text{ sm}$   
 $16 \text{ t } 9 \text{ sr} - 6 \text{ sr}$

- $7 \text{ km } 320 \text{ m} + 30 \text{ km}$   
 $62 \text{ kg } 524 \text{ g} - 22 \text{ kg}$   
 $5 \text{ t } 470 \text{ kg} + 12 \text{ t}$   
 $40 \text{ m } 453 \text{ mm} - 8 \text{ m}$

113. O'lchov birliklarida hosil bo'lgan sonlarni qo'shish usullarini ko'rib chiqing:

$$27 \text{ m } 46 \text{ sm} + 32 \text{ m } 74 \text{ sm} = 60 \text{ m } 20 \text{ sm}$$

$$\begin{array}{r} 1) \quad 27 \text{ m } 46 \text{ sm} \\ + \quad 32 \text{ m } 74 \text{ sm} \\ \hline 59 \text{ m } 120 \text{ sm} \\ \hline 60 \text{ m } 20 \text{ sm} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 2) \quad + \quad 2746 \text{ sm} \\ \quad \quad 3274 \text{ sm} \\ \hline \quad \quad 6020 \text{ sm} \\ \hline \quad \quad 60 \text{ m } 20 \text{ sm} \end{array}$$

Bu amallar boshqasidan nima bilan farq qiladi?

**114.** Qo'shishni bajaring:

$$13 \text{ m } 64 \text{ sm} + 38 \text{ m } 19 \text{ sm}$$

$$8 \text{ sr } 36 \text{ kg} + 14 \text{ sr } 64 \text{ kg}$$

$$30 \text{ m } 49 \text{ sm} + 45 \text{ sm}$$

$$26 \text{ sr } 42 \text{ kg} + 9 \text{ sr } 78 \text{ kg}$$

$$36 \text{ m } 45 \text{ sm} + 19 \text{ m } 63 \text{ sm}$$

$$27 \text{ m } 38 \text{ sm} + 64 \text{ m } 82 \text{ sm}$$

$$45 \text{ sr } 9 \text{ kg} + 36 \text{ sr } 48 \text{ kg}$$

$$17 \text{ m } 34 \text{ sm} + 18 \text{ m } 66 \text{ sm}$$

**115.** 1) Namunalarga qarab, amallarning yechilishini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} + \\ 2 \text{ kg } 345 \text{ g} \\ 6 \text{ kg } 217 \text{ g} \\ \hline 8 \text{ kg } 562 \text{ g} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + \\ 17 \text{ km } 457 \text{ m} \\ 24 \text{ km } 543 \text{ m} \\ \hline 41 \text{ km } 1000 \text{ m} \\ \hline 42 \text{ km} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + \\ 8 \text{ t } 630 \text{ kg} \\ 7 \text{ t } 498 \text{ kg} \\ \hline 15 \text{ t } 1128 \text{ kg} \\ \hline 16 \text{ t } 128 \text{ kg} \end{array}$$

Misollardagi yirikroq va maydarоq o'lchov birliklarining nisbati qanday?

2) Amallarni yozma bajaring:

$$1 \text{ km } 608 \text{ m} + 9 \text{ km } 352 \text{ m}$$

$$27 \text{ m } 163 \text{ mm} + 7 \text{ m } 837 \text{ mm}$$

$$43 \text{ t } 527 \text{ kg} + 687 \text{ kg}$$

$$17 \text{ kg } 836 \text{ g} + 49 \text{ kg } 15 \text{ g}$$

$$84 \text{ km } 167 \text{ m} + 5 \text{ km } 833 \text{ m}$$

$$9 \text{ t } 672 \text{ kg} + 18 \text{ t } 408 \text{ kg}$$

**116.** Ikki brigada shoh ko'chani asfaltladi. Birinchi brigada 5 km 60 m, ikkinchi brigada esa birinchisidan 2 km 280 m ortiq yo'lni asfaltladi. Ikki brigada qancha yo'lni asfaltladi?

**117.** 1) Namunalarga qarab ularning yechilishini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} + 16 \text{ sm } 3 \text{ mm} \\ + 24 \text{ sm } 5 \text{ mm} \\ \hline 40 \text{ sm } 8 \text{ mm} \end{array} \quad \begin{array}{r} + 23 \text{ t } 4 \text{ sr} \\ + 18 \text{ t } 6 \text{ sr} \\ \hline 41 \text{ t } 10 \text{ sr} \end{array} \quad \begin{array}{r} + 9 \text{ dm } 6 \text{ sm} \\ + 3 \text{ dm } 8 \text{ sm} \\ \hline 12 \text{ dm } 14 \text{ sm} \end{array}$$
$$42 \text{ t} \quad \quad \quad 13 \text{ dm } 4 \text{ sm}$$

Misollardagi yirikroq va maydar o'lchov birliklarining nisbati qanday?

2) Qo'shishni ustun shaklida bajaring:

16 t 8 sr + 27 t 5 sr	78 m 5 dm + 13 m 9 dm
36 sm 4 mm + 48 sm 3 mm	53 sm 7 mm + 38 sm 6 mm
72 dm 6 sm + 8 dm 4 sm	32 t 6 sr + 9 sr
18 dm 5 sm + 7 dm	15 m 8 dm + 3 m 9 dm

**118.** Ayirishni bajaring. Har bir ustundagi kattaroq va kichikroq o'lchov birliklarining nisbatini eslang:

1 sm - 3 mm	1 m - 20 sm	1 t - 360 kg
1 t - 4 sr	1 dm - 7 sm	1 m - 8 mm
1 sr - 9 kg	1 kg - 160 g	1 km - 970 m

**119.** Sonlarni taqqoslang va  $>$ ,  $<$ ,  $=$  belgilardan mosini qo'ying:

3 sr ... 3 kg	3 kg 620 g ... 2 sr
18 sm ... 1 m 8 sm	62 km 5 m ... 625 m
1 kg ... 728 g	5 m ... 5000 mm
1 t 2 sr ... 12 sr	
308 sm ... 3 m 80 sm	
620 kg ... 6 t 20 kg	

**120.** Namunalarga qarab, amallarning yechilishini tushuntiring.

$$15 \text{ t} - 8 \text{ t} 6 \text{ sr} = 6 \text{ t} 4 \text{ sr}$$

$$\begin{array}{r} . & 10 \\ 15 \text{ t} & 0 \text{ sr} \\ - & 8 \text{ t} 6 \text{ sr} \\ \hline 6 \text{ t} & 4 \text{ sr} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} . & 150 \text{ sr} \\ - & 86 \text{ sr} \\ \hline 64 \text{ sr} \\ \hline 6 \text{ t} 4 \text{ sr} \end{array}$$

$$25 \text{ sm} 4 \text{ mm} - 18 \text{ sm} 7 \text{ mm} = 6 \text{ sm} 7 \text{ mm}$$

$$\begin{array}{r} . & 14 \\ 25 \text{ sm} & 4 \text{ mm} \\ - & 18 \text{ sm} 7 \text{ mm} \\ \hline 6 \text{ sm} & 7 \text{ mm} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} . & 254 \text{ mm} \\ - & 187 \text{ mm} \\ \hline 67 \text{ mm} \\ \hline 6 \text{ sm} 7 \text{ mm} \end{array}$$

**121.** Misollarni yeching. Yirikroq va maydar o'lchov birliklari orasidagi nisbatni aniqlang:

$$78 \text{ dm} - 9 \text{ dm} 26 \text{ sm}$$

$$17 \text{ t} 8 \text{ sr} - 9 \text{ t} 5 \text{ sr}$$

$$52 \text{ dm} 16 \text{ sm} - 8 \text{ dm} 7 \text{ sm}$$

$$30 \text{ t} 7 \text{ sr} - 6 \text{ t} 9 \text{ sr}$$

$$19 \text{ dm} 2 \text{ sm} - 6 \text{ sm}$$

$$17 \text{ sm} - 8 \text{ mm}$$

$$52 \text{ t} 3 \text{ sr} - 25 \text{ t} 6 \text{ sr}$$

$$36 \text{ sm} 9 \text{ mm} - 18 \text{ sm}$$

**122.** Namunalarga qarab, amallarning yechilishini tushuntiring:

$$63 \text{ sr} - 28 \text{ kg} = 62 \text{ sr} 72 \text{ kg} \quad 63 \text{ sr} 15 \text{ kg} - 28 \text{ kg} = 62 \text{ sr} 87 \text{ kg}$$

$$\begin{array}{r} . & 100 \\ 63 \text{ sr} & 00 \text{ kg} \\ - & 28 \text{ kg} \\ \hline 62 \text{ sr} & 72 \text{ kg} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} . & 115 \\ 63 \text{ sr} & 15 \text{ kg} \\ - & 28 \text{ kg} \\ \hline 62 \text{ sr} & 87 \text{ kg} \end{array}$$

**123.** Ayirmani toping:

$$25 \text{ m} 67 \text{ sm} - 18 \text{ m} 25 \text{ sm}$$

$$40 \text{ sr} 5 \text{ kg} - 28 \text{ sr} 6 \text{ kg}$$

$$34 \text{ m} - 32 \text{ sm}$$

$$32 \text{ sr} 17 \text{ kg} - 38 \text{ kg}$$

$$16 \text{ m } 8 \text{ sm} - 9 \text{ m } 63 \text{ sm} \quad | \quad 94 \text{ sr } 43 \text{ kg} - 63 \text{ sr } 78 \text{ kg}$$

$$84 \text{ m} - 37 \text{ m } 46 \text{ sm} \quad | \quad 73 \text{ sr} - 72 \text{ kg}$$

**124.** Tikuvchilik sexida qizlar fartuk va pardalar tikish uchun gazlamadan 10 m kesib olishdi. Fartuklarni tikishga 2 m 60 sm gazlama ketdi. Pardalarni tikishga necha metr gazlama ketdi?

**125.** 3 m yog'och taxtadan 1 m 40 sm arralab olindi. Qolgan bo'lagidan yana 85 sm arralab olindi. Yog'och taxtaning qolgan bo'lagining uzunligi qancha?

**126.** Ayirmani hisoblang:

16 m – 13 sm		19 sr 8 kg – 6 sr 9 kg
80 sr – 36 kg		36 m 72 sm – 35 m 90 sm
15 sr – 9 sr 30 kg		72 m 50 sm – 7 m 23 sm
63 m 14 sm – 59 m 7 sm		60 sr 38 kg – 53 kg

**127.** Namunalarga qarab, misollarning yechilishini tushuntiring:

$$21 \text{ kg} - 16 \text{ kg } 320 \text{ g} = 4 \text{ kg } 680 \text{ g}$$

1) $\begin{array}{r} . \\ - 21 \text{ kg } 1000 \text{ g} \\ \hline 16 \text{ kg } 320 \text{ g} \\ \hline 4 \text{ kg } 680 \text{ g} \end{array}$	2) $\begin{array}{r} . \\ - 21000 \text{ g} \\ \hline 16320 \text{ g} \\ \hline 4680 \text{ g} \\ \hline 4 \text{ kg } 680 \text{ g} \end{array}$
---	---

$$8 \text{ t } 15 \text{ kg} - 3 \text{ t } 340 \text{ kg} = 4 \text{ t } 675 \text{ kg}$$

1) $\begin{array}{r} . \\ - 8 \text{ t } 015 \text{ kg} \\ \hline 3 \text{ t } 340 \text{ kg} \\ \hline 4 \text{ t } 675 \text{ kg} \end{array}$	2) $\begin{array}{r} . \\ - 8015 \text{ kg} \\ \hline 3340 \text{ kg} \\ \hline 4675 \text{ kg} \\ \hline 4 \text{ t } 675 \text{ kg} \end{array}$
--	--

**128.** Ayirmani toping:

a)	72 km – 36 m 86 km 340 m – 24 km 235 m 56 km 130 m – 843 m	16 t 500 kg – 348 kg 49 t 200 kg – 35 t 600 kg 87 t – 75 kg
b)	12 m 160 mm – 3 m 97 mm 5 m 3 mm – 103 mm 16 m 27 mm – 6 m 830 mm	70 kg 824 g – 59 kg 637 g 150 kg – 149 g 78 kg 20 g – 63 kg 340 g

**129.** 1) Savolni davom ettiring va masalani yeching:

Bir daladan 9 t, ikkinchi daladan birinchi daladagiga qaraganda 1 t 320 kg kam kartoshka yig'ib olindi. Hammasi ...

2) Bir daladan 9 t, ikkinchi daladan birinchi daladagidan 1 t 320 kg kamroq kartoshka yig'ib olindi. Ikkala daladan hammasi bo'lib 12 t 835 kg kartoshka olib ketildi. Yana qancha kartoshka olib ketilishi kerak?

**130.** 1977-yilda Toshkent metropolitenining uzunligi 12 km 200 m bo'lgan birinchi yo'nalishi ishga tushdi. 1980-yili ushbu yo'nalishning uzunligi 4600 m ga ko'paydi. Toshkent metropoliteni birinchi yo'nalishining uzunligi qancha?

**131.** Omborxonada 9 sr un bor edi. 5 sr 60 kg un qog'oz xaltachalarga, 2 sr 50 kg esa sellofan xaltachalarga qadoqlandi. Yana qadoqlash uchun qancha un qoldi?

**132.** Oshxonaga 240 kg yorma keltirildi. Grechka yormasi 95 kg 600 g, perlovka yormasi grechkaga qaraganda 37 kg 950g kam, qolgani esa manniy yormasi edi. Oshxonaga qancha manniy yormasi keltirilgan?

133. Toshkent metropoliteni ikkita yo'nalishining umumiy uzunligi 31 km. Chilonzor yo'nalishining uzunligi 16 km 800 m. O'zbekiston yo'nalishining uzunligi qancha?




**134. Misollar tuzib, yeching:**


	Balandligi	Og'irligi
Hind fili	2 m 30 sm ga past	4 t
Afrika fili	4 m	3500 kg ga og'ir
Jirafa	1 m 80 sm ga baland	3 t 250 kg ga yengil

**135. Masala tuzing va uni yeching:**

1)



2)



**136. Berilgan sonlar asosida qo'shish va ayirishga doir misollar tuzing va ularni yeching:**

- a) 16 m 13 sm; 93 sm; 25 m 87 sm; 18 sm 5 mm;  
9 mm; 4 m;

b) 5 t 600 kg; 783 kg; 17 t; 8 sr; 16 sr 32 kg; 78 kg.

137. Berilgan sonlarning yig'indisi va ayirmasini toping:

	47 sm 3 mm	5 t 6 sr	13 t 823 kg	60 km 47 m	30 kg
	32 sm 7 mm	7 sr	256 kg	27 km 53 m	30 g
<b>Yig'indi</b>					
<b>Ayirma</b>					

138. Misollarni yeching:

$$60 \text{ km} - (32 \text{ km } 213 \text{ m} + 17 \text{ km } 957 \text{ m})$$

$$72 \text{ kg } 456 \text{ g} + 36 \text{ kg } 674 \text{ g} - 837 \text{ g}$$

$$(36 \text{ m } 8 \text{ sm} + 29 \text{ m } 96 \text{ sm}) + (70 \text{ m } 3 \text{ sm} - 53 \text{ m } 18 \text{ sm})$$

$$12 \text{ sr } 8 \text{ kg} - 4 \text{ sr } 57 \text{ g} - (3 \text{ sr } 63 \text{ kg} + 1 \text{ sr } 47 \text{ kg})$$

139. Mehnat darslari uchun 3 m 50 sm sim sim kesib olingach, kalavada 6 m 75 sm sim sim qoldi. Avval kalavada qancha sim bo'lgan?

140. Maktabga borish uchun o'quvchi uydan avtobus bekatigacha 627 m yo'lni piyoda, 2 km 386 m yo'lni avtobusda, avtobus bekatidan maktabgacha 150 m yo'lni bosib o'tsa, uydan maktabgacha bo'lgan masofani aniqlang.

141. O'quvchilar muktab tomorqasidan 1 sr 30 kg kartoshka, undan 75 kg kamroq bodring, bodringdan 49 kg ortiq karam yig'ib olishdi. O'quvchilar hammasi bo'lib necha kilogramm sabzavot yig'ib olishdi?

142. Misollarni yeching:

$$30 \text{ sr} - 5 \text{ sr } 20 \text{ kg} + 63 \text{ kg}$$

$$25 \text{ m} + 16 \text{ m } 83 \text{ sm} - 28 \text{ m } 90 \text{ sm}$$

$$89 \text{ t } 700 \text{ kg} + 300 \text{ kg} - 40 \text{ t } 70 \text{ kg}$$

$$20 \text{ m} - 20 \text{ sm}$$

$$30 \text{ kg} - 85 \text{ g}$$

$$16 \text{ km} - 3 \text{ km } 7 \text{ m}$$

**143. Amallarni bajaring:**

$$70000 - (2340 - 780) + 5648$$

$$3248 + 17496 - (8260 + 3970)$$

$$61010 - 35948 + 9783$$

$$6 \text{ t } 3 \text{ sr} - 9 \text{ sr}$$

$$8 \text{ m} - 79 \text{ sm}$$

$$32 \text{ m} - 287 \text{ mm}$$

**144. Quyidagi sonlar yordamida ayirish amaliga doir misollar tuzib, ularni yeching: 25 t, 640 kg, 5 t 480 kg.**



**MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR**

**1.** Tikuv sexida 30 m jun gazlama bor edi. Avval 5 m 75 sm, so'ngra yana 12 m 90 sm gazlama sarflandi. Necha metr jun gazlama qoldi?

**2.** Yig'indini toping:

a)  $3 \text{ t } 2 \text{ sr} + 8 \text{ t } 9 \text{ sr}$

$$15 \text{ kg } 300 \text{ g} + 700 \text{ g}$$

$$24 \text{ m } 16 \text{ sm} + 32 \text{ m } 48 \text{ sm}$$

$$3 \text{ t } 420 \text{ kg} + 7 \text{ t } 580 \text{ kg}$$

b)  $13 \text{ sr } 28 \text{ kg} + 19 \text{ sr } 87 \text{ kg}$

$$42 \text{ km } 132 \text{ m} + 27 \text{ km } 869 \text{ m}$$

$$56 \text{ sm } 9 \text{ mm} + 38 \text{ sm } 7 \text{ mm}$$

$$60 \text{ kg } 78 \text{ g} + 9 \text{ kg } 56 \text{ g}$$

**3.** Ayirmani toping:

a)  $1 \text{ kg} - 210 \text{ g}$

$$1 \text{ m} - 16 \text{ sm}$$

$$3 \text{ t} - 543 \text{ kg}$$

$$3 \text{ km } 200 \text{ m} - 32 \text{ m}$$


b)  $16 \text{ m } 30 \text{ sm} - 8 \text{ m } 50 \text{ sm}$

$$27 \text{ t } 631 \text{ kg} - 9 \text{ t } 780 \text{ kg}$$

$$70 \text{ kg} - 60 \text{ g}$$

$$15 \text{ sm } 3 \text{ mm} - 8 \text{ sm } 7 \text{ mm}$$

**4.** 3 kg un sotib olindi. 800 g un sarf qilindi. Qancha un qoldi?



## BIR XONALI SONLARGA KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

### OG'ZAKI KO'PAYTIRISH VA BO'LISH




**145.** Og'zaki yeching. Hisoblash qaysi xona birligidan boshlanadi?

a) $30 \cdot 3$	$400 \cdot 2$	$60 : 2$	$400 : 4$	$150 : 3$
$40 \cdot 6$	$500 \cdot 3$	$80 : 4$	$800 : 2$	$140 : 7$
$50 \cdot 5$	$600 \cdot 6$	$90 : 3$	$600 : 3$	$200 : 5$
$70 \cdot 2$	$800 \cdot 5$	$50 : 5$	$100 : 5$	$160 : 8$
b) $21 \cdot 3$	$111 \cdot 5$	$36 : 3$	$484 : 4$	
$24 \cdot 2$	$213 \cdot 2$	$44 : 4$	$639 : 3$	
$32 \cdot 3$	$122 \cdot 4$	$26 : 2$	$909 : 9$	
$41 \cdot 2$	$123 \cdot 3$	$88 : 8$	$246 : 2$	

**146.** Har bir misolga taalluqli javobni toping:

$6 \cdot 7$	$0$	$21 \cdot 2$
$40 : 8$	$42$	$0 \cdot 5$
$0 : 9$	$5$	$5 : 5$
$1 \cdot 5$	$1$	$1 + 0$

**147.** Misollar tuzib, ularni yeching:



**148.** 1) Bitta ruchkaning bahosi 70 so'm. Uchta, beshta, o'nta ruchka sotib olish uchun qancha pul to'lanadi?

2) Uchta albomning bahosi 120 so'm. 5 ta, 8 ta albom sotib olish uchun qancha pul to'lanadi?

**149.** Masala tuzing, yechilishini tushuntiring:

a)



### Masalaning yechilishi

1. Bitta ko'ylak tikish uchun necha metr gazlama kerak bo'ladi?


$$12 \text{ m} : 4 = 3 \text{ m.}$$

2. 30 m gazlamadan nechta ko'ylak tikiladi?

$$30 \text{ m} : 3 \text{ m} = 10 \text{ (ta ko'ylak).}$$

**Javob:** 30 m gazlamadan 10 ta ko'ylak.

b)



### Masalaning yechilishi

1. Bitta qutida nechta qalam bor?

$$24 \text{ ta qalam} : 3 = 8 \text{ ta qalam.}$$

2. Beshta qutida nechta qalam bor?

$$8 \text{ ta qalam} \cdot 5 = 40 \text{ ta qalam.}$$

**Javob:** beshta qutida 40 ta qalam bor.

**150.** 1) 300 kg kartoshka 6 ta qopga solindi. Har bir qopga necha kilogrammdan kartoshka solindi?

2) 4 ta bir xil bankada 8 kg bo‘yoq bor. Ta’mirlash uchun 24 kg bo‘yoq sarflansa, shunday bankalardan nechta kerak bo‘ladi?

**151.** 1) Besh xonali sonlarning og‘zaki ko‘paytirilishi va bo‘linishini ko‘rib chiqing:

$$6 \cdot 2 = 12$$

$$6000 \cdot 2 = 12000$$

$$6 \text{ ming birl.} \cdot 2 = 12 \text{ ming birl.}$$

$$14 : 2 = 7$$

$$14000 : 2 = 7000$$

$$14 \text{ ming birl.} : 2 = 7 \text{ ming birl.}$$

2) Amallarning bajarilishini tushuntiring:

$$60 \cdot 3 = \quad 180 : 3 = \quad 24 \cdot 2 = \quad 36 : 3 =$$



$$6000 \cdot 3 = \quad 18000 : 3 = \quad 24000 \cdot 2 = \quad 36000 : 3 =$$

**152.** Misollar tuzib, yeching:

Ko‘paytuvchi	4000	120	2	332	21 000
Ko‘paytuvchi	6	4	6000	3	4
Ko‘paytma					

Bo‘linuvchi	15000	6000	3690	4500	8000
Bo‘luvchi	3	6	3	1	2
Bo‘linma					

**153.** Misollar tuzib, og‘zaki yeching:



**154.** Berilgan shartlar bo'yicha masala tuzing.

- |                          |  |
|--------------------------|--|
| a) 12 kg dan 3 ta yashik | b) Jami – 1000 so'm<br>300 so'mdan 2 ta daftар<br>90 so'mdan 4 ta ruchka<br>Qoldi – ? so'm |
| 10 kg dan 4 ta yashik    |  |

d)

			
O'rtacha tezlik	5 m/min	100 m/min	40 m/s
Vaqt	6 min	10 min	4 s
Masofa	?	?	?

### YOZMA KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

**155.** Bir xonali sonlarga yozma ko'paytirish qanday bajarilishini eslang. Hisoblash amali qaysi xona birligidan boshlanadi?

$$\begin{array}{r} 35 \\ \times 6 \\ \hline 210 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 348 \\ \times 3 \\ \hline ..44 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 1618 \\ \times 4 \\ \hline ...2 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 3008 \\ \times 6 \\ \hline ...48 \end{array}$$

**156.** Misollarni yeching:

$48 \cdot 5$

$215 \cdot 3$

$5128 \cdot 2$

$3107 \cdot 3$

$4006 \cdot 6$

$63 \cdot 7$

$106 \cdot 4$

$1756 \cdot 5$

$8025 \cdot 6$

$2045 \cdot 4$

$28 \cdot 4$

$321 \cdot 7$

$2438 \cdot 3$

$9007 \cdot 8$

$1608 \cdot 3$

$50 \cdot 3$

$804 \cdot 2$

$7287 \cdot 4$

$2406 \cdot 5$

$5003 \cdot 9$

**157.** Fermer xo'jaligi 24506 t bug'doy va undan 2 marta ko'p guruch yetishtirdi. Fermer xo'jaligida hammasi bo'lib necha tonna don yetishtirildi?

**158.** Oshxonaga 57 kg dan 3 qop piyoz va 49 kg dan 4 qop kartoshka olib kelindi. Hammasi bo'lib 286 kg sabzavot sarflandi. Necha kilogramm sabzavot qoldi?

**159.** Ko'paytmani toping:

a) 240 · 3	3700 · 4	3720 · 3	8400 · 5
180 · 5	7500 · 6	5407 · 4	2300 · 8
360 · 4	4300 · 7	3106 · 5	3701 · 9
570 · 6	2800 · 8	2370 · 6	8006 · 2

b) Ko'paytuvchilarning o'rinalarini almashtirib ko'paytiring:

3702 · 1	3120 · 4	5 · 6300	2004 · 5
5 · 2603	5008 · 7	0 · 7001	8003 · 7
7 · 4801	9 · 2003	3407 · 3	9 · 2130
5100 · 6	8 · 12000	6201 · 1	8 · 3015

**160.** Sotuvchi bir kunda har birida 2 kg dan 135 ta xaltacha guruch sotdi. Sotuvchi hammasi bo'lib necha kilogramm guruch sotdi?

**161.** Trikotaj fabrikasida 24106 juft qo'lqop, undan 2 marta ko'p qalpoq va qo'lqopdan 5984 ta ortiq sharf ishlab chiqarildi. Trikotaj fabrikasi hammasi bo'lib qancha mahsulot ishlab chiqardi?

**162.** 1) Namunalarga qarab, besh xonali sonlarning ko'paytirilishini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 17568 \\ \times \quad 2 \\ \hline 35136 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 6261 \\ \times \quad 5 \\ \hline 31305 \end{array}$$

2) Yozma ko'paytirishni bajaring. Ko'paytirish qaysi xona birligidan boshlanganligini aytинг:

$$13216 \cdot 4 \quad | \quad 23417 \cdot 4 \quad | \quad 17285 \cdot 5 \quad | \quad 26347 \cdot 4$$

$$20635 \cdot 3 \quad | \quad 31842 \cdot 3 \quad | \quad 28967 \cdot 2 \quad | \quad 5107 \cdot 5$$

$$14852 \cdot 6 \quad | \quad 15673 \cdot 6 \quad | \quad 14361 \cdot 4 \quad | \quad 6028 \cdot 9$$

$$3) \quad 3 \cdot 26082 \quad | \quad 20306 \cdot 4 \quad | \quad 30649 \cdot 3 \quad | \quad 12408 \cdot 8$$

$$8 \cdot 10475 \quad | \quad 10845 \cdot 6 \quad | \quad 11504 \cdot 6 \quad | \quad 10645 \cdot 9$$

$$7 \cdot 6096 \quad | \quad 10072 \cdot 9 \quad | \quad 13049 \cdot 7 \quad | \quad 71532 \cdot 1$$

**163.** Bayramda sinf o'quvchilari uchun 15 000 so'mlik chipta berildi. Undan 1 750 so'mdan 5 ta sirk chiptasi, 900 so'mdan 4 ta teatr chiptasi va hayvonot bog'ida kirish uchun 2 ta chipta berildi. 2 ta hayvonot bog'i chiptasi necha so'm turadi?

**164.** Korxona 6852 dona yashil va undan 4 marta ortiq qizil cherepitsa ishlab chiqardi. Korxona qancha qizil cherepitsa ishlab chiqardi?

**165.** 1) Ko'paytirishni tushuntirish bilan bajaring:

$$\begin{array}{r} 107 \\ \times \quad 3 \\ \hline \dots 1 \end{array} \quad | \quad \begin{array}{r} 1025 \\ \times \quad 6 \\ \hline \dots 50 \end{array} \quad | \quad \begin{array}{r} 3106 \\ \times \quad 7 \\ \hline \dots 4. \end{array} \quad | \quad \begin{array}{r} 4003 \\ \times \quad 5 \\ \hline \dots 1. \end{array} \quad | \quad \begin{array}{r} 20\ 006 \\ \times \quad 2 \\ \hline \dots \dots 2 \end{array}$$

2) Sonlarning o'rnini almashtirib, misollar javobini to'g'ri yechilishini tekshiring:

$$4 \cdot 20708 = 82832$$

$$2 \cdot 40709 = 81418$$

$$3 \cdot 6095 = 18285$$

$$9 \cdot 10209 = 91881$$

$$5 \cdot 1024 = 5120$$

$$8 \cdot 2133 = 17064$$

3) Xatolarni topib, to'g'ri yechilishini tushuntiring:

$\begin{array}{r} 34050 \\ \times \quad 2 \\ \hline 68000 \end{array}$	$\begin{array}{r} 10066 \\ \times \quad 7 \\ \hline 70062 \end{array}$	$\begin{array}{r} 20708 \\ \times \quad 3 \\ \hline 65154 \end{array}$	$\begin{array}{r} 9062 \\ \times \quad 3 \\ \hline 27386 \end{array}$	$\begin{array}{r} 4063 \\ \times \quad 4 \\ \hline 8252 \end{array}$
--	--	--	---	--

166. Misollar tuzib, yeching:

- 1) 6478 sonini 5 marta orttiring;
- 2) 31504 va 6 ning ko'paytmasini toping;
- 3) 2039 sonini 942 ta orttiring;
- 4) 6350 sonini 7 ga ko'paytiring;
- 5) 2809 va 9 sonining yig'indisini toping.

167. Qurilishga 100000 dona g'isht olib kelindi. Birinchi kuni 12608 dona g'isht sarflandi, ikkinchi kuni birinchi kundagidan 2 marta ko'p, uchinchi kuni esa birinchi kundagiga nisbatan 2407 ta ortiq g'isht sarflandi. Uch kunda qancha g'isht sarflandi?

168. 1) Misollarning yechilish usullarini eslang va amallarni bajaring:

$$30 + 20 \cdot 3$$

$$200 - 80 \cdot 2$$

$$7009 + 40 \cdot 4$$

$$40000 - 5603 \cdot 6$$

$$(60 + 2086) \cdot 3$$

$$(70134 - 28063) \cdot 2$$

2) Har bir ustundagi misollarni yechib, natijalarini solish-tiring:

a)  $10307 \cdot 4 + 4$

$10307 + 4 \cdot 4$

$10307 \cdot (4 + 4)$

b)  $2 \cdot 8026 + 3007 \cdot 3$

$2 \cdot (8026 + 3007) \cdot 3$

$2 \cdot (8026 + 3007 \cdot 3)$

169. 1) Namunadagi misollarga qarab, ko'p xonali sonlarning ko'paytirilishini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 4060 \\ \times \quad 7 \\ \hline 28420 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 4600 \\ \times \quad 7 \\ \hline 32200 \end{array}$$

- |                    |                 |                 |                 |
|--------------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| 2) $15160 \cdot 4$ | $30080 \cdot 3$ | $9 \cdot 3600$  | $15000 \cdot 6$ |
| $27380 \cdot 3$    | $12600 \cdot 4$ | $5 \cdot 12300$ | $7 \cdot 7200$  |
| $10940 \cdot 6$    | $13400 \cdot 7$ | $8 \cdot 6400$  | $4 \cdot 12340$ |
| $12137 \cdot 5$    | $21063 \cdot 4$ | $9 \cdot 3408$  | $13607 \cdot 5$ |

170. Misollarni yeching:

6 marta  
orttiring

6 taga  
orttiring

3015

11980

2600

12089

**171.** Misollarni yeching:

$$19008 \cdot 5 - 40569 \cdot 2$$

$$14196 + 10819 \cdot 7 + 39170$$

$$13706 \cdot 3 \cdot 6 + 28409$$

$$40500 - 1608 \cdot 8 + 35278$$

$$70000 - 1726 \cdot 4 \cdot 6$$

$$64106 + 29845 - 16042 \cdot 5$$


$$15038 \cdot 4 - 24693 + 9487$$

$$3048 \cdot 6 \cdot 3 - 48207$$

**172.** Chorvachilik fermasida 4038 ta sigir, sigirlardan 1609 ta kam echki, sigirlar bilan echkilarning birgalikdagi sonidan 3 marta ko'proq qo'y boqildi. Chorvachilik fermasida nechta qo'y boqiladi?

**173.** Tikuvchilik korxonasiga 27 m li 4 o'ram jun gazlama va 35 m li 8 o'ram shoyi gazlama olib kelindi. Bularдан 190 m gazlama sarflandi. Tikuvchilik korxonasida necha metr gazlama qoldi?

**Bo'lish amalining bajarilishini eslang:**



Qoldiqqli bo'lish qanday bajarilgan?

$$13 : 4 = 3 \text{ qold. } 1$$

Bo'luvchi bilan qoldiqni taqqoslang.



Bo'lishda qoldiq bo'luvchidan doimo kichik bo'lishi lozim.

**174.** Misollarni yeching. Bo'linma bilan qoldiqni solishtiring:

$$6:4$$

$$19:4$$

$$51:7$$

$$39:7$$

$$7:5$$

$$27:6$$

$$30:9$$

$$75:8$$

$$8:3$$

$$39:8$$

$$42:8$$

$$80:9$$

**175.** Gul do'konida 48 ta chinni guldan guldastalar yasaldi. Har bir guldastada 7 ta chinni gul bo'lsa, nechta guldasta yasaldi va nechta gul qoldi?

**176. 1)** Bo'linma va qoldiqni toping:

$$16:7$$

$$70:8$$

$$16:3$$

$$41:6$$

$$11:2$$

$$38:9$$

$$63:8$$


$$27:5$$

$$33:4$$

$$18:5$$

- 2) 2 ga, 3 ga, 4 ga, 5 ga, 6 ga, 7 ga, 8 ga, 9 ga bo'lganda qoldiq nechaga teng bo'ladi?  
 3) 9 ga, 5 ga, 7 ga, 3 ga bo'lganda eng katta qoldiq nechaga teng bo'ladi?

**177.** Berilgan misollar ichidan qoldiqli bo'linadiganlarini topib, misollarni yeching:



**178. 1)** Yozma bo'lish qanday bajarilganligini aniqlang. Bo'lish qaysi xona birligidan boshlanganligini ayting va misollarni yeching:

$$\begin{array}{r} \overline{4'26} \\ \underline{-3} \quad | \quad \begin{array}{r} 3 \\ \underline{142} \\ \dots \end{array} \\ \underline{12} \\ -6 \\ \underline{6} \\ 0 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \overline{12'94} \\ \underline{-9} \quad | \quad \begin{array}{r} 2 \\ \underline{647} \\ \dots \end{array} \\ \underline{14} \\ -14 \\ 0 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \overline{9'501} \\ \underline{-9} \quad | \quad \begin{array}{r} 3 \\ \underline{3167} \\ \dots \end{array} \\ \underline{20} \\ -18 \\ \underline{21} \\ 0 \end{array}$$

2) 420:5	2394:2	1148:7	8358:7	8736:4
476:7	7845:3	2344:4	9495:3	7438:2
504:3	6880:5	2618:7	3702:6	5999:7
516:6	8736:4	3008:8	6282:9	4671:9

179. Non zavodidan 3 ta non do'koniga 7581 kg non jo'natildi. Har bir non do'koniga necha kilogrammdan non jo'natildi?

180. Bo'linmani toping:

630:2	5040:3	7500:6	7200:6	9570:3
780:3	4720:4	7800:3	8400:7	4350:5
850:5	1860:3	8000:5	5800:5	6780:6
900:5	8960:8	9000:2	7160:2	8550:3

181. Qurilishga 54852 dona qizil, undan 4 marta kamroq oq g'isht va oq g'ishtdan 3 marta kam qoplama plita olib kelindi. Qurilishga nechta qoplama plita olib kelindi?

182. Misollarni ko'rib chiqing. Bo'linuvchida nechta raqam bor?

$$\begin{array}{r}
 9'2364 \\
 -\frac{8}{12} \\
 -\frac{12}{12} \\
 -\frac{3}{2} \\
 -\frac{16}{16} \\
 -\frac{16}{4} \\
 -\frac{4}{0}
 \end{array}
 \left| \begin{array}{r}
 2 \\
 \hline
 46182
 \end{array} \right.$$

$$\begin{array}{r}
 13'456 \\
 -\frac{12}{14} \\
 -\frac{14}{14} \\
 -\frac{5}{4} \\
 -\frac{16}{16} \\
 -\frac{0}{0}
 \end{array}
 \left| \begin{array}{r}
 2 \\
 \hline
 6728
 \end{array} \right.$$



Besh xonali sonni bir xonali songa yozma bo'lish to'rt xonali sonni bir xonali songa bo'lish kabi bajariladi.

**183. Bo'linmani toping:**

a) 58552:8	85366:2	83076:6	16714:2
95046:3	47304:8	37404:3	36736:4
74185:5	37404:3	75720:8	13845:3
b) 12390:2	73953:3	36702:9	57840:5
79786:7	64296:2	38610:6	28080:6
14784:3	78336:2	92364:2	59920:7
78592:4	27048:7	13245:5	78520:4

**184. Tumanda 30685 ta yuk mashinasi va undan 5 marta kam traktor bor. Tumanda hammasi bo'lib nechta traktor bor?**

**185. Parrandachilik fermasida 6720 ta parranda bor. Bulardan yarmi tovuq,  $\frac{1}{3}$  qismi kurka, qolganlari o'rdak. Parrandachilik fermasida qancha o'rdak bor?**

**186. Sonning ulushi qanday topiladi?**

- Toping:
- a) 69 sonining  $\frac{1}{3}$  bo'lagi;
  - b) 350 sonining  $\frac{1}{5}$  bo'lagi;
  - c) 1600 sonining  $\frac{1}{8}$  bo'lagi.

**187. Daladan 51848 kg sabzavot yig'ib olindi. Sabzavotlarning  $\frac{1}{4}$  bo'lagi kartoshka, qolgan sabzavotlarning  $\frac{1}{6}$  bo'lagi karam bo'lsa, necha kilogramm karam yig'ib olindi?**

**188.** 1) Namunalarni ko'rib chiqib, bo'linmadagi nollarni tushuntiring.

$$\begin{array}{r} 18'081 \\ \hline - 18 \\ \hline - 0 \\ \hline 0 \\ \hline - 8 \\ \hline - 6 \\ \hline 21 \\ \hline - 21 \\ \hline 0 \end{array} \quad \begin{array}{r} 3 \\ \hline 6027 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 8'1936 \\ \hline - 8 \\ \hline - 1 \\ \hline 0 \\ \hline - 19 \\ \hline - 18 \\ \hline 13 \\ \hline - 12 \\ \hline 16 \\ \hline - 16 \\ \hline 0 \end{array} \quad \begin{array}{r} 2 \\ \hline 40968 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 6'2418 \\ \hline - 6 \\ \hline - 2 \\ \hline 0 \\ \hline - 24 \\ \hline - 24 \\ \hline 1 \\ \hline - 0 \\ \hline - 18 \\ \hline 18 \\ \hline 0 \end{array} \quad \begin{array}{r} 3 \\ \hline 20806 \\ \hline \end{array}$$

2) $65\,290 : 5$	$21\,483 : 7$	$88\,824 : 3$	$56\,016 : 8$
$56\,232 : 8$	$30\,240 : 5$	$25\,854 : 6$	$40\,035 : 5$
$83\,216 : 2$	$32\,212 : 4$	$20\,180 : 5$	$54\,078 : 6$
$92\,547 : 3$	$30\,222 : 6$	$92\,096 : 2$	$85\,045 : 5$

**189.** Misollarni yeching. Hisoblashlarning to'g'riligini ko'paytirish bilan tekshiring:


$58\,360 : 4$	$88\,880 : 4$	$97\,600 : 5$	$34\,050 : 6$
$63\,000 : 6$	$7\,302 : 3$	$61\,032 : 8$	$95\,840 : 4$
$70\,210 : 7$	$60\,360 : 6$	$50\,800 : 8$	$25\,300 : 4$
$95\,620 : 4$	$36\,000 : 8$	$26\,400 : 6$	$78\,570 : 9$

**190.**  $70\,866$ ,  $57\,672$ ,  $78\,570$ ,  $51\,336$  sonlarini 9 marta va 9 ta kamaytiring.

191. 1) 8 ta koptok 2 ta koptokdan necha marta ko'p?



2) 3 ta daftar 6 ta daftardan necha marta kam?



Buni qanday aniqladingiz?



### Eslang!

Bir sonning ikkinchi sondan necha marta katta (kichik) ligini topish uchun ....

192. Bir sonning ikkinchi sondan necha marta katta yoki kichikligini hisoblang:

81 000 va 3	6 va 13 686	80 255 va 7	2 900 va 5
94 596 va 4	5 va 15 970	53 920 va 8	2 va 12 640
6 va 98 400	87 600 va 4	94 500 va 3	29 000 va 5

193. 6 ta sport kastumi uchun 54 078 so'm to'landi. Xuddi shunday 8 ta kastum uchun necha so'm pul to'lanadi?

**194.** Bosmaxona 200 000 ta yangi darslik chop etdi. Birinchi kuni 38 600 ta darslik, ikkinchi kuni birinchi kundagidan 2 marta ko'p, uchinchi kuni ikkinchi kundagidan 4 marta kam darslik chop etildi. To'rtinchi kuni qancha darslik chop etilgan?

**195.** Misollarni tushuntirish bilan yeching:

34 110 : 9	75 600 : 3	84 000 : 6
91 800 : 6	33 200 : 4	70 000 : 5
51 400 : 2	57 000 : 3	43 260 : 7
46 500 : 5	27 200 : 8	51 000 : 3

**196.** Misollar tuzib, ularni yeching:

<b>3 marta orttiring</b>	6 083	25 607	3 600	10 357
<b>5 marta kamaytiring</b>	69 130	73 015	62 000	38 135
<b>9 ta orttiring</b>	71 983	69 097	19 991	29 684
<b>9 ta kamaytiring</b>	20 101	35 000	28 003	70 005

**197.** Bozorga sotish uchun 12 060 ta tarvuz, undan 4 marta kam qovun va taruzlarga qaraganda 8 267 ta ortiq qovoq yuborildi. Bozorga hammasi bo'lib qancha poliz ekinlari yuborilgan?

**198.** Konserva zavodi 60 450 banka uzum sharbati, undan 3 marta kamroq o'rik sharbati va o'rik sharbatidan 4 marta ko'p olma sharbati ishlab chiqardi. Zavod necha banka o'rik sharbati ishlab chiqargan?

**199.** Misollarni yeching:

63 274 – 1 416 : 3	7728 : 4 : 2 + 1 044 : 3
3 184 : 4 + 63 805	20 506 · 4 – 8 250 : 6
49 836 + 7 122 : 6	7 938 : 7 – 258
1 312 : 8 + 5 344 : 2 · 7	4 572 : 4 · 9 – 702 : 3

**200.** Misollarni yeching:

$$788 + 49600 : 2 - 92580 : 6$$

$$65826 + (7038 \cdot 6 - 20153) : 5$$

$$100000 - (64840 : 4 + 936) \cdot 3$$

$$80104 : 8 - 6050 + 4937 \cdot 7$$

**201.** Maktab kutubxonasida 20430 ta kitob bor. Ularning  $\frac{1}{5}$  qismini badiiy adabiyot, qolgan yarmini yuqori sinf darsliklari hamda qolganini boshlang'ich sinf darsliklari tashkil etadi. Kutubxonada boshlang'ich sinf darsliklari qancha?

**202.** Nashriyot birinchi kuni 2370 ta, ikkinchi kuni birinchi kundan 3 marta kam, uchinchi kuni ikkinchi kunga qaraganda 4 marta ko'p jurnal chop etdi. Nashriyot uch kunda qancha jurnal chop etgan?

**203.** Masala tuzing va yuqoridagi masala bilan solishtiring:

Jami	I kun – 23700 dona	←
100000	II kun – 3 marta kam	←
jurnal	III kun – 4 marta ko'p	←
	IV kun – ?	

**204.** Misollarni yeching:

$$(30000 - 15608) \cdot 6$$

$$15003 : 3 + 2816 \cdot 3$$

$$40040 - 32768 : 8$$

$$1407 \cdot 10 - 780 \cdot 10$$

$$24048 : 6 \cdot 8$$

$$(35010 - 34338) : 7$$

$$13390 : 5 + 178 \cdot 0$$

$$51000 : 3 : 1000$$

Eng kichik javobni topib yozing.

**205.** Misollarni yeching:

$$54724 : 4 + 7908 \cdot 6 + 58$$

$$8590 + 9527 \cdot 9 + 13390 : 5$$

$$6825 \cdot 4 + 37806 : 3 - 6959$$

Eng katta javobni topib yozing.


**206.** Jadvalda berilgan shartlar bo'yicha masala tuzing va uni yeching.

	Narxi	Miqdori	Qiymati
Kreslo	12860 so'm	4	?
Stul	?	6	60180 so'm



### **MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR**

1. Qandolatchilik sexi 10240 ta shirinlik pishirdi. Ularning  $\frac{1}{4}$  qismi kafega, qolgan yarmi magazinga, qolgani esa maktab oshxonasiga tarqatildi. Maktab oshxonasiga qancha shirinlik tarqatilgan?
2. Amallarni bajaring:  
 $24556 : 4 \cdot 5$        $14152 \cdot 3 + 1256 \cdot 9$   
 $56105 : 7 \cdot 8$        $18050 \cdot 4 : 5$
3. Uch oyda korxona 39600 juft paypoq ishlab chiqardi. Korxona bir oyda necha juft paypoq ishlab chiqargan?
4. Narxi 12600 so'mdan 4 ta stul va 49600 so'mlik stol sotib olindi. Xarid qilingan narsalarga jami necha so'm to'landi?
5. Misollarni yeching:  
 $9572 : 4$        $6124 \cdot 3$        $27134 : 2$        $23108 \cdot 4$




## KATTALIKLARNI BIR XONALI SONGA KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

**207.** Og'zaki yeching:

12 m · 3	1200 km · 2	48 sm : 4	7200 t : 8
24 t · 2	3100 t · 3	36 s : 3	2400 s : 6
23 kg · 3	1400 so'm · 2	66 m : 6	3500 so'm : 5
21 sm · 4	250 so'm · 4	100 g : 5	40000 km : 4

**208.** Bo'sh kataklarga quyida berilgan sonlardan mosini qo'ying:

1 m	1 kg	1 t	1 sm	1 sr
100 sm	10 sr	1000 m	100 tiyin	10 sm



**209. 1)** 72 kg mandarin 8 ta yashikka, 50 kg olma 5 ta yashikka teng qilib joylashtirildi. Ulardan qaysi biri og'irroq: mandarin solingan yashiklarmi yoki olma solingan yashiklarmi?

- 2) 25 m lenta 5 ta teng bo'lakka, 45 m tasma esa 9 ta teng bo'lakka bo'lindi. Ulardan qaysi biri uzunroq: lenta bo'lagimi yoki tasma bo'lagimi?
- 3) 500 g li 2 bo'lak saryog'ning massasi qancha?
- 4) Bir kalavada 20 m rezinka tasma bo'lsa, 5 ta shunday kalavada qancha rezinka tasma bo'ladi?

**210.** Kichikroq o'Ichov birliklarida ifodalang:

a) $3 \text{ m} = \dots \text{ sm}$	$6 \text{ kg} = \dots \text{ g}$
$14 \text{ m} = \dots \text{ sm}$	$15 \text{ kg} = \dots \text{ g}$
$3 \text{ sm} = \dots \text{ mm}$	$7 \text{ sr} = \dots \text{ kg}$
$20 \text{ sm} = \dots \text{ mm}$	$21 \text{ sr} = \dots \text{ kg}$

b) $20 \text{ m } 6 \text{ sm} = \dots \text{ sm}$	$3 \text{ kg } 140 \text{ g} = \dots \text{ g}$
$17 \text{ m } 18 \text{ sm} = \dots \text{ sm}$	$5 \text{ kg } 140 \text{ g} = \dots \text{ g}$
$43 \text{ m } 16 \text{ sm} = \dots \text{ sm}$	$6 \text{ kg } 14 \text{ g} = \dots \text{ g}$
$15 \text{ sm } 6 \text{ mm} = \dots \text{ mm}$	
$18 \text{ sm } 5 \text{ mm} = \dots \text{ mm}$	
$30 \text{ sm } 2 \text{ mm} = \dots \text{ mm}$	

d) $3 \text{ t} = \dots \text{ sr}$	$7 \text{ t} = \dots \text{ kg}$
$12 \text{ t} = \dots \text{ sr}$	$18 \text{ t} = \dots \text{ kg}$
$25 \text{ t } 7 \text{ sr} = \dots \text{ sr}$	$8 \text{ t } 5 \text{ kg} = \dots \text{ kg}$
$3 \text{ m} = \dots \text{ dm}$	
$20 \text{ m} = \dots \text{ dm}$	
$17 \text{ m } 8 \text{ dm} = \dots \text{ dm}$	

**211.** Sonni maydaroq o'lchov birligida ifodalash uchun qanday amallarni bajarish kerak?

**212.** Yirikroq o'lchov birligida ifodalang:

a) $500 \text{ sm} = \dots \text{ m}$	$6000 \text{ kg} = \dots \text{ t}$
$340 \text{ sm} = \dots \text{ m} \dots \text{ sm}$	$7108 \text{ kg} = \dots \text{ t} \dots \text{ kg}$
$5406 \text{ sm} = \dots \text{ m} \dots \text{ sm}$	$5000 \text{ sr} = \dots \text{ t}$
$8613 \text{ sm} = \dots \text{ m} \dots \text{ sm}$	$1262 \text{ sr} = \dots \text{ t} \dots \text{ sr}$
$6000 \text{ mm} = \dots \text{ m} \dots \text{ mm}$	$1240 \text{ mm} = \dots \text{ m} \dots \text{ mm}$
b) $40 \text{ mm} = \dots \text{ sm}$	$60000 \text{ m} = \dots \text{ km}$
$125 \text{ mm} = \dots \text{ sm} \dots \text{ mm}$	$25130 \text{ m} = \dots \text{ km} \dots \text{ m}$
$70 \text{ sr} = \dots \text{ t}$	$12000 \text{ g} = \dots \text{ kg}$
$5700 \text{ sr} = \dots \text{ t}$	$70006 \text{ g} = \dots \text{ kg} \dots \text{ g}$
$160 \text{ sr} = \dots \text{ t}$	$9145 \text{ g} = \dots \text{ kg} \dots \text{ g}$

**213.** Sonni yirikroq o'lchov birligida ifodalashda qanday arifmetik amaldan foydalaniladi?

**214.** Misollarni yeching:

a) $123 \cdot 10$	$608 \cdot 100$	$8 \cdot 1000$	$60 \cdot 100$
$2045 \cdot 10$	$127 \cdot 100$	$19 \cdot 1000$	$10 \cdot 720$
b) $20400 : 10$	$52130 : 10$	$15000 : 1000$	
$80000 : 100$	$62000 : 100$	$10000 : 1000$	
d) $20500 : 4$	$3041 \cdot 8$	$20132 \cdot 4$	$17305 : 5$
$28800 : 6$	$6120 \cdot 9$	$12067 \cdot 5$	$97548 : 3$

**215. 1)** O'lchov birliklarida hosil bo'lgan sonlarning yozma ko'paytirilishi va bo'linishini ko'rib chiqing:

$$26 \text{ m } 43 \text{ sm} \cdot 6 = 158 \text{ m } 58 \text{ sm} \quad 84 \text{ sr } 6 \text{ kg} : 6 = 14 \text{ sr } 1 \text{ kg}$$

$$26 \text{ m } 43 \text{ sm} = 2643 \text{ sm}$$

$$\begin{array}{r} 2\ 643 \text{ sm} \\ \times \quad 6 \\ \hline 15\ 858 \text{ sm} \\ 158 \text{ m } 58 \text{ sm} \end{array}$$

$$84 \text{ sr } 6 \text{ kg} = 8406 \text{ kg}$$

$$\begin{array}{r} 8406 \text{ kg} \mid 6 \\ - 6 \\ \hline 1401 \text{ kg} \\ - 24 \\ \hline 14 \\ - 24 \\ \hline 6 \\ - 6 \\ \hline 0 \end{array}$$



O'Ichashda hosil bo'lgan sonni bir xonali songa ko'paytirish yoki bo'lish uchun:

- 1) o'Ichashda hosil bo'lgan sonni maydaroq o'ichov birligida ifodalash;
  - 2) hisoblashni bajarish;
  - 3) hosil bo'lgan sonni yirikroq o'ichov birliklarida ifodalash kerak.
- 2) Misollarni yeching. Amallarning bajarilishini tushuntiring:

$$21 \text{ m } 70 \text{ sm} \cdot 7$$

$$52 \text{ sm } 6 \text{ mm} \cdot 4$$

$$84 \text{ sr } 9 \text{ kg} \cdot 8$$

$$124 \text{ m } 8 \text{ sm} \cdot 9$$

$$62 \text{ m } 96 \text{ sm} : 2$$

$$59 \text{ sr } 60 \text{ kg} : 5$$

$$24 \text{ sr } 15 \text{ kg} \cdot 7$$

$$8 \text{ m } 75 \text{ sm} : 5$$

$$63 \text{ sr } 51 \text{ kg} : 3$$

$$84 \text{ m } 6 \text{ sm} : 6$$

$$15 \text{ t } 6 \text{ sr} \cdot 6$$

$$312 \text{ m } 6 \text{ sm} : 3$$

- 216.** Sport zali polining uzunligi 24 m 80 sm, eni undan 2 marta kam. Sport zali polining perimetrini toping.

**217.** Misollarni yeching:

16 m 83 sm · 5

48 sr 26 kg · 7

13 m 6 sm · 8

93 sr 5 kg · 9

35 m 40 sm · 8

25 sr 4 kg · 6

40 m 9 sm · 7

54 m 32 sm · 5

1 m 92 sm : 3

2 m 4 sm : 6

7 sr 36 kg : 8

34 m 2 sm : 9

**218. 1)** Masala tuzib, yeching:



– 1 m 20 sm

6 ta – ? m



– 3 m 50 sm

4 ta kastum – ? m

Qaysi mahsulot tikish uchun ko'proq mato ishlataladi?

**2)**

	Miqdori	Sarf qilindi
1 ta kastum – ? m	4	13 m 60 sm
4 ta kastum – ? m	6	19 m 20 sm

**219. 1)** Namunaga qarab misollarni yeching:

$$2 \text{ m} : 5 = 40 \text{ sm}$$

$$2 \text{ m} = 200 \text{ sm}$$

$$\begin{array}{r} - 20'0 \text{ sm} | 5 \\ \hline \begin{array}{r} 20 \\ 0 \end{array} \quad \begin{array}{r} 40 \text{ sm} \\ .. \end{array} \end{array}$$

$$3 \text{ m}:2$$

$$14 \text{ sr}:4$$

$$54 \text{ m}:8$$

$$6 \text{ sr}:4$$

$$45 \text{ m}:6$$

$$86 \text{ m}:4$$

Namunadagi kattaroq o'lchov birligidagi bo'linuvchining kichikroq o'lchov birligi bilan almashtirilishini tushuntiring.

$$\begin{array}{lll} 2) \ 6 \text{ m}:2 & 3 \text{ sr}:6 & 15 \text{ m}:5 \\ 5 \text{ m}:2 & 30 \text{ sr}:6 & 15 \text{ sr}:4 \end{array}$$

Qaysi misollarda kattaroq o'lchov birliklarini kichikroq o'lchov birliklari bilan ifodalasa bo'ladi? Sababini tushuntirib, qolgan misollarni yeching.

**220.** 1) 3 m 40 sm li taxta ikkiga bo'lindi. Taxtaning aralangan qismining uzunligi qancha?

2) Sayohatchilar 13 km yo'lning yarmini bosib o'tishdi. Ular yana qancha yo'lni bosib o'tishlari kerak?

**221.** 1) Namunalarga qarab o'lchov birliklarida ko'paytirish va bo'lish amalining qanday bajarilganini tushuntiring.

$$8 \text{ km } 47 \text{ m} \cdot 6 = 48 \text{ km } 282 \text{ m}$$

$$\begin{array}{r} 8 \text{ km } 47 \text{ m} = 8047 \text{ m} \\ \times 8047 \text{ m} \\ \hline 48 \text{ km } 282 \text{ m} \end{array}$$

$$5 \text{ kg } 28 \text{ g} : 3 = 1 \text{ kg } 676 \text{ g}$$

$$5 \text{ kg } 28 \text{ g} = 5028 \text{ g}$$

$$\begin{array}{r} 5028 \text{ g} \mid 3 \\ \underline{-} \quad \quad \quad \quad 1676 \text{ g} \\ \underline{\quad 3} \quad \quad \quad \quad \quad \quad 1 \text{ kg } 676 \text{ g} \\ \underline{-} \quad \quad \quad \quad 20 \\ \underline{\quad \quad 18} \\ \underline{-} \quad \quad 22 \\ \underline{\quad \quad \quad 21} \\ \underline{-} \quad \quad 18 \\ \underline{\quad \quad \quad 18} \\ \underline{0} \end{array}$$

2) Amallarni bajaring:

a) 3 t 682 kg · 7	8 km 243 m · 5	30 kg 8 g · 3
4 t 53 kg · 9	15 km 16 m · 7	4 kg 18 g · 5
17 t 9 kg · 6	8 km 7 m · 9	35 kg 60 g · 2
b) 17 kg : 2	13 kg 664 g : 4	44 km 816 m : 8
31 t : 4	37 km 40 m : 2	13 t 160 kg : 2
39 kg : 5	96 m 72 mm : 8	17 kg 8 g : 4

**222.** 1) Yuk mashinasi bir qatnovda 4 t 380 kg sabzavotni tashidi. Yuk mashinasi 5 ta qatnovda qancha sabzavotni tashidi?

2) Yuk mashinasi beshta qatnovda 16 t 200 kg sabzavotni tashidi. Agar yuk mashinasi har qatnovda bir xil massadagi yukni tashigan bo'lsa, bitta qatnovda qancha sabzavotni tashidi?

**223.** Misollar tuzib, yeching:

- a) 16 m 273 mm ni 5 marta ko'paytiring;
- b) 25 kg 263 g ning 4 ga ko'paytmasini toping;
- c) 15 t 720 kg ni 5 marta kamaytiring;
- d) 35 km 8 m ning 4 ga bo'linmasini toping;
- e) 25 t 825 kg ning  $\frac{1}{3}$  ni toping.

**224.** 1) Oshxonada bir kunda 4 kg 560 g shakar sarflansa, bir haftada qancha shakar sarflanadi?

2) Uch kunda oshxonada 14 kg 800 g shakar ishlatiildi. Agar har kuni bir xil miqdorda shakar sarflansa, bir haftada qancha shakar kerak bo'ladi?

**225.** Misollarni yeching:

$$21 \text{ m } 16 \text{ sm} \cdot 7$$

$$13 \text{ m } 5 \text{ sm}:5$$

$$40 \text{ km } 76 \text{ m} \cdot 9$$

$$26 \text{ sr } 80 \text{ kg}:8$$

$$15 \text{ t } 164 \text{ kg} \cdot 8$$

$$36 \text{ t } 9 \text{ kg}:9$$

$$32 \text{ sr } 7 \text{ kg} \cdot 6$$

$$46 \text{ kg}:4$$

$$34 \text{ kg } 70 \text{ g}:2$$

$$25 \text{ kg } 209 \text{ g}:6$$

$$41 \text{ t}:4$$

$$27 \text{ km } 189 \text{ m}:3$$

**226.** 1) Namunalarga qarab, o'lchov birliklarida ko'paytirish va bo'lish amalining bajarilishini tushuntiring:

$$63 \text{ sm } 8 \text{ mm} \cdot 4 = 252 \text{ sm } 2 \text{ mm}$$

$$63 \text{ sm } 8 \text{ mm} = 638 \text{ mm}$$

$$\begin{array}{r}
 \times 638 \text{ mm} \\
 \quad \quad \quad 4 \\
 \hline
 2552 \text{ mm}
 \end{array}$$

$$255 \text{ sm } 2 \text{ mm}$$

$$51 \text{ t } 6 \text{ sr}:4 = 12 \text{ t } 9 \text{ sr}$$

$$51 \text{ t } 6 \text{ sr} = 516 \text{ sr}$$

$$\begin{array}{r}
 - 516 \text{ sr} \mid 4 \\
 - 4 \qquad \qquad \qquad 129 \text{ sr} \\
 \hline
 11 \\
 - 8 \qquad \qquad \qquad 12 \text{ t } 9 \text{ sr} \\
 \hline
 36 \\
 - 36 \\
 \hline
 0
 \end{array}$$

2) Ko'paytirish va bo'lish amallarini bajaring:

$$13 \text{ dm } 6 \text{ sm} \cdot 7$$

$$25 \text{ sm } 8 \text{ mm} \cdot 5$$

$$10 \text{ t } 7 \text{ sr} \cdot 6$$

$$43 \text{ sm } 4 \text{ mm} \cdot 4$$

$$8 \text{ t } 5 \text{ sr}:5$$

$$7 \text{ sm } 4 \text{ mm}:2$$

$$6 \text{ sm } 4 \text{ mm}:4$$

$$8 \text{ t } 1 \text{ sr}:3$$

$$30 \text{ t } 5 \text{ sr} \cdot 7$$

$$82 \text{ sm } 7 \text{ mm} \cdot 3$$

$$10 \text{ dm } 5 \text{ sm} \cdot 6$$

$$41 \text{ sm } 3 \text{ mm} \cdot 8$$

$$94 \text{ sr}:4$$

$$67 \text{ mm}:2$$

$$83 \text{ sm}:5$$

**227.** Misollarni yeching:

$$40 \text{ km } 50 \text{ m} - 25 \text{ km } 317 \text{ m}:3$$

$$(7 \text{ t } 8 \text{ kg} + 25 \text{ t } 995 \text{ kg}) \cdot 5:3$$

$$(72 \text{ kg } 374 \text{ g} - 28 \text{ kg } 96 \text{ g}) \cdot 5$$

$$8 \cdot (16 \text{ m } 58 \text{ mm} - 7 \text{ m } 309 \text{ mm}):4$$

**228.** Qisqa shartlar bo'yicha masalalar tuzib, yeching:

1) Bor edi – ? m


Sarflandi – 75 m 60 sm

Qoldi – 54 m 40 sm

2) Bor edi – ? m

Sarflandi – 80 m 35 sm

Qoldi – 45 m 70 sm li 3 ta o'ram gazlama



**229.** Misollarni yeching:

$$3 \text{ sr } 4 \text{ kg} \cdot 5 + 35 \text{ sr } 35 \text{ kg} : 7$$

$$98 \text{ kg } 400 \text{ g} : 4 + 305 \text{ g} \cdot 6$$

$$200 \text{ t} - 36 \text{ t } 7 \text{ sr} \cdot 4 + 9 \text{ sr}$$

$$77 \text{ m } 56 \text{ sm} : 4 + 3 \text{ m } 7 \text{ sm} \cdot 9$$

$$1296 \text{ mm} \cdot 5 + 69 \text{ m } 720 \text{ mm} : 3$$

$$9 \text{ sm } 5 \text{ mm} \cdot 9 + 33 \text{ sm } 6 \text{ mm} : 4$$

- 230.** Toping: 1) tomonlari 2 sm 6 mm bo'lgan kvadratning perimetrini;  
 2) tomonlari 34 mm bo'lgan teng yonli uchburchakning perimetrini;  
 3) uzunligi 4 sm 8 mm, eni 29 mm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning perimetrini.

- 231.** Sonlarni taqqoslang.  $>$ ,  $<$ ,  $=$  belgilaridan mosini qo'ying:

8 sr ... 800 kg	5 m 6 sm ... 5 km 6 m
1 t 3 sr ... 2 t	3 m 12 sm ... 300 sm
4 sm 3 mm ... 50 mm	1 kg 200 g ... 1200 g




### **MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR**

- Bir dona xalatni tikishga 3 m 70 sm gazlama sarflandi. 9 ta shunday bir xil o'lchamli xalatni tikish uchun qancha gazlama kerak bo'ladi?
- Ko'paytirishni bajaring:
 

16 sm 8 mm · 5	25 m 9 sm · 6
30 m 16 sm · 4	17 t 82 kg · 5
7 km 802 m · 3	36 sr 7 kg · 8
- Bo'lishni bajaring.
 

6 kg 120 g : 3	3 t 87 kg : 3
9 m 63 sm : 9	8 t 1 sr : 3
68 sr 80 kg : 4	70 km 32 m : 8
- Omborxonada 4 t shakar bor edi. Shakarning  $\frac{1}{5}$  qismi oshxonalarga, qolgan qismi esa do'konlarga yuborildi. Do'konlarga qancha shakar yuborildi?



## YAXLIT O'NLIKLARGA KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

232. 10 ga, 100 ga, 1 000 ga ko'paytirish qoidalarini eslang.

Misollarni yeching:

$$63 \cdot 10$$

$$125 \cdot 10$$

$$840 \cdot 10$$

$$305 \cdot 10$$

$$63 \cdot 100$$

$$125 \cdot 100$$

$$530 \cdot 100$$

$$500 \cdot 10$$

$$63 \cdot 1000$$

$$60 \cdot 1000$$

$$100 \cdot 70$$

$$5000 \cdot 10$$

233. 10 ga, 100 ga, 1 000 ga bo'lish qoidalarini eslang.

Misollarni yeching:

$$320 : 10$$

$$3080 : 10$$

$$2600 : 100$$

$$100\,000 : 1\,000$$

$$500 : 100$$

$$3800 : 10$$

$$30\,000 : 100$$

$$73\,000 : 1\,000$$

$$7\,000 : 1\,000$$

$$3\,000 : 10$$

$$81\,200 : 100$$

$$90\,000 : 1\,000$$

234. Butun sonni o'nliklar ko'paytmasi shaklida ifodalang:

$$20$$

$$2 \cdot 10$$

$$350$$

$$\boxed{}$$

$$600$$

$$9\,000$$

235. 1) O'nliklarga og'zaki ko'paytiring:

$$124 \cdot 20 = 2480$$

$$231 \cdot 30$$

$$500 \cdot 20$$

$$124 \cdot \boxed{2 \cdot 10} = 2480$$

$$102 \cdot 40$$

$$412 \cdot 20$$



Sonni o'nliklarga ko'paytirish uchun, shu sonni o'nliklar soniga ko'paytirib, chiqqan sonning o'ng tomoniga nol yozib qo'yish kerak.

2) Misollarni namuna asosida og'zaki yeching:

$$960 : 30 = 32$$

$$420 : 20$$

$$6020 : 20$$

$$960 : \boxed{10 : 3} = 32$$

$$8440 : 40$$

$$9\,000 : 90$$



Sonni o'nliklarga bo'lish uchun, sonning oxirgi xona birligidagi nol olib tashlanadi va o'nliklar soniga bo'llinadi.

236. Og'zaki yeching.

1) Sonlarning ko'paytmasini toping:

101 · 50	213 · 30	304 · 20	20 · 403	50 · 70
213 · 20	112 · 40	122 · 30	60 · 30	90 · 40

2) Sonlarning bo'linmasini toping:

80 : 20	260 : 20	5000 : 50	3600 : 30	6020 : 20
60 : 30	480 : 40	9990 : 90	8000 : 80	4840 : 40

237. Velosipedchi 15 km/soat tezlik bilan 2 soat, avtomobilchi esa xuddi shu vaqtda 60 km/soat tezlik bilan yo'l yurdi. Avtomobilchi bosib o'tgan yo'l velosipedchi bosib o'tgan yo'ldan necha marta uzun?

238. 13 ta sinf o'quvchilari yoshlar xiyobonini obodonlash-tirishda 20 ta dan daraxt ko'chatini o'tqazishdi. Yoshlar xiyoboniga hammasi bo'lib necha tup daraxt ko'chatlari ekilgan?

239. 1) Ko'paytirish qaysi usulda bajarilganini ko'rib chiqing va misollarni yeching:

$$\begin{array}{r} 316 \\ \times \quad 40 \\ \hline 12640 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 740 \\ \times \quad 40 \\ \hline 29600 \end{array}$$

Sonni avval 4 ga ko'paytirib, nol tushirib qoldiriladi. Lekin 40 soni o'nlik son bo'lgani uchun chiqqan natijaga nol qo'shib qo'yiladi.

2) 45 · 30	416 · 40	502 · 40	270 · 20
18 · 20	235 · 20	108 · 70	340 · 80
34 · 60	119 · 30	209 · 50	290 · 40
71 · 50	127 · 60	316 · 30	209 · 60
3) 1240 · 20	4361 · 20	1050 · 60	1500 · 30
2531 · 30	2073 · 30	2010 · 40	1309 · 20

**240.** Angren shahrining ko'mir ishlab chiqarish kombinatidan temir yo'l orqali har birida 40 t dan 140 vagon va har birida 60 t dan 204 vagon ko'mir yuborildi. Kombinatdan hammasi bo'lib qancha ko'mir yuborilgan?

**241.** Avtomat-dastgohda bir ish kunida 3276 ta buyum bo'lagi tayyorlandi. 20 ish kunida qancha buyum bo'lagi tayyorlanadi? 30 ish kunida-chi?

**242.** Misollarni yeching:

1) 138 · 50	20 · 149	138 · 40 + 1867
207 · 40	40 · 138	356 + 163 · 30
320 · 60	50 · 260	280 · 50 – 26
345 · 70	407 · 20	100 000 – 307 · 80
2) 27 848 : 8 · 30	(100 000 – 61 510) : 6 · 2	
1 392 · 20 : 4	2069 · 40 : 5 – 48 576 : 8	

**243.** Maktab kutubxonasida 995 ta kitob, tuman kutubxonasida undan 40 marta ko'p kitob bor. Tuman kutubxonasidagi kitoblar maktab kutubxonasidagi kitoblardan qancha ko'p?

**244.** Sonlarning o'nliklarga bo'linish usullarini eslang. Bo'lishni namunadagidek bajaring:

$$\begin{array}{r}
 - 9210 \\
 - 90 \\
 \hline
 21 \\
 - 0 \\
 \hline
 210 \\
 - 210 \\
 \hline
 0
 \end{array}
 \left| \begin{array}{c} 30 \\ \dots \\ 307 \end{array} \right|$$

a) 2700:20	4360:40	8130:30
6560:40	2460:30	5100:20
8540:20	7840:80	7320:40
b) 8200:20	8640:80	7800:30
2700:30	8320:40	8100:20
9000:50	6120:20	9540:90

245. 5 ta kalavaning har birida 750 g dan ip bor. 8 ta kalavada necha grammdan ip bor?

246. Bitta vagonga 20 t ko'mir ketadi. 12600 t ko'mir jo'natilgan bo'lса, hamma ko'mirni jo'natish uchun nechta vagon kerak bo'lган?

247. 1) Besh xonali sonlarning o'nliklarga bo'linishini ko'rib chiqing:

$$\begin{array}{r}
 - 178'40 \\
 - 160 \\
 \hline
 184 \\
 - 180 \\
 \hline
 40 \\
 - 40 \\
 \hline
 0
 \end{array}
 \left| \begin{array}{c} 20 \\ \dots \\ 892 \end{array} \right|$$

$$\begin{array}{r}
 - 54'800 \\
 - 40 \\
 \hline
 148 \\
 - 120 \\
 \hline
 280 \\
 - 280 \\
 \hline
 0
 \end{array}
 \left| \begin{array}{c} 40 \\ \dots \\ 1370 \end{array} \right|$$

2) Bo'linmani toping:

a) 63250:50	25120:40	54800:40
94620:30	54840:60	79200:30
83360:20	10440:30	99400:70
65880:40	40320:70	81000:50
b) 90000:60	50700:60	82720:20
30000:40	87360:40	54100:80
89600:80	61000:50	63250:50
29000:50	57240:60	21200:80

Bo'lish qaysi amal bilan tekshiriladi? Har bir misolni teskari amal orqali tekshiring.

**248.** Maktab-internat umumiy bahosi 24 720 soʻmlik 6 ta chinni idishlar toʼplami va umumiy bahosi 3 200 soʻmlik 80 ta choy qoshiqlar sotib oldi. Chinni idishlar toʼplami choy qoshiqlarga qaraganda necha marta qimmat?

**249.** Misollar tuzib, yeching:

- a) boʼlinuvchi 86 560; boʼluvchi 40; boʼlinmani toping.
- b) birinchi koʼpaytuvchi 7 348, ikkinchi koʼpaytuvchi 90; koʼpaytmani toping.
- v) 83 260 sonida nechta 20 talik bor?
- g) 1 563 sonini 20 marta orttiring.

**250.** Hisoblang.

- 1) 71 520 soni 30 sonidan necha marta ortiq?
- 2) 50 soni 69 850 sonidan necha marta kichik?
- 3) 61 935 soni 80 sonidan nechta koʼp?
- 4) 60 soni 3 107 sonidan nechta kam?

**251.** Amallarni bajaring:

1) $6728 \cdot 5 : 20$	$13400 : 40 \cdot 8$	$1217 \cdot 50 - 54981$
$8375 \cdot 6 : 30$	$51450 : 70 \cdot 5$	$(74576 + 21604) : 20$
$1465 \cdot 40 : 50$	$13400 : 40 \cdot 8$	$62 \cdot 70 + 51029$
$428000 : 80$	$39650 : 50 \cdot 10$	$(64027 + 33573) : 40$


2) $(100\ 000 - 50\ 000) : 50$	$69\ 030 : 30 + 3061 \cdot 7$
$1281 \cdot 7 + 4008 \cdot 9$	$2114 \cdot 40 - 76\ 009 \cdot 0$

**252.** >, < ishoralari yordamida boʼlinmalarni taqqoslang:

$49020 : 60$ va $72450 : 30$	$86400 : 80$ va $82140 : 20$
$24720 : 40$ va $63360 : 20$	$90270 : 30$ va $40350 : 50$

**253.** 20 ish kuni mobaynida konveyerdan 16080 juft oyoq kiyim ishlab chiqarildi. 30 ish kunida necha juft oyoq kiyim ishlab chiqariladi?

**254.** Misollar tuzib, yeching:



**255.** Yuk tashish poyezdi 48 km/soat tezlik bilan 30 soat yo'l yurdi. Poyezd shuncha vaqt ichida qancha masofani bosib o'tadi?



### **MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR**

1. Bosmaxona 30100 dona jurnal bosib chiqarishi kerak edi. Undan 20 marta kam jurnal bosib chiqarildi. Bosmaxona yana nechta jurnal bosib chiqarishi kerak?
2. Misollarni yeching:  
 $1517 \cdot 60 + 59100 : 30$        $186 \cdot 30$        $5640 : 40$   
 $30 \cdot 270 : 90$        $5620 : 10$        $84 \cdot 20$
3. Misollar tuzib, yeching:
  - a) 1204 sonini 60 marta orttiring;
  - b) 26920 sonini 20 marta kamaytiring.
4. 3 ta albom uchun 1200 so'm to'landi. 40 ta albom sotib olish uchun necha so'm kerak bo'ladi?



## IKKI XONALI SONGA KO'PAYTIRISH

256. Ko'paytmani toping:  $246 \cdot 32$ . Izoh: 32 soni 3 ta o'nlik va 2 ta birlikdan iborat ( $30 + 2$ ).

1)  $246$  ni 2 ta birlikka ko'paytiramiz:

$$\begin{array}{r} 246 \\ \times \quad 2 \\ \hline 492 \end{array} \rightarrow \text{birinchi to'liqsiz ko'paytmani birliklar tagiga yozamiz.}$$

2)  $246$  ni 3 ta o'nlikka (ya'ni 30 ga) ko'paytiramiz:

$$\begin{array}{r} 246 \\ \times \quad 30 \\ \hline 7380 \end{array} \rightarrow \text{ikkinchi to'liqsiz ko'paytmani (738 o'nli.), o'nliklar tagiga yozamiz.}$$

3)  $\begin{array}{r} + \quad 492 \\ 7380 \\ \hline 7872 \end{array}$  To'liqsiz ko'paytmalarni qo'shib, natijani topamiz.



Bu amallar quyidagicha yoziladi:

$$\begin{array}{r} 246 \\ \times \quad 32 \\ \hline + \quad 492 \\ \hline 738 \\ \hline 7872 \end{array} \begin{array}{l} - \text{ birinchi to'liqsiz ko'paytma} \\ - \text{ ikkinchi to'liqsiz ko'paytma} \\ - \text{ to'liq ko'paytma} \end{array}$$

257. Namunalarga qarab, ikki xonali songa ko'paytirishni tushuntiring:

$$\begin{array}{r} \times 43 \\ 12 \\ \hline + 86 \\ \hline 43 \\ \hline 516 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 38 \\ 24 \\ \hline + 152 \\ \hline 76 \\ \hline 912 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 256 \\ 32 \\ \hline + 512 \\ \hline 768 \\ \hline 8192 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 432 \\ 35 \\ \hline + 2160 \\ \hline 1296 \\ \hline 15120 \end{array}$$

**258.** Misollarni yeching. Har bir misoldagi to'liqsiz ko'paytma va natijalarni ayting:

$$42 \cdot 13$$

$$15 \cdot 24$$

$$31 \cdot 16$$

$$57 \cdot 34$$

$$314 \cdot 22$$

$$837 \cdot 11$$

$$231 \cdot 32$$

$$122 \cdot 42$$

$$12 \cdot 43$$

$$24 \cdot 21$$

$$23 \cdot 31$$

$$24 \cdot 15$$

$$132 \cdot 21$$

$$125 \cdot 14$$

$$315 \cdot 25$$

$$415 \cdot 53$$

**259.** Misollar tuzib, yeching:

Ko'paytuvchi	213	248	127	226	139	256
Ko'paytuvchi	23	11	42	33	17	35
Ko'paytma						

**260. 1)** Maktab-internatda har birida 12 nafar tarbiyalanuvchidan 24 ta guruh bor. «Kamolot» tashkiloti ularga sport bilan shug'ullanish uchun kiyimlar ajratdi. Barcha tarbiyalanuvchilar sport kiyimi bilan ta'minlanishi uchun qancha sport kiyimi ajratilishi kerak?

**2)** Oshxonaga har birida 12 ta paketdan 53 ta quti sut paketlari keltirildi. Oshxonaga necha paket sut keltirilgan?

**261.** Ko'paytmani toping:

$$112 \cdot 13$$

$$212 \cdot 43$$

$$324 \cdot 24$$

$$234 \cdot 15$$

$$316 \cdot 22$$

$$143 \cdot 41$$

$$153 \cdot 32$$

$$235 \cdot 43$$

$$421 \cdot 25$$

$$265 \cdot 21$$

$$157 \cdot 16$$

$$346 \cdot 18$$

**262.** O'quvchilarni yozgi ta'tilda Chimyon tog'lariga olib chiqish uchun 25 o'rindiqli 11 ta avtobus va 18 o'rindiqli 5 ta avtobus ajratildi. Chimyon tog'lariga nechta o'quvchi olib chiqilgan?

**263.** Misollarni yeching. Zarur joylarda ko'paytuvchilarining o'rnini almashtiring:

$132 \cdot 42$	$26 \cdot 151$	$142 \cdot 36$	$263 \cdot 34$	$14 \cdot 385$
$25 \cdot 116$	$141 \cdot 23$	$15 \cdot 154$	$19 \cdot 123$	$186 \cdot 54$
$32 \cdot 213$	$213 \cdot 24$	$17 \cdot 215$	$426 \cdot 15$	$328 \cdot 47$

**264.** Qisqa shartlar bo'yicha, masalalar tuzing va ularni yeching:

- |                         |                               |
|-------------------------|-------------------------------|
| 1) 14 kg dan 32 ta quti | 2) 12 kg dan 23 ta yashik     |
| 16 kg dan 24 ta quti    | 15 kg dan 32 ta yashik        |
| Necha kilogramm         | Sotildi – $\frac{1}{3}$ qismi |
| pecheniy olib kelingan? | Qoldi – ?                     |

**265.** Namunalarga qarang. To'rt xonali sonlarni ikki xonali sonlarga ko'paytirish qanday bajarilganligini tushuntiring. To'liqsiz ko'paytmalar va natijani (to'liq ko'paytmani) ayting.

$$\begin{array}{r} 2306 \\ \times \quad 34 \\ \hline 9224 \\ + \quad 6918 \\ \hline 78404 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 1450 \\ \times \quad 23 \\ \hline 4350 \\ + \quad 2900 \\ \hline 33350 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 1700 \\ \times \quad 42 \\ \hline 3400 \\ + \quad 6800 \\ \hline 71400 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 1700 \\ \times \quad 42 \\ \hline 34 \\ + \quad 68 \\ \hline 71400 \end{array}$$

Oxirgi misoldagi ko'paytirish qanday bajarilganini tushuntiring?

**266.** Misollarni tushuntirish bilan yeching:

$2153 \cdot 42$	$350 \cdot 16$	$2600 \cdot 12$
$1035 \cdot 14$	$1560 \cdot 24$	$3200 \cdot 11$

**267.** Sonlarning ko'paytmasini toping:

a) $2114 \cdot 13$	$3143 \cdot 32$	$1305 \cdot 22$	$3072 \cdot 12$
$1242 \cdot 42$	$3814 \cdot 24$	$2604 \cdot 14$	$1007 \cdot 15$
$1524 \cdot 22$	$4263 \cdot 17$	$4013 \cdot 13$	$3004 \cdot 24$
b) $320 \cdot 14$	$2140 \cdot 13$	$1600 \cdot 24$	$4000 \cdot 21$
$130 \cdot 23$	$1430 \cdot 41$	$3400 \cdot 13$	$2380 \cdot 22$
$460 \cdot 35$	$3020 \cdot 32$	$2700 \cdot 15$	$4080 \cdot 17$
$280 \cdot 16$	$4050 \cdot 25$	$1800 \cdot 26$	$3500 \cdot 16$

**268.** Sayyohlar piyoda 15 km, avtobusda undan 14 marta ortiq, samolyotda esa avtobusdagiga qaraganda 12 marta ortiq yo'lni bosib o'tishdi. Sayyohlar hammasi bo'lib qancha yo'lni bosib o'tishgan?

**269.** Yuk tashuvchi poyezd 124 t sement, undan 13 marta ortiq qum va sement bilan qumning birgalikdagi massasidan 364 t kam shag'al yetkazdi. Hammasi bo'lib qancha qurilish materiallari yetkazilgan?

**270.** Amallardan misol tuzib, ularni yeching:

- 1) 341 sonini 14 marta ko'paytiring. Chiqqan natijani 487 ta kamaytiring;
- 2) 208 va 15 sonlarining ko'paytmasini 3 marta kamaytiring;
- 3) 13400 va 40 sonlarining bo'linmasini 12 marta ko'paytiring.

**271.** Amallardan misol tuzib yeching:

$$352 \text{ va } 8 \text{ ning ko'paytmasi}$$

$$5096 \text{ va } 6 \text{ ning bo'linmasi}$$

$$2907 \text{ va } 1896 \text{ ning yig'indisi}$$

ni 23 marta orttiring

**272.** Qisqa shart bo'yicha masala tuzib, yeching:

a)

Jami  
? so'm

so'mdan 12 ta stakan

so'mdan 12 ta qoshiq

b)

Jami  
? so'm

so'mdan 6 ta bokal

so'mdan 12 ta qoshiq

Masalalardan qaysi birini ikki usul bilan yechish mumkin? Ikkinci masalani nega ikki usulda yechib bo'lmaydi?

**273.** 1) Soat zavodida bir sutkada 1230 ta soat tayyorlanadi. Agar zavod haftasiga 5 kun ishlasa, 3 haftada qancha soat tayyorlanadi?

2) Ikkita g'oz bir yil davomida 50 kg don iste'mol qilsa, 1280 ta g'ozni boqish uchun bir yilga qancha don g'amlanishi kerak?

**274.** Ko'paytmani toping:

$$a) 1420 \cdot 13$$

$$3006 \cdot 24$$

$$2300 \cdot 16$$

$$45 \cdot 307$$

$$2040 \cdot 14$$

$$24 \cdot 1600$$

$$32 \cdot 1405$$

$$87 \cdot 1006$$

$$23 \cdot 1175$$

$$1042 \cdot 32$$

$$1084 \cdot 33$$

$$2103 \cdot 43$$

$$12 \cdot 1500$$

$$31 \cdot 1534$$

$$25 \cdot 608$$

$$26 \cdot 287$$

b) $3200 \cdot 8$	$2700 \cdot 17$	$21032 \cdot 1$	$0 \cdot 3042$
$320 \cdot 18$	$1003 \cdot 26$	$16304 \cdot 5$	$22 \cdot 350$
$5600 \cdot 11$	$8000 \cdot 14$	$2401 \cdot 30$	$17 \cdot 940$
$3412 \cdot 10$	$41 \cdot 307$	$23 \cdot 5012$	$267 \cdot 35$

275. Misollarni yeching:

$(99 + 3025) \cdot 15$	$38249 - 1204 \cdot 13$
$99 + 3025 \cdot 15$	$24 \cdot 1603 + 1727$
$(38249 - 1204) \cdot 13$	$22 \cdot 3510 - 39507$

276. Qaldirg'och bolalarini boqish uchun tumshug'ida bir marta uchib kelishida 400 ta hashorat olib kela oladi. U iniga bir kunda 20 marta uchib kelsa, bir haftada qancha hashorat olib keladi?

277. Qaldirg'ochning o'rtacha uchish tezligi 3 km/min. Qaldirg'och 30 minutda qancha masofani uchib o'tadi? Bir soatda-chi?

278. Do'konda 340 m gazlama bor edi. U yerga yana har birida 40 m dan 13 ta o'ram gazlama olib kelindi. Do'konda hammasi bo'lib necha metr gazlama bo'ldi?

279. Misollarni yeching:

$2104 \cdot 31 + 1032 \cdot 21$	$1230 \cdot 14 + 1043 \cdot 12$
$14 \cdot (10001 - 3942) \cdot 2$	$13 \cdot 603 - 44 \cdot 11$

280. Ko'paytmalarni aniqlamasdan,  $>$ ,  $<$  yoki  $=$  belgilardan mosini qo'yib amallarni taqqoslang. U yoki bu belgining qo'yilishini tushuntiring:

a) $1235 \cdot 32$ va $32 \cdot 1235$	d) $1704 \cdot 14$ va $16 \cdot 1704$
b) $2600 \cdot 24$ va $2500 \cdot 24$	e) $2112 \cdot 15$ va $2110 \cdot 15$

Misollarni yechib, javoblarini tekshiring.

**281. Misollarni yeching:**

$$301 \cdot 12 + 204 \cdot 17$$

$$(240 - 40 \cdot 3) \cdot 97$$

$$104 \cdot 56 + 145 \cdot 80$$

$$(150 + 50 \cdot 2) \cdot 78$$

**282.** Bir maydonga 304 sr, ikkinchisiga undan 29 sr ortiq bug'doy sepildi. Birinchi maydondan sepilganidan 21 marta ortiq, ikkinchi maydondan esa 24 marta ortiq bug'doy yig'ib olindi. Ikkala maydondan qancha bug'doy yig'ib olindi?

**283.** Uzoq yo'lga yuruvchi poyezd har biri 2067 km li 38 ta reys, boshqa poyezd esa har biri 2645 km li 29 ta reys bajardi. Qaysi poyezd ko'proq va qanchaga ko'proq yo'lni bosib o'tdi?



**MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR**

**1.** Bir yuk mashinasida har birida 72 kg dan 56 ta qop, boshqa yuk mashinasida har birida 68 kg dan 62 ta qop bug'doy olib kelindi. Ikkala yuk mashinasida hammasi bo'lib necha kilogramm bug'doy olib kelindi?

**2.** Ko'paytirishni bajaring:

$$3412 \cdot 14$$

$$1230 \cdot 42$$

$$32 \cdot 1340$$

$$2104 \cdot 21$$

$$3100 \cdot 16$$

$$25 \cdot 1600$$

**3.** Misol tuzib, yeching:

a) 248 sonini 35 marta ko'paytiring;

b) 4023 sonini 14 marta ko'paytiring.

**4.** Sovg'a uchun har birining bahosi 560 so'mdan 15 ta koptok va har birining bahosi 325 so'mdan 14 ta arqon sotib olindi. Sotib olingan buyumlarning jami bahosi qancha?

**5.** Ko'paytirishni bajaring:

$$54 \cdot 12$$


$$204 \cdot 14$$

$$420 \cdot 23$$

$$46 \cdot 21$$

$$135 \cdot 24$$

$$311 \cdot 44$$



## IKKI XONALI SONGA BO'LISH

284. Har bir ustundagi misollarni solishtiring. Ularning farqi nimada?

$$8:2$$

$$12:6$$

$$160:4$$

$$250:5$$

$$9:2$$

$$14:6$$

$$182:4$$

$$253:5$$

285. Qoldiqli bo'lishni bajaring:

$$50:4$$

$$470:3$$

$$3184:5$$

$$43185:2$$

$$50:40$$

$$470:30$$

$$3184:50$$

$$43185:20$$

286. 1) Bo'linmani va qoldiqni topamiz:  $135:32$ .

**Misolni quyidagicha yozamiz:**

$$\begin{array}{r} 135 \\ - 128 \end{array} \left| \begin{array}{r} 32 \\ 4 \end{array} \right.$$

7 (qoldiq)



**Bo'lishda bo'linmani quyidagicha topamiz:**

1) 32 sonini 1 marta olib ko'ramiz. Tekshiramiz:  $32 \cdot 1 = 32$   
 $32 < 135$

2) 32 sonini 2 marta olib ko'ramiz. Tekshiramiz:  $32 \cdot 2 = 64$   
 $64 < 135$

3) 32 sonini 3 marta olib ko'ramiz. Tekshiramiz:  $32 \cdot 3 = 96$   
 $96 < 135$

4) 32 sonini 4 marta olib ko'ramiz. Tekshiramiz:  $32 \cdot 4 = 128$   
 $128 < 135$

5) 32 sonini 5 marta olib ko'ramiz. Tekshiramiz:  $32 \cdot 5 = 160$   
 $160 > 135$

**Demak, 32 soni 4 marta olinadi.**



Ikkita sonning bo'linmasidagi qoldiq har doim bo'lувchidan kichik bo'ladi.

2) Bo'linmani va qoldiqni toping:

48:11	80:24	135:32	125:23	415:61
42:13	91:42	109:34	146:17	525:72
39:15	87:14	120:25	376:52	174:18
68:12	93:16	219:43	288:43	355:36

287. 1) 1) 90 ta qalam qutilarga 12 tadan qilib joylandi.

Qalamlar nechta qutiga joylandi va nechta qalam ortib qoldi?

2) 173 ta kitob 32 tadan qilib kitob javonlariga taxlandi.

Nechta javon kitoblar bilan to'ldi va nechta kitob ortib qoldi?

288. Qoldiqli bo'lishni bajaring:

178:22	125:16	352:43	218:43
190:31	213:24	105:32	77:23
97:15	105:14	96:25	476:52
129:13	88:42	312:34	106:17

289. 1) 156:12 bo'lish amalini bajaring:

Misolni quyidagidek yozamiz:

$$\begin{array}{r} \underline{-} 156 \quad | \quad 12 \\ \underline{\quad 12} \quad | \quad 13 \\ \quad 36 \\ - 36 \\ \quad 0 \end{array}$$

Tekshirish:

$$\begin{array}{r} \times 13 \\ \underline{12} \\ \underline{+ 26} \\ \underline{13} \\ 156 \end{array}$$

## Bo‘lishni tushuntiring:

- 1) **birinchi to‘liqsiz bo‘linuvchini** ajratamiz (15 ta o‘nlik.), bo‘linmadagi raqamlar sonini aniqlaymiz;
- 2) bo‘linmadagi **birinchi raqamni** olamiz (1) va bo‘luvchini shu songa ko‘paytiramiz:  $12 \cdot 1 = 12$ , qoldiqni topamiz;
- 3) bo‘linuvchidagi keyingi **raqamni** (6) olib, **ikkinchi to‘liqsiz bo‘linuvchini** (36) hosil qilamiz;
- 4) bo‘linmaning **ikkinchi raqamini** (3) olamiz, ko‘paytirib  $12 \cdot 3 = 36$ , qoldiqni topamiz;
- 5) qoldiq yo‘q, demak **bo‘lish yakunlandi**;
- 6) **tekshirishni bajaramiz.**

2) Bo‘lishni tushuntirish bilan bajaring:

165:11      736:32      294:21      688:43

3) Bo‘linmani toping va tekshiring:

156:12	210:15	483:21	336:14	416:13
195:13	286:22	672:32	902:41	744:24

**290.** Bo‘linmadagi raqamlar sonini aniqlab, bo‘lishni bajaring:

325:13	168:42	144:24	630:15
180:12	552:23	544:16	184:23
483:21	96:32	91:13	832:52
150:25	84:14	105:35	287:41

- 291.** Maktab bog'iga har bir qatorga 24 tadan 96 tup olma ko'chati ekildi. Maktab bog'ida olma ko'chati ekilgan qatorlar nechta?
- 292.** Maktab spartakiadasida 68 ta yuqori sinf o'quvchilari har birida 17 tadan o'quvchi bo'lgan jamoalarga bo'linishdi. Spartakiadada hammasi bo'lib nechta jamoa ishtirok etdi?
$$20 \text{ yil} - 11 \text{ oy.}$$

d)

$$\begin{array}{r} . \\ - 7 \text{ oy } 30 \\ \hline 3 \text{ oy } 19 \text{ sut.} \\ \hline 3 \text{ oy } 11 \text{ sut.} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} . \\ - 7 \text{ oy } 42 \\ \hline 3 \text{ oy } 25 \text{ sut.} \\ \hline 3 \text{ oy } 17 \text{ sut.} \end{array}$$

10 oy – 2 oy 6 sut.

8 oy 15 sut. – 4 oy 20 sut.

9 oy – 5 oy 19 sut.

5 oy 21 sut. – 2 oy 25 sut.

**446.** 1) Ota 35 yoshda, o'g'il esa otadan 21 yosh-u 7 oylik kichik bo'lsa, o'g'il necha yosh-u, necha oyli bo'ladi?

2) Opa 18 yosh, uka 13 yosh-u 6 oyli bo'lsa, opa ukadan qancha katta bo'ladi?

3) Bubi 53 yoshda, nabira esa 9 oyli bo'lsa, nabira buvidan necha yosh kichik bo'ladi?

**447.** Namunalarga qarab misollarni yeching. Ayirish qanday bajarilganini tushuntiring:

a)

$$\begin{array}{r} . \\ - 20 \text{ sut. } 00 \text{ soat} \\ \hline 6 \text{ sut. } 14 \text{ soat} \\ \hline 13 \text{ sut. } 10 \text{ soat} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} . \\ - 20 \text{ sut. } 03 \text{ soat} \\ \hline 6 \text{ sut. } 15 \text{ soat} \\ \hline 13 \text{ sut. } 12 \text{ soat} \end{array}$$

15 sut. – 13 soat

8 sut. 6 soat – 3 sut. 12 soat

19 sut. 13 soat – 8 sut. 20 soat

1 sut. 2 soat – 3 soat

b)

$$\begin{array}{r}
 . \quad \quad \quad 60 \\
 27 \text{ min } 00 \text{ s.} \\
 - \quad \quad \quad 5 \text{ min } 28 \text{ s.} \\
 \hline
 21 \text{ min } 32 \text{ s.}
 \end{array}$$

$$\begin{array}{r}
 . \quad \quad \quad 73 \\
 27 \text{ min } 13 \text{ s.} \\
 - \quad \quad \quad 5 \text{ min } 28 \text{ s.} \\
 \hline
 21 \text{ min } 45 \text{ s.}
 \end{array}$$

$$38 \text{ min} - 15 \text{ s.}$$

$$20 \text{ min} - 5 \text{ min } 16 \text{ s.}$$

$$42 \text{ min } 17 \text{ s.} - 48 \text{ s.}$$

$$15 \text{ min } 9 \text{ s.} - 3 \text{ min } 12 \text{ s.}$$

**448.** Harbiy askarga namunali xizmatlari uchun 5 sutka ta'til berildi. Undan 14 soatini u yo'lga sarfladi. Askar uyida qancha vaqt bo'lgan?

**449.** Brigada maktabni 3 oy-u 12 sutkada, xonadonni esa undan 2 oy-u 16 sutkaga tezroq ta'mirdan chiqardi. Xonadonni ta'mirlash uchun qancha vaqt kerak bo'ldi?

**450.** Amallarni bajaring:

a) 12 sut. - 6 sut. 18 soat	8 soat - 5 soat 20 min
9 sut. - 3 soat	16 soat 12 min - 16 min
22 sut. 17 soat - 16 sut. 5 soat	
13 soat 42 min - 7 soat 23 min	
20 sut. 1 soat - 16 sut. 5 soat	
3 soat 28 min - 1 soat 35 min	

b) 40 min 17 s. - 15 min 9 s	6 yil - 4 yil 5 oy
32 min - 31 s.	7 oy - 2 oy 8 sut.
15 min 6 s. - 10 min 16 s.	5 yil 6 oy - 3 yil 8 oy
46 min 50 s. - 46 s.	13 oy 16 sut. - 4 oy 9 sut.

**451.** Matematika darsida berilgan uy vazifalarni bajarish uchun o'quvchiga 25 minut, she'r yodlashga 1 soat-u 45 minut, rus tilidan berilgan uy vazifalarni tayyorlash uchun 20

minut vaqt kerak bo'ldi. O'quvchi uyga berilgan hamma vazifalarni bajarishga qancha vaqt sarfladi?

**452.** O'quvchi dars tayyorlashni soat 15 dan 40 minut o'tganda boshlab, 30 minutdan keyin tugatdi. O'quvchi soat nechada dars tayyorlab bo'ldi?

**453.** Qishloqdan shahargacha avtobusda 2 soat-u 10 minutda, yengil mashinada esa 1 soat-u 30 minutda yetib borish mumkin. Avtobusda yengil mashinadagiga qaraganda qancha ko'proq vaqt yuriladi?

**454.** Amallarni bajaring:

5 oy 8 sut.+6 oy 13 sut.	46 min + 3 soat 15 min
9 yil 4 oy+7 yil 8 oy	16 sut. 12 soat + 8 sut. 14 soat
5 soat 16 min – 20 min	15 soat 36 min + 2 soat 19 min
18 yil – 9 oy	13 sut. – 12 soat.

**455.** Shanba kuni Malika kitob o'qishga 65 minut, yakshanba kuni esa 1 soat-u 10 minut sarfladi. Malika qaysi kuni kitob o'qishga ko'proq va qanchaga ko'proq vaqt sarfladi?

**456.** Hozir ertalabki soat 8 bo'lsa, sutka oxirigacha qancha vaqt qoladi?

**457.** 1) Shavkat buvisinikiga 1-iyunda ketib, u yerdan 25-avgustda qaytdi. Shavkat buvisinikida necha oy va necha kun mehmon bo'ldi?

2) Gulchehra bolalar oromgohiga 7-iyulda kelib, u yerdan 15-avgustda qaytdi. Gulchehra oromgohda necha oy va necha kun dam oldi?

**458.** 1) O'quvchilar bir o'quv yilida to'liq necha oy o'qishadi?

2) Yozgi ta'til necha oy va necha kun davom etadi?

**459.** Misollarni yeching:

$$15 \text{ sut} - 6 \text{ sut. } 7 \text{ soat}$$

$$19 \text{ soat } 8 \text{ min} + 42 \text{ min}$$

$$6 \text{ soat } 50 \text{ min} - 5 \text{ min}$$

$$4 \text{ sut. } 3 \text{ soat} - 4 \text{ soat}$$

$$13 \text{ sut. } 15 \text{ soat} + 13 \text{ soat}$$

$$8 \text{ oy } 19 \text{ sut.} + 2 \text{ oy } 23 \text{ sut.}$$

$$11 \text{ oy} - 9 \text{ sut.}$$

$$8 \text{ soat } 24 \text{ min} + 3 \text{ soat } 43 \text{ min}$$



### **MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR**

**1.** 7-sinfda darslar soat 8 dan 30 minut o'tganda boshlanib, 5 soat-u 40 minutdan keyin tugadi. Mashg'ulotlar soat nechada tugaydi?

**2.** Amallarni bajaring:

$$5 \text{ yil } 4 \text{ oy} + 7 \text{ yil } 11 \text{ oy}$$

$$8 \text{ oy } 16 \text{ sut.} + 3 \text{ oy } 17 \text{ sut.}$$

$$4 \text{ soat } 20 \text{ min} + 8 \text{ soat } 45 \text{ min}$$

$$2 \text{ sut. } 5 \text{ soat} + 19 \text{ soat}$$

$$15 \text{ soat} - 15 \text{ min}$$

$$3 \text{ sut. } 19 \text{ soat} - 2 \text{ sut. } 8 \text{ soat}$$

$$5 \text{ min } 3 \text{ s.} - 50 \text{ s.}$$

$$1 \text{ yil } 4 \text{ oy} - 10 \text{ oy}$$

**3.** To'garak mashg'ulotlari soat 16 da boshlanib, 1 soat-u 20 minutdan keyin tugadi. Mashg'ulotlar soat nechada tugaydu?

**4.** Misollarni yeching:

$$4 \text{ soat } 20 \text{ min} + 40 \text{ min}$$

$$1 \text{ yil } 6 \text{ oy} + 6 \text{ oy}$$

$$3 \text{ sut. } 12 \text{ soat} + 5 \text{ sut. } 8 \text{ soat}$$

$$4 \text{ min } 20 \text{ s.} + 3 \text{ min } 19 \text{ s.}$$

$$1 \text{ soat} - 10 \text{ min}$$

$$3 \text{ soat} - 40 \text{ min}$$

$$4 \text{ yil} - 1 \text{ yil } 2 \text{ oy}$$

$$4 \text{ sut. } 8 \text{ soat} - 3 \text{ soat}$$

**5.** Vaqtlni taqqoslang,  $>$ ,  $<$  yoki  $=$  belgilardan mosini qo'ying:

$$1 \text{ soat} \dots 65 \text{ min}$$

$$1 \text{ sut. } 2 \text{ soat} \dots 12 \text{ min}$$

$$5 \text{ min} \dots 60 \text{ s.}$$

$$1 \text{ yil } 2 \text{ oy} \dots 14 \text{ oy}$$


$$3 \text{ oy} \dots 30 \text{ sut.}$$

$$2 \text{ soat} \dots 120 \text{ min.}$$



## TAKRORLASH

- 460.** 6-rasmga qarang. Ushbu geometrik shakllar qanday ataladi? Rasmdagi shakllarning tartib raqamlaridan mosini qo'yib, jadvalni to'ldiring.




6-rasm.

To'g'ri chiziqlar	
Siniq chiziqlar	
Egri chiziqlar	

- 461.** 1) Nuqta qo'yib, bu nuqtadan to'g'ri chiziq o'tkazing. Bitta nuqtadan nechta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin?
- 2) Berilgan ikki nuqtadan to'g'ri chiziq o'tkazing. Ikki nuqtadan nechta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin?
- 462.** Kesma va to'g'ri chiziqlar ikkita bosh harf, masalan  $AB$  va  $BC$  yoki bitta kichik harf, masalan,  $a$ ,  $b$ ,  $c$  bilan belgilanadi.

7-rasmdagi geometrik shakllarning nomini ayting.



7-rasm.

Geometrik shakllarning qaysilarini o'lchash mumkin va qaysilarini o'lchash mumkin emas?

**463.** Kesmalar chizing:

$$a = 15 \text{ mm};$$

$$AB = 8 \text{ sm};$$

$$b = 4 \text{ sm } 8 \text{ mm};$$

$$CD = 3 \text{ sm};$$

$$c = 30 \text{ mm};$$

$$MN = 5 \text{ sm } 3 \text{ mm}.$$

Uzunligi bir xil bo'lgan kesmalarni ajratib yozing.



Kesma uzunliklarini qo'shish va ayirish mumkin.

**464.** 1) Ikkita  $a$  va  $b$  kesma uzunliklari yig'indisiga teng  $c$  kesma hosil qiling:

$$a = 4 \text{ sm}, b = 2 \text{ sm}.$$

$$c = a + b \text{ kesma chizing.}$$

2) Ikkita  $a$  va  $b$  kesma uzunliklarining ayirmasiga teng  $c$  kesma hosil qiling:

$$\text{Ber: } a = 7 \text{ sm}, b = 3 \text{ sm}.$$


$$c = a - b \text{ kesma chizing.}$$

**465.** Keshmalarning uzunliklarini hisoblab chizing:

$c = a + b$			$c = a - b$	
$a$	2 sm 3 mm	6 sm	5 sm 6 mm	9 sm 7 mm
$b$	4 sm	5 mm	3 sm	7 mm
$c$	?	?	?	?

**466.** 8-rasmdagi keshmalar qanday ataladi?

Siniq chiziqlar qanday keshmalardan tashkil topgan?



8-rasm.

$ABCDEM$  siniq chiziq'ining uzunligini toping.

**467.** Rasmga qarang. Fazoda jismlar qanday yo'nalishda joylashishi mumkin?



Gorizontal yo'nalishni aniqlash uchun qanday asbobdan foydalaniladi?

Vertikal yo'nalishni aniqlashda-chi?

**468.** Chizg'ich yordamida uzunligi 5 sm li kesishmagan (parallel) ikkita kesmani:


- a) vertikal holatda;
- b) gorizontal holatda chizing.

To'g'ri burchak ostida kesishgan, uzunligi 4 sm bo'lgan ikki juft kesma chizing. Bu kesmalar qanday nomlanadi, uzunligi 6 sm bo'lgan ikkita  $AB$  va  $CD$  to'g'ri chiziqlarni yasang.

Ikkita gorizontal parallel to'g'ri chiziqlar chizing. Ular orasidagi masofani o'lchab, daftaringizga yozing.

### AYLANA. AYLANANING TUZILISHI

**469.** 9-rasmdagi chiziqlar qanday nomlanadi?



9-rasm.

$O$  nuqta nimani bildiradi?

Har bir yopiq egrini chiziqlarga nuqta qo'yib,  $O$  nuqta bilan birlashtiring.

Hosil bo'lgan kesmalarning uzunligini o'lchab, xulosa qiling.



Tekislikda berilgan Onuqtadan bir xil uzoqlikda joylashgan egri chiziq **aylana** deyiladi.

Aylanani chizish uchun qanday asbobdan foydalilanildi?

470. Sirkulni 1 sm 5 mm li ochib, daftaringizga aylana chizing. Aylananing markazini  $O$  nuqta bilan belgilang.  $O$  nuqtani aylanadagi  $A$  nuqta bilan birlashtirib,  $OA$  kesmani hosil qildik. Bu kesma nima deb atalishini eslang.




Aylananing ixtiyoriy nuqtasini uning markazi bilan tutashtiruvchi kesma **aylanan radiusi** deyiladi.

Bir nechta radiuslar chizing. Ularning uzunligini o'lchang. Bu uzunliklar nimani bildiradi? Radius qisqacha  $R(r)$  deb belgilanadi.

471. Sirkulni 2 sm li ochib, aylana chizing. Aylanada shunday kesma o'tkazing-ki, u aylana markazidan o'tsin. Bu kesma qanday atalishini ayting. Diametr qisqacha  $D(d)$  deb belgilanadi. Diametr aylanani nechta teng bo'laklarga bo'ladi? Aylanada nechta diametr o'tkazsa bo'ladi?

472. Radiusi 3 sm bo'lgan aylana chizing. Aylananing markazidan bir tarafga bir radius va qarama-qarshi tarafga ikkinchi radiusni o'tkazing. Qanday kesma hosil bo'ldi? (10-rasm)



$$\begin{aligned}AO &= OB = \text{radiuslar} - R \\AB &- \text{diametr} - D \\AB &= AO + OB \\D &= 2R\end{aligned}$$



Diametrning uzunligi ikkita radius uzunligiga teng.

Ber:  $R = 3$  sm  
 $D = ?$

Yechish:  
 $D = 2 \cdot R$   
 $D = 2 \cdot 3 = 6$  (sm).

473. Aylanalar chizing:

- |                   |                    |
|-------------------|--------------------|
| a) radiusi 4 sm;  | d) diametri 10 sm; |
| b) diametri 8 sm; | e) radiusi 50 mm.  |

Nima uchun  $a$ ,  $b$  va  $d$ ,  $e$  aylanalar bir biriga teng, tushuntiring.

474. Jadvalda berilgan radius va diametrlarning o'lchamlari bo'yicha aylanalar chizing:


$R$	25 mm		1 sm 8 mm	
$D$		4 sm		5 sm

Bir xil aylanalar hosil bo'ldimi? Nima uchun?

475. Aylana chizing ( $R=4$  sm). Aylana ichida aylana markazidan o'tmaydigan, lekin aylanadagi ikki nuqtani birlashtiruvchi  $AC$ ,  $CD$ ,  $MN$  kesmalarini chizing (11-rasm).



Aylananing ixtiyoriy ikki nuqtasini tutashtiruvchi kesma **vatar** deb ataladi.



11-rasm.

Aylananing markazidan o'tuvchi vaterni toping, uni yana qanday atash mumkin?

476. Aylana chizing ( $R=5$  sm). Hosil bo'lgan aylanada quyidagi uzunliklarda vatarlar o'tkazing:

$AB=2$  sm;  $ED=7$  sm;  $CK=1$  sm 5 mm;  $MN=10$  sm;  $PH=13$  sm.

$MN$  vaterni yana qanday nomlash mumkin?


Berilgan aylanada  $PH$  vatar o'tkazish mumkinmi?

Aylanada nechta vatar o'tkazish mumkin?

### BURCHAKLAR

Qog'ozda  $O$  nuqta belgilab, undan  $OA$  va  $OB$  nurlarni chiqaring (12-rasm). Bu ikkita nur burchak hosil qiladi. Bu ikkita nur chiqqan nuqta **burchak uchi** deyiladi.

Burchak hosil qilgan nurlar **burchak tomonlari** deyiladi.




12-rasm.



Tekislikning bir nuqtasidan chiqqan ikki nur bilan chegaralangan qismi **burchak** deyiladi.


Burchaklarni katta harflar bilan belgilash qabul qilingan. O'rtadagi harf burchakning uchini, ikkita chetdagi harf burchak tomonlarini bildiradi va  $AOB$  yoki  $BOA$  burchaklari deb o'qiladi. Burchakni « $\angle$ » bilan belgilash qabul qilingan, masalan  $\angle AOB$ . Burchakni burchak uchidagi harf bilan ham belgilasa bo'ladi.  $AOB$  burchagini  $O$  harfi bilan belgilash mumkin. Masalan,  $\angle O$ .

477. 13-rasmda tasvirlangan burchaklarning nomini ayting. Ularning belgihanish ifodasini yozing:



13-rasm.

478. Burchaklarning uchlarini, tomonlarini va nomlarini ayting (14-rasm).




14-rasm.

**479.** Burchaklarning tartib raqamlarini yozing (15-rasm):

To'g'ri burchaklar ...


O'tkir burchaklar ...

O'tmas burchaklar ...



15-rasm.

**480.** 16-rasmda nechta burchak tasvirlangan? Nomlarini aytib, daftaringizga yozing:



16-rasm.

### YOYIQ BURCHAK

$O$  nuqtadan ikkita nur chiqaramiz:  $OC$  va  $OD$ . Umumiyl burchak uchi –  $O$  hosil bo'ldi (17-rasm).  $OC$  va  $OD$  nurlar bir-biriga qarama-qarshi joylashdi. Ular qarama-qarshi nurlar deb ataladi.




Tomonlari qarama-qarshi  
tomonga qaragan nurlardan  
tashkil topgan burchak **yoyiq burchak** deb ataladi.



17-rasm.

Soat siferblatida soat va minut millari soat 6 ni ko'rsatsa va yelpig'ichning ochilgan holati yoyiq burchakni ko'rsatadi (18-rasm).




18-rasm.

## TO'G'RI BURCHAK

$COD$  (19-rasm) yoyiq burchakning  $O$  uchidan shunday  $OE$  nur o'tkazaylik-ki, u ushbu yoyiq burchakni teng ikkiga bo'lsin. Bunda  $COE$  va  $EOD$  burchaklar hosil bo'ladi. Bu burchaklar to'g'ri burchaklardir.



To'g'ri burchak deb, yoyiq burchakning yarmiga aytildi.




19-rasm.

Bir varaq qog'oz teng buklansa, ikkita to'g'ri burchak hosil bo'ladi.

To'g'ri burchak hosil qilishda maxsus uchburchak chizg'ichdan foydalilaniladi.

Chilangarlik va duradgorlik ustaxonalarida detal tayyorlashda go'niyalardan foydalilaniladi. Go'niyalar turli xil bo'ladi (20-rasm).




20-rasm.

## O'TKIR VA O'TMAS BURCHAKLAR

*BOD* burchak *EOD* to'g'ri burchakdan kichik.



O'tkir burchak deb, to'g'ri burchakdan kichik burchakka aytiladi.




21-rasm

*MOD* burchak *EOD* to‘g‘ri burchakdan katta, lekin *COD* yoyiq burchakdan kichik (22-rasm).



O‘tmas burchak deb,  
to‘g‘ri burchakdan katta va  
yoyiq burchakdan kichik  
burchakka aytildi.




22-rasm.

**481.** Savollarga javob bering:

- 1) Burchak deb nimaga aytildi?
- 2) Burchaklar qanday belgilanadi?

**482.** 23-rasmga qarang:

- 1) to‘g‘ri burchaklarni;
- 2) o‘tkir burchaklarni;
- 3) o‘tmas burchaklarni;
- 4) yoyiq burchaklarni ko‘rsating.



23-rasm.


**483.** Soat millari soat 2, 3, 4, 6, 12 ni ko‘rsatsa, qanday burchaklar hosil qilishini aniqlang.




- 484.** To'rtta kesmadan tashkil topgan siniq chiziq chizing. Nechta burchak hosil bo'lganini ayting. Ularning nomlarini ayting.
- 485.** Ikkita kesishgan to'g'ri chiziq chizing. Hosil bo'lgan burchaklarning nomini ayting.
- 486.** Boshi va tomonlari umumiy bo'lgan bir nechta burchaklar chizing.

### TO'LIQ BURCHAK

24-rasmga qarab to'g'ri burchak va yoyiq burchaklarni ko'rsating. 25-rasmda nechta yoyiq burchak bor?



24-rasm.




25-rasm.

Yoyiq burchak ikkita to'g'ri burchakka teng. To'rtta to'g'ri burchak yoki ikkita yoyiq burchak **to'liz burchakni** hosil qiladi.




Ikkita yoyiq burchakdan hosil bo'lgan burchak **to'liz burchak** deb ataladi.

Soatlardagi soat va minut millari to'g'ri burchakni hosil qiladi (26-rasm). 15 minutning ichida soat mili  $AOB$  burchakka burilsa, u qanday burchakni hosil qiladi?



26-rasm.



27-rasm.

$OA$  nur  $O$  nuqta atrofida to'liq aylanib chiqsa, **to'liq burchak** hosil qiladi (27-rasm).


### GRADUS. BURCHAKLARNING GRADUS O'LCHOVI

- 1) Odamning massasini;
- 2) mакtab koridorining uzunligini;
- 3) sotib olingan tovarning bahosini;
- 4) vaqt miqdorini o'lchashda qaysi o'lchov birliklaridan foydalilaniladi?

Burchaklarni o'lchashda maxsus o'lchov birligi – gradusdan foydalilaniladi. Bunga to'g'ri burchakni 90 ta mayda burchaklarga bo'lish orqali erishiladi.

Har bir burchak 1 gradusga teng va  $1^\circ$  (28-rasm) deb belgilanadi.

Har bir burchak to'g'ri burchakning  $\frac{1}{90}$  bo'lagini tashkil qiladi (29-rasm).



28-rasm.

$$\frac{1}{90} = 1^\circ$$

29-rasm.

To'g'ri burchakning  $\frac{1}{90}$  bo'lagi **gradus** deb ataladi.  
To'g'ri burchak  $90^\circ$  ga teng.

Quyidagicha yoziladi:  $\angle AOB = 90^\circ$ . «Gradus» so'zi o'rniغا  $^\circ$  belgisi qo'yiladi.

**487.** O'qing:  $\angle C = 45^\circ$ ;  $\angle 1 = 130^\circ$ ;  $\angle AOD = 180^\circ$ ;  $\angle 2 = 70^\circ$ .

Yoyiq burchak ikkita to'g'ri burchakka teng bo'lgani uchun  $180^\circ$  ni tashkil qiladi.  
To'liq burchak to'rtta to'g'ri burchakka teng bo'lgani uchun  $360^\circ$  ni tashkil qiladi.

30-rasmga qarang.


O'tkir burchak to'g'ri burchakdan kichik, demak u  $90^\circ$  dan kichik bo'ladi.

$\angle B = 50^\circ$ ,  $50^\circ < 90^\circ$ , demak,  $\angle B = 50^\circ$  o'tkir burchak.


**90° dan kichik burchak – o'tkir burchakdir.**

O'tmas burchak to'g'ri burchakdan katta va yoyiq burchakdan kichik:  $\angle 1 = 130^\circ$ ,  $130^\circ > 90^\circ$ ,  $130^\circ < 180^\circ$ .


**90° dan katta, lekin 180° dan kichik burchak o'tmas burchakdir.**



$$\angle AOB = 90^\circ$$



$$\angle B = 50^\circ$$



$$\angle 1 = 130^\circ$$

30-rasm.

- 488.** Quyidagi burchaklardan avval o'tkir, keyin o'tmas burchaklarni ajratib yozing:

$35^\circ$ ;  $100^\circ$ ;  $91^\circ$ ;  $18^\circ$ ;  $78^\circ$ ;  $180^\circ$ ;  $123^\circ$ ;  $110^\circ$ ;  $90^\circ$ ;  $35^\circ$ ;  $8^\circ$ ;  $170^\circ$ ;  $0^\circ$ ;  $13^\circ$ ;  $89^\circ$ ;  $179^\circ$ .

- 489.** Jadvalda ko'rsatilgan burchaklarga mos gradus o'lchovlarni qo'yib to'ldiring.

to'g'ri burchak			
otkir burchak			
otmas burchak			
yoyiq burchak			


- 490.** To'g'ri burchak, to'g'ri burchakning yarmi, yoyiq burchakning  $\frac{1}{2}$  qismi, to'g'ri burchakning  $\frac{1}{3}$  qismi, to'liq burchakning  $\frac{1}{10}$  qismi necha gradusni tashkil qiladi?

- 491.** 1) To'g'ri burchakdan katta burchak qanday ataladi? U necha gradusni tashkil qiladi? Shunday burchaklardan beshtasini toping.
- 2) Yoyiq burchak necha gradusni tashkil qiladi?
- 3) To'g'ri burchakdan kichik burchak nima deb ataladi? U necha gradusni tashkil qiladi? Shunday burchaklardan beshtasini yozing.
- 4) To'liq burchakning ichida nechta to'g'ri burchak bor? To'liq burchakning ichida nechta yoyiq burchak bor? Yoyiq burchakning ichida nechta to'g'ri burchak bor?


**492.** Jismoniy tarbiya darsida «Aylan!» komandasasi berilsa, o'quvchi necha gradusga burilishi kerak?

### **TRANSPORTIR. TRANSPORTIR YORDAMIDA BURCHAKLARNI YASASH VA O'LCHASH**

Vaqt, massa, uzunlik o'lchovlarini o'lchash asboblarining nomini ayting. Burchaklarni o'lhashda maxsus asbob – **transportirdan** foydalilaniladi.




Transportir  $180^\circ$  yoyiq burchak ostidagi yarim aylana shaklida bo'lib,  $0^\circ$  dan  $180^\circ$  gacha mayda shtrixlar bilan ajratilgan. Odagi bir chiziqcha transportir markazidan o'ngda, boshqasi esa chapda joylashgan. Shuning uchun har  $10^\circ$  dan keyin ikkita son ko'rsatilgan. Masalan:  $30^\circ$  va  $150^\circ$ ,  $60^\circ$  va  $120^\circ$ . Transportir markazi shtrix bilan belgilangan bo'lib burchak uchini tashkil qiladi.  $AOB$  burchakni transportir yordamida o'lchash uchun transportir markazi burchak uchi –  $O$  nuqta bilan ustma-ust tushiriladi. Transportirning yarim aylana markazini burchakning uchiga, boshqa tomoni burchakning  $OB$  tomoniga qo'yiladi. Burchakning  $OA$  tomoni bilan ustma-ust tushgan transportirdagi chiziqcha, berilgan  $AOB$  burchakning gradus kattaligini ifodalaydi:  $\angle AOB = 120^\circ$  (31-rasm).



31-rasm.

**493.** Burchakning turini aniqlang.  $COE$  burchagini kattaligini o'lchang (32-rasm).


**494.** Ikkita o'tkir va ikkita o'tmas burchak chizing. Ularning kattaligini transportir yordamida o'lchab, natijalarni yozing.



$$\angle COE = \dots$$


32-rasm.

- 495.** Burchakning turini aniqlang va transportir yordamida burchaklarning kattaligini o'lchang (33-rasm):




33-rasm.

- 496.** Transportir yordamida burchaklarning kattaligini o'lchab, natijalarini yozing (34-rasm):



34-rasm.



35-rasm.

Transportirdan burchaklarni yasashda ham foydalaniлади.  $60^\circ$  га teng  $BCD$  burchak yasaymиз. Buning uchun  $CD$  nur o'tkazamiz (35-rasm).

Transportirni shunday joylashtiramizki, transportir markasi nur boshi –  $C$  nuqta bilan,  $CD$  nurni esa transportir diametri bilan to'g'rilaymиз va  $B$  nuqtani transportirdagi  $60^\circ$  li chiziqcha, ya'ni  $60^\circ$  ga qo'yib,  $BC$  nur o'tkazamiz. Demak,  $\angle BCD = 60^\circ$ .

**497.**  $15^\circ$ ;  $90^\circ$ ;  $30^\circ$ ;  $105^\circ$ ;  $140^\circ$ ;  $70^\circ$ ;  $170^\circ$ ;  $90^\circ$  ga teng burchaklar yasang.

**498.**  $90^\circ$  dan kichik uchta burchak yasang. Bu burchaklar turini aniqlang.

**499.**  $90^\circ$  dan katta burchaklar yasang. Bu burchaklar turini aniqlang.

**500.** Burchaklar yasang:

$$\angle AOB = 75^\circ \quad \angle ADK = 180^\circ \quad \angle MCD = 100^\circ$$

$$\angle EKM = 130^\circ \quad \angle CDE = 90^\circ \quad \angle KAD = 60^\circ$$

- 501.** 1)  $\angle AOC = 90^\circ$  li;      2)  $\angle BOC = 120^\circ$  li;  
3)  $\angle AOD = 150^\circ$  li burchak yasang.



Berilgan ikkita burchakning gradus o'lchovlari teng bo'lsa, bu burchaklar o'zaro teng bo'ladi.

**502.** Transportir yordamida  $15^\circ$ ;  $45^\circ$ ;  $39^\circ$ ;  $110^\circ$ ;  $90^\circ$ ;  $146^\circ$ ;  $79^\circ$ ;  $180^\circ$  li burchaklar yasang. Bu burchaklar ichidan o'tmas burchaklarni ajratib yozing.

**503.** Burchaklar yasang:


- 1)  $40^\circ$ ;  $60^\circ$ ;  $80^\circ$ ;  $90^\circ$ ;  $110^\circ$ ;  $160^\circ$ ;  $170^\circ$ ;
- 2)  $52^\circ$ ;  $75^\circ$ ;  $84^\circ$ ;  $126^\circ$ ;  $151^\circ$ ;  $164^\circ$ ;  $175^\circ$ .

**504.** 1) to'g'ri burchakdan  $25^\circ$  kichik;  
2) to'g'ri burchakdan  $25^\circ$  katta;  
3) to'g'ri burchakning yarmi;  
4) to'g'ri burchakning  $\frac{1}{3}$  bo'lagiga teng burchaklar yasang.

**505.** Yoyiq burchakning  $\frac{1}{3}$ ,  $\frac{1}{6}$  bo'lagini topib burchak yasang.


### QO'SHNI BURCHAKLAR VA ULARNING YIG'INDISI

**506.** 36-rasmdagi burchaklarning turini aniqlang.



36-rasm.


$AOC$  yoyiq burchakni olib, undan  $OB$  (30-a rasm) nur o'tkazsak, bu nur yoyiq burchakni ikki burchak:  $\angle AOB$  va  $\angle BOC$  ga bo'ladi (37-b rasm).



37-rasm.

Bu burchaklar *qo'shni burchaklar* deb ataladi.


Qo'shni burchaklar umumiy  $OB$  tomonga ega.  $AC$  nur esa qolgan ikki  $AO$  va  $OC$  tomonlarni tashkil qiladi (38-rasm).



38-rasm.

$\angle AOB$  va  $\angle BOC$  – qo'shni burchaklardir.

**507.** 1)  $\angle CDE$  va  $\angle EDK$ ;  $\angle MNE$  va  $\angle MNA$  burchaklar qo'shni burchak bo'la oladimi? (39-rasm).



39-rasm.

2) Transportir yordamida qo'shni burchaklar yasab, ularning yig'indisini hisoblang:




$$\angle 1 + \angle 2 = 180^\circ$$

40- rasm.



Qo'shni burchaklarning yig'indisi  $180^\circ$  ga tengdir. Ikkita qo'shni burchak bitta yoyiq burchakni tashkil qiladi.

508. Qo'shni burchaklardan birining kattaligi  $110^\circ$  ga teng (41-rasm). Ikkinchi burchakning gradus o'lchovini toping.



$$\begin{aligned}\angle CON &= 180^\circ \\ \angle AON &= 110^\circ \\ \angle AOC &=?\end{aligned}$$


41- rasm.

**Quyidagicha izohlaymiz:** qo'shni burchaklarning yig'indisi  $180^\circ$  ga teng. Bitta  $AON$  qo'shni burchak kattaligi  $110^\circ$  ga teng bo'lsa, ikkinchi  $AOC$  burchakning kattaligini topish mumkin.

**Yechish:**

$$\begin{aligned}\angle AOC &= 180^\circ - 110^\circ \\ \angle AOC &= 70^\circ\end{aligned}$$

509. 1) Qo'shni burchaklar ikkinchi juftining kattaligini toping (42-rasm).



42-rasm.



2) Burchaklardan birining kattaligi  $30^\circ$ ;  $75^\circ$ ;  $105^\circ$ ;  $45^\circ$ ;  $165^\circ$  ga teng qo'shni burchaklar chizing.

**510.**  $AOC$  burchagi va unga qo'shni bo'lgan burchak chizing. Burchaklarning yig'indisini toping.

**511.**  $ABD$  to'g'ri burchagi va unga qo'shni bo'lgan burchak chizing. Ikkinci qo'shni burchakning kattaligini toping.

**512.**  $40^\circ$  li o'tkir burchak va unga  $90^\circ$ ;  $115^\circ$ ;  $140^\circ$ ;  $60^\circ$  li qo'shni burchak chizing.

**513.**  $75^\circ$ ;  $8^\circ$ ;  $5^\circ$ ;  $150^\circ$ ;  $90^\circ$ ;  $105^\circ$  kattaliklardan mosini tanlab, jadvaldagi qo'shni burchaklarni to'ldiring:


$\angle 1$	$90^\circ$	?	?	$75^\circ$	$175^\circ$
$\angle 2$	?	$30^\circ$	$105^\circ$	?	?

### UCHBURCHAK BURCHAKLARINING YIG'INDISI


**514.** Qanday geometrik shakl uchburchak deb ataladi? Bir nechta uchburchak chizing.

**515.** 43-rasmga qarang. Uchburchakning tomonlari, burchaklari, balandligini va uchburchakning asosini toping.  $AB$  va  $BC$  tomonlar qanday nomlanadi?

**516.** Uchburchak burchaklarining turini ayting (44-rasm):



43-rasm.




44-rasm.

Bitta burchagi to'g'ri bo'lgan uchburchak qanday nomlanadi?

Bir burchagi o'tmas burchak bo'lgan uchburchak qanday nomlanadi? Hamma burchaklari o'tkir burchaklar bo'lgan uchburchak-chi?

**517.** Uchburchaklar tomonlarining uzunligini o'lchang (37-rasm).



45-rasm.

Hamma tomonlari teng uchburchaklar qanday nomlanadi?  
Hamma tomonlari har xil uchburchaklar-chi? Ikki tomoni teng uchburchaklar-chi?


**518.** Sirkul, chizg'ich, transportir yordamida:

1) tomonlari har xil bo'lgan  $ABC$  uchburchak yasang.

Transportir yordamida uchburchaklarning kattaliklarini o'lhab, yozing:  $\angle A = \dots$ ,  $\angle B = \dots$ ,  $\angle C = \dots$ .


$ABC$  uchburchakning burchak yig'indilarini hisoblab, yozing:  $\angle A + \angle B + \angle C = \dots$ ;

2) teng yonli to'g'ri burchakli  $ABD$  uchburchak yasang. Avval  $90^\circ$  ga teng  $B$  burchak yasang. Uning bir tomonida  $BD = 4$  sm li, boshqa tomonida 4 sm li  $AB$  kesma ajratib oling. So'ng  $A$  va  $D$  nuqtalarni kesma yordamida birlashtirib  $\triangle ABD$  hosil qiling. Transportir yordamida ushbu burchaklar kattaligini o'lchab, yig'indisini toping:  $\angle A + \angle B + \angle D = \dots$ .



46-rasm.

- 519.** O'tmas burchakli teng yonli uchburchak chizing; tomonlari har xil bo'lgan uchburchak chizing. Uchburchakning burchaklari yig'indisini toping.
- 520.** Uch xil o'tkir burchakli uchburchak chizing. Ushbu uchburchaklar burchaklarining yig'indisini toping.
- 521.** Berilgan uchburchaklarning burchaklari yig'indisini topib, ularning nomini ayting (47-rasm).



47-rasm.



Uchburchak uchala burchaklarining yig'indisi  $180^\circ$  ga teng.

**522.** Uchburchak burchaklarining yig'indisini toping:

a)  $\triangle AOD$

$\angle A = 60^\circ$

$\angle O = 40^\circ$

$\underline{\angle D = ?}$

b)  $\triangle MNK$

$\angle M = 30^\circ$

$\angle N = 60^\circ$

$\underline{\angle K = ?}$

d)  $\triangle ABD$

$\angle A = 30^\circ$

$\angle B = 40^\circ$

$\underline{\angle D = ?}$


Ushbu uchburchaklarning turini ayting.

**523.** Quyidagi o'lchamlar asosida to'rtta uchburchak chizing:

$\angle 1$	$100^\circ$	$90^\circ$	$30^\circ$	$60^\circ$
$\angle 2$	$50^\circ$	$25^\circ$	$65^\circ$	$40^\circ$
$\angle 3$	$30^\circ$	$75^\circ$	$45^\circ$	$80^\circ$

### PARALLELOGRAMM (ROMB)

**524.** 48-rasmda qanday ko'pburchaklar tasvirlangan? Hamma burchaklari to'g'ri bo'lgan to'g'ri to'rburchaklar yasang. Ushbu to'g'ri to'rburchaklarning nomini ayting:



48-rasm.

**525.** Ta'riflang.

**To'g'ri to'rburchak** deb ...

**Kvadrat** deb ...

- 526.** a) tomonlari 5 sm va 2 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak;  
 b) tomonlari 3 sm bo'lgan kvadrat yasang.

Savollarga javob bering:

- 1) To'g'ri to'rtburchak, kvadrat tomonlari uzunliklari haqida nima deyish mumkin?
- 2) To'g'ri to'rtburchakning qarama-qarshi tomonlari haqida nima deyish mimkin?
- 3) To'g'ri to'rtburchak va kvadratda nechta diagonal bo'ladi?
- 4) To'g'ri to'rtburchak va kvadrat diagonallari uzunliklari qanday bo'ladi?
- 5) To'g'ri to'rtburchak va kvadrat burchaklarining kattaliklari qanday?
- 6) To'g'ri to'rtburchak va kvadratning o'xshash va farqli tomonlari nimada?

- 527.** 49-rasmdagi to'rtburchakka qarang.


- 1)  $ABCD$  to'rtburchagi tomonlarini o'lchang.

Yozib oling:

$$AB = CD = \dots; AD = BC = \dots$$

- 2) Uchburchak chizg'ich va chizg'ich yordamida qarama-qarshi tomonlarning parallelligini tekshiring va yozing:  
 $AD$  tomon  $\parallel \dots$ ;  $AB$  tomon  $\parallel \dots$ .

- 3) Berilgan to'g'ri to'rtburchak burchaklarining turlarini ayting:  $\angle A, \angle C = \dots$ ;  $\angle B, \angle D = \dots$ .




49-rasm.



Har bir tomoni qarama-qarshi tomoniga parallel bo'lgan to'rtburchak **parallelogramm** deyiladi.

**528.** 50-rasmdagi parallelogrammni ko'rib chiqing.




50-rasm.

- 1)  $BK$  – parallelogramm balandligi.  $B$  nuqtadan quyi asosga perpendikular tushiramiz.
- 2)  $AC$  va  $BD$  – parallelogramm diagonallari. Diagonallarni o'lchab yozing:  $AC = \dots$ ;  $BD = \dots$ . Parallelogramm diagonallari tengmi?
- 3) Transportir yordamida parallelogramm burchaklarini o'lchab, yozing:  
 $\angle A = \dots$ ;  $\angle B = \dots$ ;  $\angle C = \dots$ ;  $\angle D = \dots$ .

Qaysi burchaklar teng?  $\angle A = \angle \dots$ ;  $\angle B = \angle \dots$ .


**529.** Transportir, chizg'ich, sirkul yordamida tomonlari 5 sm va 3 sm bo'lgan  $ABCD$  parallelogramm yasang.

- 1) To'g'ri chiziqdagi  $A$  nuqtadan  $AD = 5$  sm kesma belgilang va  $A$  nuqtadan burchak yasang (51-rasm, a).
- 2) Burchak tomonidagi  $A$  nuqtadan  $AB = 3$  sm belgilang.  $B$  nuqtadan sirkul yordamida 5 sm uzoqlikda va  $D$  nuqtadan




51-rasm, a

3 sm uzoqlikda yoy belgilang. Yoylar C nuqtada kesishib, parallelogrammning to'rtinchi yuqori nuqtasini hosil qiladi (51-rasm, b).



51-rasm, b

3) B va D nuqtalarni to'g'ri chiziq orqali C nuqta bilan birlashtirsak, ABCD parallelogramm hosil bo'ladi (51-rasm, d).



51-rasm, d



**530.** Tomonlari 3 sm va 2 sm; 6 sm va 3 sm bo'lgan parallelogramm yasang.

**531.** Parallelogrammning asosiy xossalalarini ta'riflab bering.

- 1) Parallelogrammning qarama-qarshi tomonlari ...
- 2) Parallelogrammning burchaklari ...
- 3) Parallelogrammning diagonallari ...

**532.** Hamma burchaklari to'g'ri parallelogramm yasang. Hosil bo'lgan shaklni yana qanday atash mumkin?

**533.** Jadvalga (52-rasm) to'g'ri to'rtburchak va parallelogrammning o'xshash tomonlari hamda farqini yozing.




52-rasm.

O'xshash tomonlari	
Farqi	

**534. 1)**  $ABCD$  parallelogrammning tomonlarini o'lchab yozing:

$$AB = \dots ; BC = \dots ; CD = \dots ; AD = \dots .$$

$ABCD$  parallelogrammning tomonlari haqida nima deyish mumkin?



53-rasm.



Barcha tomonlari bir-biriga teng bo'lgan parallelogramm **romb** deyiladi.

**2)** Rombning diagonallarini o'lchab yozing:  $AC = \dots ; BD = \dots$ . Rombning diagonallari o'zaro ... .



3) Rombning burchaklarini o'lchab yozing:

$$\angle A = \dots ; \angle B = \dots ; \angle C = \dots ; \angle D = \dots .$$

Rombning qarama-qarshi burchaklari ... .




**535.** 54-rasmdagi parallelogramma qarang. Bu geometrik shakllarni yana qanday atash mumkin?  $AC$ ,  $BD$ ,  $A_1C_1$  va  $B_1D_1$  kesmalar qanday nomlanadi?  $AC$  va  $BD$ ,  $A_1C_1$  va  $B_1D_1$  diagonallari tengmi?

Kvadrat va rombning burchaklarini o'lchab, ularning turlarini aniqlang:



54-rasm.

**536.** Geometrik shakllarning nomini ayting va ularning balandligini toping (55-rasm):



55-rasm.

**537.** Tomonlari:




$$1) a = 35 \text{ mm} \\ b = 20 \text{ mm}$$

$$2) a = 6 \text{ sm} \\ b = 45 \text{ mm}$$


bo'lgan ikkita parallelogramm chizing va ularning balandligini toping.

**538.** Romb va parallelogramm chizing. Bu shakllarning o'xshash tomonlari va farqini toping.

**539.** Jadvalga qarang. Berilgan to'g'ri to'rtburchaklarning xossalalarini yozing.

 A square with vertices labeled A (bottom-left), B (top-left), C (top-right), and D (bottom-right). The diagonals AC and BD are drawn and intersect at their midpoint.	Barcha tomonlari teng	Qarama-qarshi tomonlari parallel	Diagonallari teng	Hamma burchaklari $90^\circ$ ga teng
 A rectangle with vertices labeled A (bottom-left), B (top-left), C (top-right), and D (bottom-right). The diagonals AC and BD are drawn and intersect at their midpoint.				
 A parallelogram with vertices labeled A (bottom-left), B (top-left), C (top-right), and D (bottom-right). The diagonals AC and BD are drawn and intersect at their midpoint.				
 A general quadrilateral with vertices labeled A (bottom-left), B (top-left), C (top-right), and D (bottom-right). The diagonals AC and BD are drawn and intersect at their midpoint.				

Ko'pburchaklar orasida to'rtburchaklar;  
 to'rtburchaklar orasida – parallelogrammlar;  
 parallelogrammlar orasida – to'g'ri to'rtburchaklar va romblar;  
 to'g'ri to'rtburchaklar va romblar orasida kvadratlar bor (56-rasm).



56-rasm.

- 540.** Hamma tomonlari teng to'g'ri burchakli parallelogramm qanday nomlanadi? Ushbu shaklni yasang.
- 541.** Hamma tomonlari 30 mm ga teng parallelogramm yasang. U qanday nomlanadi? Ushbu shaklni yasang.
- 542.**
- 1) Tomonlari 2 sm li to'g'ri burchakli romb yasang. Ushbu geometrik shakl yana qanday nomlanadi?
  - 2) Barcha tomonlari 4 sm ga teng parallelogramm yasang. Hosil bo'lgan shakl qanday nomlanadi?
  - 3) Tomonlari uzunligi 5 sm va 3 sm hamda barcha burchaklari teng parallelogramm yasang.
  - 4) Hamma tomonlari uzunligi 40 mm ga teng, burchaklari esa to'g'ri parallelogramm qanday nomlanadi?

5) Tomonlari 5 sm ga teng to'g'ri to'rtburchakni yana qanday atash mumkin?

**543.** Gaplarni to'ldirib yozing:

1. Har bir tomoni ... bo'lgan to'rtburchak parallelogramm deyiladi.
2. Barcha burchaklari ... bo'lgan parallelogramm to'g'ri to'rtburchak deyiladi.
3. Barcha tomonlari ... parallelogramm romb deyiladi.
4. Burchaklari ... bo'lgan romb kvadrat deyiladi.
5. Diagonallari bo'lgan romb kvadrat deyiladi.


**544.** AB va unga qo'shimcha nur chizing. Har bir nurda 3 sm 5 mm li kesma ajrating.

**545.** 57-rasmida 3 ta nuqta belgilangan. Uchta kesma, bitta to'g'ri chiziq va 4 ta nurni ko'rsating.

**546.** AB kesmaning uzunligi 4 sm 2 mm ga teng. CD kesma AB kesmadan 8 mm uzunroq bo'lsa, AB va CD kesmalarni chizing.

**547.** Uchta bir xil kesmadan iborat siniq chiziq chizing va uzunligini hisoblang.

**548.** Ikkita uchburchak chizing. Ulardan biri to'g'ri burchakli, ikkinchisi o'tmas burchakli bo'lsin.



57-rasm.



## TAKRORLASH

**549.** Sonlarni o'qib, sinf xonalariga ajratib yozing:

3897; 52000; 603; 2078; 26708; 50008; 34010.

**550.** Sonlarni raqamlar bilan yozing:

Yigirma besh ming yetti yuz sakkiz; qirq ming yigirma olti; yuz ming; o'n ikki ming ellik.

**551.** Eng katta va eng kichik besh xonali sonni yozing.

**552.** Berilgan har bir sondan oldin va keyin keladigan sonlarni yozing:

...; 10 429; ...      ...; 52 301; ...      ...; 30 499; ...  
...; 69 999; ...      ...; 70 000; ...      ...; 99 999; ...

**553.** Og'zaki hisoblang:

$47\,000 + 800$	$54\,100 + 3\,000$
$62\,000 - 2\,000$	$25\,000 + 50\,000$
$71\,200 - 1\,200$	$63\,000 - 40\,000$

**554.** Yig'indini toping.

$26\,312 + 5\,603 + 30\,907$	$72\,009 + 8\,906 + 254$
$708 + 35\,442 + 6\,200$	$64 + 2\,009 + 15\,123$
$42\,010 + 96 + 4\,503$	$3\,072 + 456 + 24\,564$

Qo'shishning qaysi usulidan foydalandingiz?

**555.** Ayirmani toping:

20100 – 3500	80101 – 69293
16243 – 952	21040 – 12432
40000 – 16703	52630 – 30748
90909 – 35897	100000 – 63052

**556.** Maktab xo'jaligida tovuqlarni boqish uchun ikki qop don sotib olindi. Donning 63 kg i sarflanganda 86 kg don qoldi. Hammasi bo'lib necha kilogramm don sotib olingan?

**557.** O'quvchi qiz 2 m li sharf to'qimoqchi bo'lib, bir kunda 87 sm ini to'qib bo'ldi. O'quvchi qiz yana qancha uzunlikda sharf to'qishi kerak?

**558.** Maydaroq o'lchov birliklarda ifodalang:

5 sm=... mm	3 t 2 kg=... kg	6 sm 7 mm=... mm
34 km=... sm	4 km 15 m=... m	9 t 5 sr=... sr
8 kg=... g	60 kg=... g	3 km=... m
9 sr=... kg	8 sr 6 kg=... kg	5 m 6 mm=... mm

**559.** Yirikroq o'lchov birliklarda ifodalang:

78 mm	3608 kg	81305 kg
92 sr	4009 g	25163 kg
160 sm	5036 m	80025 g
1205 sm	9000 mm	15600 m

**560.** Misollarni yeching:

$$35 \text{ kg } 197 \text{ g} + 16 \text{ kg } 893 \text{ g} - 640 \text{ g}$$

$$40 \text{ t} - 3 \text{ sr} + 8 \text{ t } 9 \text{ sr}$$

$$312 \text{ sr } 20 \text{ kg} + 428 \text{ sr } 90 \text{ kg} - 35 \text{ kg}$$

$$5 \text{ t} - (678 \text{ g} + 1 \text{ t } 543 \text{ kg})$$

**561.** Amudaryoning uzunligi 1437 km, Zarafshon daryosining uzunligi 781 km bo'lib, u Amudaryo uzunligidan qanchaga kam?

**562.** 12 m 65 sm li tasmadan 6 m 80 sm qirqib olinsa, tasmaning qaysi bo'lagi kaltaroq bo'ladi: qolgan bo'lagimi yoki qirqib olingan bo'lagimi? Qanchaga kaltaroq bo'ladi?

**563.** Ko'paytmani toping:

386 · 10	6 501 · 10	204 · 9	100 · 176
100 · 35	10 · 100	360 · 8	803 · 100
1 000 · 92	293 · 0	496 · 5	9 · 318

**564.** Bo'linmani toping:

300 : 100	80 000 : 1 000	3015 : 5
600 : 10	32 400 : 100	4612 : 3
5 100 : 1 000	1 050 : 10	3 004 : 4

**565.** Maktab-internatga 15 bog'lam rasm albomi va 10 bog'lam chizmachilik albomi olib kelindi. Har bir bog'lamda 9 tadan albom bo'lsa, hammasi bo'lib qancha albom olib kelindi?

**566.** Dehqon bozorga har birida 60 kg dan 10 qop kartoshka olib kelib sotdi. Har bir kilogramm kartoshkaning narxi  so'm bo'lsa, dehqon necha so'mlik kartoshka sotgan?

**567.** Ko'paytmani toping:

640 · 30	504 · 50	415 · 36
250 · 80	108 · 60	807 · 27
630 · 40	200 · 90	196 · 18

**568.** Bo'linmani toping:

3 600 : 50	61 200 : 90	22 050 : 35
2 500 : 50	37 500 : 50	39 424 : 56
1 200 : 60	41 400 : 60	56 550 : 87

**569.** Misollarni yeching:

$250 \cdot 36 + 8314$	$(2703 + 6937) \cdot 10$
$109 \cdot 45 - 935$	$10000 - 9522 : 9$
$(7987 - 2113) \cdot 100$	$2630 + 1216 \cdot 50$

**570.** Xaltada 2 kg shakar bor edi. Ona qanddonga 250 g dan 5 marta shakar solsa, xaltada qancha shakar qoladi?

**571.** Massasi 500 g li bir banka smetana sotib olindi. Uning  $\frac{1}{4}$  qismi sarflansa, bankada qancha smetana qoladi?

**572.** Oromgoh oshxonasiga 1 350 kg sabzavot olib kelindi. Hamma sabzavotlarning uchdan bir qismi pomidor, beshdan bir qismi bodring, qolgan qismi karam bo'lsa, oshxonaga qancha karam olib kelingan?

$100\ 000 : 25 + 203 \cdot 15$	$3005 \cdot 31 - 3456 + 4\ 009$
$80\ 095 - 3412 + 25\ 852 : 46$	$3604 \cdot 23 + 16\ 095 : 15$
$100\ 000 - 43\ 578 : 9 \cdot 13$	$100\ 000 : 50 \cdot 24 - 2891$

**574.** Kasrlarni taqqoslang:

3,700 ... 3,8	4,25 ... 4,025	18,040 ... 18,04
5,06 ... 5,60	0,001 ... 0,1	50,30 ... 50,300

**575.** Misollarni yeching:

$4,68 + 0,19$	$21,02 - 5,64$	$32,7 + 6,82$
$0,09 + 25,3$	$4,415 - 3,918$	$4 - 0,6$

$$6,3 + 4,91$$

$$12,3 - 2,56$$

$$1 - 0,99$$

$$30,2 + 0,8$$

$$4,9 - 1,004$$

$$6,003 - 4,5$$

**576.** Misollarni yeching:

$$15,7 + 11,2$$

$$18,91 + 14,7$$

$$14,7 - 6,3$$

$$2 - 6,3$$

$$2,14 + 5,6$$

$$40,5 + 12,9$$

$$8,04 - 7,2$$

$$14 - 5,72$$

$$19,3 + 2,37$$

$$0,02 + 9,091$$

$$10,2 - 9,13$$

$$1 - 0,9$$

**577.** Amallarni bajaring:

$$1) 3 \text{ km } 163 \text{ m} \cdot 23$$

$$6 \text{ kg}:50$$

$$5 \text{ t } 600 \text{ kg} \cdot 30$$

$$80 \text{ t } 528 \text{ kg}:4$$

$$51 \text{ sr}:25$$

$$52 \text{ km } 590 \text{ m}:15$$

$$3 \text{ m } 56 \text{ sm} \cdot 24$$

$$3 \text{ sm}:6$$

$$32 \text{ sm } 6 \text{ mm} \cdot 35$$

$$2) (9 \text{ sr } 6 \text{ kg} + 29 \text{ sr } 58 \text{ kg}) \cdot 20 - 108 \text{ sr } 6 \text{ kg}$$

$$(30 \text{ m } 16 \text{ sm} + 11 \text{ m } 9 \text{ sm}) \cdot 8 - 86 \text{ m}:50$$

$$3 \text{ t } 205 \text{ kg} + 7 \text{ t } 4 \text{ kg} \cdot 80:40 - 653 \text{ kg}$$

**578.** 1) Tomonlari 32 mm va 54 mm bo'lgan to'rtburchak;

2) tomonlari 4 sm 7 mm va 2 sm 5 mm bo'lgan parallelogramm;

3) tomonlari 4 sm bo'lgan romb;

4) tomonlari 30 mm li va to'g'ri burchakli romb chizing.

**579.** Amallardan misol tuzib yeching:

1) O'ttiz besh mingni 7 mingta kamaytiring.

2) Uch ming besh yuz sakkizni 7 marta orttiring.

3) Uch ming besh yuz sakkizni 7 ta orttiring.

4) O'ttiz besh mingni 7 marta kamaytiring.

- 580.** Bir mashinada 3,4 t, ikkinchisida undan 0,85 t ko'p yuk bor. Ikkala mashinada qancha yuk bor?
- 581.**  $AB$  kesmaning uzunligi 4,7 sm,  $BC$  kesmaning uzunligi  $AB$  kesmaning uzunligidan 1,8 sm uzunroq bo'lsa,  $ABC$  siniq chizig'ining uzunligini toping.
- 582.** Shahardan tuman markaziga 45 km/soat tezlik bilan yuk mashinasi ketyapti. Tuman markazigacha 90 km masofani mashina necha soatda bosib o'tadi? 180 km masofani-chi?
- 583.** 65 km/soat tezlik bilan yurgan poyezd 8 soatda qancha masofani bosib o'tadi?
- 584.** Amallarni bajaring:
- |                                 |                  |
|---------------------------------|------------------|
| 59 695 + 208 · (2000 – 1938)    | 4,306 + 7 – 9,48 |
| 64 512 – 32 512 : (1 002 – 938) | 0,004 + 11,5 – 8 |
- 585.** Misollarni yeching:
- |                                   |                                  |
|-----------------------------------|----------------------------------|
| 26 sr 1 kg · 32 + 8 sr 35 kg · 19 | (16 m 39 sm + 25 m 73 sm) : 10   |
| (16 m 39 sm + 25 m 73 sm) : 10    | (75 t 160 kg – 32 t 481 kg) · 10 |
- 586.** Tomonlari 0,45 m li kvadrat shaklidagi sochiqning atroflarini to'r bilan tikish uchun qancha to'r sotib olish mumkin?
- 587.** Xo'jalik hammasi bo'lib 4195 kg olma terib oldi. Hosilning yarmisi sotishga,  $\frac{1}{10}$  qismi mакtab oshxonalariga, qolgan qismi esa sharbat ishlab chiqarishga jo'natildi. Sharbat ishlab chiqarishga qancha olma jo'natilgan?

## MUNDARIJA

<b>Yuz ming ichida raqamlash.....</b>	3
Sonlarni yaxlitlash .....	8
<b>Ko'p xonali natural sonlarni qo'shish va ayirish .....</b>	10
Og'zaki qo'shish va ayirish .....	10
Yozma usulda qo'shish va ayirish.....	12
<b>Sonlarni 10, 100, 1000 ga ko'paytirish va bo'lish.....</b>	21
10, 100, 1000 ga qoldiqli bo'lish.....	25
<b>O'Ichov birliklarini o'Ichashda hosil bo'lgan sonlarda ifodalash ....</b>	27
<b>O'Ichov birliklarini qo'shish va ayirish .....</b>	33
<b>Bir xonali sonlarga ko'paytirish va bo'lish .....</b>	43
Og'zaki ko'paytirish va bo'lish.....	43
Yozma ko'paytirish va bo'lish.....	46
<b>Kattaliklarni bir xonali songa ko'paytirish va bo'lish.....</b>	60
<b>Yaxlit o'nliklarga ko'paytirish va bo'lish.....</b>	70
<b>Ikki xonali songa ko'paytirish .....</b>	76
<b>Ikki xonali songa bo'lish .....</b>	83
<b>Kasr sonlar.....</b>	95
Oddiy kasrlar (takrorlash) .....	95
<b>O'nli kasrlar.....</b>	98
O'nli kasrlarning hosil bo'lishi, yozilishi va o'qilishi.....	98

O'nli kasrlarning yirikroq (maydarоq), bir xil ulushlarda ifodalanishi	106
O'nli kasrlarni taqqoslash .....	109
<b>O'nli kasrlarni qo'shish va ayirish.....</b>	<b>114</b>
<b>Vaqt birliklari .....</b>	<b>123</b>
Takrorlash .....	123
Vaqt birliklarini qo'shish va ayirish .....	124
<b>GEOMETRIYA</b>	
<b>Takrorlash .....</b>	<b>133</b>
Aylana. Aylananing tuzilishi .....	136
Burchaklar .....	139
Yoyiq burchak.....	141
To'g'ri burchak.....	142
O'tkir va o'tmas burchaklar .....	143
To'liq burchak.....	145
Gradus. Burchaklarning gradus o'lchovi .....	146
Transportir. Transportir yordamida burchaklarni yasash va o'lchash	149
Qo'shni burchaklar va ularning yig'indisi.....	153
Uchburchak burchaklarining yig'indisi .....	156
Parallelogramm (romb).....	159
<b>Takrorlash .....</b>	<b>168</b>

**Abdulla Axatov, Margarita Saydaliyeva,  
Farida Muzaffarova, Maxbuba Barakayeva**

## **MATEMATIKA**

*Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan mактаб  
va mактаб-internatlarning 7-sinf darsligi  
(Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun)*

*Ikkinchи nashr*

Muharrir	T. Nazarov
Texnik muharrir	D. Salixova
Rassom	J. Gurova
Musahhih	Sh. Ilhombekova
Kompyuterda tayyorlovchi	B. Babaxodjayeva

Original-maket «NISO POLIGRAF» nashriyotida tayyorlandi.  
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,  
Mash'al mahallasi, Markaziy ko'chasi, 1-uy.  
Litsenziya raqami AI №265. 24.04.2015.

Bosishga 2016 yil 11 oktabrda ruxsat etildi. Bichimi  $70 \times 90^{\prime\prime}$ .  
Ofset qog'ozi. «Arial» garniturasi. Kegli 14.  
Shartli bosma tabog'i 11,0. Nashr b.t. 9,42. Adadi 1080 nusxa. Buyurtma №623.

«NISO POLIGRAF» MChJ bosmaxonasida bosildi. Toshkent viloyati,  
O'rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY, Mash'al mahallasi, Markaziy ko'chasi, 1-uy.

SOTUVGA CHIQARISH TAQIQLANADI  
**RMKJ**

NISO  
Poligraf 

ISBN 978-9943-4765-7-8



9 789943 476578